

BOLALAR ADABIYOTI

Nikolay Gogol

# REVIZOR

5 pardali komediya

Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalanma.

Xalq maqoli

Rus tilidan Kibriyo va Abdulla Qahhor tarjimasida

Обязательный  
экземпляр

УДК 84 (2Ros=Rus)  
КБК G61  
821.161.1.-053.5

- Руслан

## Rus tilidan Kibriyo va Abdulla Qahhor tarjimasida

### G61 Gogol, Nikolay

Revizor: 5 pardali komediya/Nikolay Gogol; tarjimon: Kibriyo va Abdulla Qahhor. — Toshkent: Baktria press, 2012. — 80 b. — (Bo'lalar adabiyoti).

Nikolay Gogol (1809–1852) — rus yozuvchisi. Rus adabiyotida tanqidiy realizmga asos solgan. Nejin gimnaziyasini tugatib (1828), Peterburgga kelgan. Rassomlik qilgan, drama to'garaklarida faol qatnashgan, ayrim yumoristik rollarni ijro etib, badiiy ijod bilan ham shug'ullangan.

Mahkamalardagi qog'ozbozlik, sansalorlik kabi illatlar Gogol uchun boy mavzu bo'ldi («Peterburg qissalari, 1830). A.S. Pushkin bilan uchrashuvi (1831) Gogol ijodida burilish yasadi. «Dikanka qishlog'i oqshomlari» (1831—32) to'plamiga kirgan hikoya va qissalari («Sorochino yarmarkasi», «Dahshatli qasos» va b.) Gogolga shuhrat keltirdi. Bunda Malorossiyadagi turmush tarzi, odamlar ongi, axloqi, xalqning yumorga boy afsonalari, urf-odatlari aks ettirilgan. «Mirgorod» to'plami hamda «Arabeskalar» to'plamida (1835) shahar hayoti manzaralari «ko'zdan yosh chiqquncha» kulgi qo'zg'atadigan usulda tasvirlanadi. «Taras Bulba» (1835) qissasi ukrain xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashiga bag'ishlangan. Revizor» (1836) komediyasida Rossiya'dagi mansabparastlik, xazinani talon-toroj qilish, poraxo'rlik va boshqa hajv ostiga olingan. Gogol ijodining choqqisi bo'lgan «O'lik jonlar» (1842) doston-romanida Rossiya'dagi o'sha davr hayotiga umumiy tavsif berilgan.

УДК 84 (2Ros=Rus)  
КБК G61

2013/91	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
A 67.99	10-41394 0

# ISHTIROK ETUVCHILAR

*Anton Antonovich Skvoznik-Dmuxanovskiy, shahar hokimi.*

*Anna Andreevna, uning xotini.*

*Marya Antonovna, qizi.*

*Luka Lukich Xlopov, maktablar noziri.*

*Uning xotini*

*Ammos Fyodorovich Lyapkin-Tyapkin, sudyasi.*

*Artyomiy Filippovich Zemlyanika, xudoyixonalar mutasaddisi.*

*Ivan Kuzmich Shpekin, pochta mudiri.*

*Pyotr Ivanovich Dobchinskiy, Pyotr Ivanovich Bobchinskiy, shahar pomeshchiklari.*

*Ivan Aleksandrovich Xlestakov, peterburglik chinovnik.*

*Oslip, uning xizmatkori.*

*Xristian Ivanovich Gibner, uyezd doktori.*

*Fyodor Andreevich Lyulyukov, Ivan Lazarevich Rastakovskiy, Stepan Ivanovich Korobkin, shaharning mo'tabar kishilari, iste'foga chiqqan chinovniklar.*

*Stepan Illich Uxovyartov, daha pristavi.*

*Svitunov, Pugovitsin, Derjimorda, mirshablar.*

*Abdullin, savdogar.*

*Fevronya Petrovna Poshlepkina, slesar xotini.*

*Unter-ofitser xotini.*

*Mishka, hokimning xizmatkori.*

*Traktir xizmatkori.*

*Mehmonlar, savdogarlar, meshchanlar va arzga kelgan odamlar.*

# XARAKTYERLAR VA KIYIMLAR

## Janob aktyorlarga izoh va uqtirishlar

**Hakim**, hukumat xizmatida qarigan, o'zicha xiyla aqlli odam. Praxo'r bo'lsa ham o'zini juda ulug' vor tutadi; anchagina sipo, xatto bir qadar nasihatgo'y; qattiq ham gapirmaydi, sekin ham, ko'p ham gapirmaydi, oz ham. U har bir so'zni salmoqlab gapiradi. Aft-angori past amaldan boshlab katta amalga yetguncha ko'p mashaqqat tortgan kishilarniki singari dag'al. To'qim tabiat odamlar singari vahimaga tushishi ham, xursand bo'lishi ham, pastkash bo'lishi ham, takabbur bo'lishi ham oson. Doim petlitsali mundir, shpor taqilgan va qo'nji uzun etik kiyib yuradi. Sochi qirqilgan, oq tushgan.

**Anna Andreevna**, uning xotini, satang, hali yoshi qaytmagan. Qisman roman va albom o'qib tarbiya topgan bo'lsa, qisman uyda ro'zg or ikir-chikiri va xizmatkor qizlar doirasida tarbiya topgan. O'ziga kerak va nokerak har qanaqa narsaga qiziqadigan, maqtanchoq. Ba'zida uning tanbehlariga javob bera olmagani uchungina eridan ustun kelib qo'yadi, lekin bu faqat mayda-chuyda ishlarda, eriga tanbeh qilish va uni kalaka etish doirasidan chiqmaydi. Pesadagi voqeа davомida to'rt xil kiyimda ko'rinadi.

**Xlestakov**, yigirma uch yoshlarda, oriq, jikkak bir yigit, tentakroq va kallasi puch odamlardan. Aytadigan gapini ham, qiladigan ishini ham mulohaza qilmaydi, biron fikrga diqqatini jalb qilishdan ojiz. So'zleri palapartish, gaplari tomdan tarasha tushganday. Bu rolni bajaruvchi kishi qanchalik samimiyat va soddalik ko'rsatsa, shuncha yaxshi. Kiyimi modaga muvofiq.

**Osiп**, yoshi qaytibroq qolgan oddiy xizmatkor. Gaplari jiddiy, bir oz yerga qarab gapiradi; nasihatgo'y, xo'jayiniga qilladigan nasihatini o'ziga aytib o'tirishni yaxshi ko'radi. U hamma vaqt bir zaylda gapiradi, xo'jayindga uncha-muncha gap qaytaradi va hatto to'nglik qiladi: xo'jayinidan ko'ra aqliroq bo'lgani uchun ziyrakroq, lekin ko'p gapirishni hushlamaydi; indamas, ayyor. Kostyumi kul rang yoki ko'k nimdosh syurtuk.

**Babchinskiy** bilan **Dobchinskiy**, ikkovi ham pakana, kerak bo'lsa bo'lmasa har narsani bilihga qiziqadigan; ikkovi bir-biriga niyatda o'xshagan, bir oz qorin solgan, ikkovi ham bidirlab gapiradi, gapirganda fikrini ko'proq imo-ishora bilan anglatadi. Dobchinskiy

**Bobchinskiyga qaraganda salgina novcharoq va siporoq, lekin Bobchinskiy Dobchinskiyga ko'ra surroq va jonsarak.**

**Lyapkin-Tyapkin**, sudya, umrida besh yo oltita kitob o'qigan, shuning uchun bir ozgina fikri ochiqroq. Har bir hodisaga taxminan ma'no berishni yaxshi ko'radi va har bir so'ziga ahamiyat beradi. Buni o'ynaydigan kishi hamma vaqt yuzida ulug'vorlik ko'rsatishga tirishtmog'i kerak. Ovozi yo'g'on, so'zni xirillabroq, cho'zibroq gapiradi.

**Zemlyanika**, xudoyixonalar mutasaddisi, juda semiz va qopol, lekin dog'uli va pismiq kishi, lagambardor va jonsarak.

**Pochta mudiri**, sodda va go'l odam.

Boshqa rollar ayrim izoh talab qilmaydi. Bunday odamlarning nusxalari hamma vaqt ko'z oldimizda.

Janob aktyorlar ayniqsa so'nggi ko'rinishga e'tibor qilmoqlari lozim. Eng so'ng aytilgan so'z hammaga birdan va juda qattiq ta'sir qilishi kerak. Butun gruppera vaziyatini bir damda o'zgartirishni, xotinlarning hayronlik nidolari go'yo bir og'izdan chiqqanday bo'lishi kerak. Bu uqtirishlarga e'tibor qilinmasa o'yining ta'siri yo'qoladi.

## BIRINCHI PARDA

### HOKIMNING HOVLISIDA BIR BO'LMA

#### I MAJLIS

*Hokim, xudoyixonalar mutasaddisi, maktablar  
noziri, suda, pristav, doktor, ikki mirshab.*

**Hokim.** Sizlarni chaqirtirishdan murod, janoblar, ko'p sovuq bir xabarni eshittirib qo'yish: bizning tomonga revizor kelyapti.

**Ammos Fyodorovich.** Revizor?

**Artyomiy Filippovich.** Revizor?

**Hokim.** Ha, Peterburgdan, yashirin nom, yana maxfiy topshiriq bilan kelyapti.

**Ammos Fyodorovich.** Ana xolos!

**Artyomiy Filippovich.** Bir kami shu edi.

**Luka Lukich.** Subhonollo, tag'in maxfiy topshiriq bilan-a!

**Hokim.** O'zimga ham xuddi ayon bo'lganday edi: shu bugun kechasi bilan tushimga ikkita g'alati kalamush kirib chiqdi. Bunaqa kalamushni sira ko'rgan emasman: qop-qora, kattakon! Kelib is-kab-iskab yana qochib ketdi. Andrey Ivanovich Chmixon menga xat yozibdi. Uni siz taniysiz, Artyomiy Filippovich. Xatda mana bunday debdi: «Muhtaram do'stim va qadrdonim...» (ichida o'qiydi) «...seni xabardor qilib qo'yay». Ha, mana: «Shuni ham ma'lum qilib qo'yayki, gubernyamizni (*barmog'i bilan ta'kidlab*), ayniqsa bizning uyezdimizni tekshirgani allanechuk bir chinovnik maxfiy topshiriq bilan kelgan emish. U chinovnik ekanligini yashirib, o'zini fuqaro ko'rsatib yurgan bo'lsa ham men buni tayinlik odamlardan bildim. Boshqalar qatorlari senda ham ba'zl qusurlar bor, esing joyida bo'lgani uchun qo'lga kirgan narsani qo'ldan chiqarib yuborishni hushlamaysan, shuning uchun...» (o'qishdan to'xtaydi). Xayr, bu yerda begona odam yo'q... «Shuning uchun hushyor bo'lmosq'ingni maslahat ko'rman, sababki, u to'satdan kelib qolishi mumkin, balki allaqachon kelib o'zini fuqaro ko'rsatib, tekshirib ham yurgandir... kecha men... Xayr, bu yog'i oilaviy ishlarga taalluqli gaplar; «Hamshiramiz Anna Kirilovna erlari bilan tashrif buyurdilar. Ivan Kirilovich juda semirib ketibdilar, nuqu'l skriptka chaladilar...» hokazo va hokazo! Mana, ahvolni ko'rdilaringmi?

*Ammos Fyodorovich.* Ha, ahvol... Chatoq! Chatoql Tagida bir gap bor?

*Luka Lukich.* Nega bundoq bo'pti ekan-a, Anton Antonovich, nega revizor keladi?

*Hokim (uf tortib).* Nega bo'lar edi! Peshanada, peshana! (*Uf tortib.*) Shukur, shu vaqtgacha boshqa shaharlarga borib yurar edi, endi navbat bizga kelibdi.

*Ammos Fyodorovich.* Mening fahmimcha, Anton Antonovich, buning tagida nozik va zor bir siyosat bor. Buning ma'nosi shuki Rossiya... hm... Rossiyaning biron mamlakat bilan urushmoq muddosi bo'lsa kerak. Ana shuning uchun ministrilik chinovnik yuborib, bu yerlarda biron xiyonat yo'qmikan deb razm sola yotibdi.

*Hokim.* O'xo', vahimangizni qarang-a! Tag'in eslik odam emish bu kishi! Uezd shahrida xiyonat bo'lar emish! Nima, chegaraga yaqin shaharmidi bu? Bu yerdan uch yil ot chopsang ham biron mamlakatga chiqmaysan kishi.

*Ammos Fyodorovich.* Yo'q, men sizga aytsam, siz haligiday... yo'q, sizlar... a... Kattalar chuqur o'ylab: chegaradan uzoq bo'lsa ham oldini olib qo'yaylik deydi-da.

*Hokim.* Oldini oladimi, olmaydimi, ish qilib janoblar, men aytdim qo'ydim: hushyor bo'linglar. Men o'zimga tegishli bo'lgan ba'zi bir amr-farmonlarni qildim, sizlarga ham maslahat shu! Xususan sizga, Artyomiy Filippovich! Keladigan chinovnik bu yerga tushsa, sizga qarashli xudoyixonalarni albatta tekshiradi, shuning uchun orqa-oldingizni yig'ishtirib turing; kasallar kiyadigan qalpoqlar toza bo'lsin, undan keyin, go'laxiga o'xshab yurishmasin unaqa.

*Artyomiy Filippovich.* Buku, hech gap emas-a, toza qalpoq kiydir-sak kiydiraveramiz.

*Hokim.* Shunday bo'lsin. Keyin har bir karavotga lotinchami yo bo'lak biron tildami yozuvlar osib qo'yilsin. Buni siz bilasiz, Xristian Ivanovich, — qanday kasal, kim o'zi, qachon va qaysi kuni kasal bo'lgan... Kasallaringiz juda o'tkir tamaki chekishadi, bu yaxshi emas. Kirsang chuchkira verib esing ketadi. Kasallar ozroq bo'lsa yana yaxshi; bo'lmasa yaxshi qaralmas ekan, doktor nobop ekan deydi.

*Artyomiy Filippovich.* O'xo', Xristian Ivanovich ikkovimiz davolash xususida boshqacha yo'l tutganmiz: hamma gap mijozda, shuning uchun qimmatbaho dorilar ishlatib o'tirmaymiz. Odam-zod degan o'zi jo'n narsa bo'ladi: o'ladigan bo'lsa baribir o'ladi, tuzaladigan bo'lsa baribir tuzaladi. U yog'ini surishtirsangiz Xristian

Ivanovichning kasallar bilan anglashuvi ham qiyin: bir og'iz ham ruscha so'zni bilmaydi.

*Xristian Ivanovich qisman «i» ga, qisman «e»  
ga o'xshab ketadigan ovoz chikaradi.*

**Hokim.** Siz ham Ammos Fyodorovich, mahkamangizga qarang. Arz bilan kelgan odamlar o'tiradigan yo'lagingizda qorovullar g'oz asrab jo'ja ochirishibdi, jo'jalar oyoq ostida o'rالishgani o'ralashgan. Mayli-ku, har kim ham uy-ro'zg'or g'amini yesa otasiga rahmat, nega qorovullar ham ro'zg'or g'amini yemas ekan? Lekin bunaqa joyda asrash yaxshi emas... Men buruntoq ham shuni sizga aytaman deb yurar edim-u, nima bo'lib esimdan chiqar edi.

**Ammos Fyodorovich.** Men shu bugunoq hammasini oshxonaga oldiraman. Maylingiz bo'lsa, biznikiga obedga marhamat qiling.

**Hokim.** Bundan tashqari mahkamaning ichiga kir-chir yoyilishi, hujjalarni turgan javon ustida sopqon osilib turishi ham durust emas. Bilaman, siz ovni yaxshi ko'rasiz, ammo har qalay, revizor o'tib ketguncha shuni olib qo'ying. O'tib ketgandan keyin yana osib qo'ya berasiz. Zasedatingiz ham... o'zi-ku ko'p bilimdon kishi, ammo oldiga borsangiz shunday bir is anqib turadiki, xuddi hozir vino zavodidan chiqibdi deysiz, bu ham yaxshi emas. Men buni sizga allaqachon aytaman deb yurgan edim-u, nimagadir alaxsib esimdan chiqibdi. Agar, o'zi aytganday haqiqatan bu is tug'ma is bo'lsa, yo'qotishning iloji bor: piyozmi, sarimsoq piyozmi yo boshqa biron narsa yesin. Xristian Ivanovich ham biron dori-darmon qilar.

*Xristian Ivanovich «i»-«e» ga o'xshagan tovush chikaradi.*

**Ammos Fyodorovich.** Yo'q, bu isni yo'qotib bo'lmaydi: o'zining aytishiga qaraganda bolaligida onasi bir oz lat yedirgan ekan, o'shandan buyon undan jinday araq hidi kelib turar emish.

**Hokim.** Men aytdim, qo'ydim-da, sizning qanday amr-farmon qilishingiz lozim ekanligi, Andrey Ivanovich xatda «qusurlar» degan narsalar nimaligi to'g'risida hech narsa deyolmayman. G'alati gap-da, gunohdan pok odam bor ekanmi? Xudoning o'zi bandasini shunaqa qilib yaratgan. Volterianlarning bunga qarshi shakkoklik qilishlari behuda.

**Ammos Fyodorovich.** «Qusur» deganini siz nima deb o'ylaysiz, Anton Antonovich? Qusurda ham qusur bor. Men pora olishimni hech

kimdan yashirmayman, ammo qanaqa pora? Men poraga iskovuch itning bolasini olaman. Bu tamoman boshqa gap.

**Hokim.** Kuchuk olasizmi, boshqami, baribir — hammasi ham pora-da.

**Ammos Fyodorovich.** Yo'g'-ye, Anton Antonovich, mana, masalan, birovning po'stini 500 so'm bo'lsa, yana buning ustiga xotiniga ipak ro'mol...

**Hokim.** Xo'sh, nima bo'libdi, poraga kuchuk olar ekansiz? Xudoga ishonmaganingiz-chi? Bir umr butxonaga bormaysiz. Men, har qalay, dingga mahkamman. Har yakshanba kuni butxonaga borishni tark qilmayman. Siz bo'lsangiz... E, bilaman men sizni: dunyoning yaratilishi to'g'risida gapirguday bo'lsangiz, kishining tepe sochi tikk'a bo'lib ketadi.

**Ammos Fyodorovich.** Axir men buni o'zim, o'z aqlim bilan topdim.

**Hokim.** Juda aqli bo'lismish, ba'zida, butkul aqsliz bo'lishdan ham yomonroq bo'ladi. Uezd sudi xususida men shunchayiki aytdim-da, bo'lmasa u yerga, to'g'risini aytganda, kim kirar edi: bu shunday mahkamaki, xudoysi taoloning o'zi hamisha panohida saqlaydi. Ammo siz, Luka Lukich, maktablar noziri bo'lganingiz uchun xususan muallim-larga e'tibor qilishingiz kerak bo'ladi. Bular, albatta, o'zlarini bilimdon odamlar, har xil maktablarda ta'lim olgan kishilar, ammo ilm ahllariga munosib bo'limgan g'alati qiliqlari bor. Shulardan bittasi, masalan, haligi... borku, beti katta... Oti nima edi hali... shu kafedraga kirganda albatta aftini mana bunday qiladi (*yuzini burishtirib ko'rsatadi*), keyin galstugining ostidan qo'lini chiqarib soqolini silaydi. Albatta, shogirdlariga aftini shunaqa burishtirsa-ku hech bokisi yo'g'-a, ehtimol shunday qilishi lozimdir, unisini bilmayman, ammo o'zingiz o'ylab ko'ring, chetdan kelgan odamga shunday qilsa yaxshimi? Janob revizor yo boshqa birov buni o'ziga olishi mumkin. Kim bildi, oqibati nima bo'ladi.

**Luka Lukich.** Nima qilsam ekan endi bu odamni? Unga ko'p aytdim. Buni aytmaysizmi: yaqinda maktabga oqsoqolimiz kirgan edilar, shu kishiga aftini shunaqayam badbashara qildiki, umrim bino bo'lib bunday basharani ko'rganim yo'q. Uning ko'nglida, albatta, hech g'arazi yo'qdir. Ammo menga gap tegdi: bolalarga nima uchun erkin fikrlar talqin etiladi, dedilar.

**Hokim.** Tarix muallimi xususida ham sizga aytib qo'yishim kerak: u o'zi-ku miyali odam-a, aftidan ko'rinish turibdi, ma'lumotni ham juda ko'p yiqqan, ammo dars berib turganida shunaqa ham qizishib

ketadiki, o'zini yo'qotib qo'yadi. Men bir kirib darsiga qulq solib edim: osuriylar bilan bobiyalar to'g'risida gapirganida, xayr, tuzuk edi, ammo Iskandar Zulqarnaynga o'tganda shunday bo'ldiki, nimasi ni aytasiz. Azbaroyi xudo, o't tushdimi debman! Yugurib borib stulni olsa-yu, qulochkashlab yerga ursa bo'ladi? Ha, tuzuk, Iskandar Zulqarnayn qahramon o'tgan ekan, stul sindirishning nima keragi bor? Hazinaga zarar.

**Luka Lukich.** Rost, o'zi bir oz tezroq. Men buni o'ziga ko'p aytganman... «Nima desangiz deng, ammo men ilm yo'llida jonimni ham ayamayman» deydi.

**Hokim.** Taqdiri azalning tushunib bo'lmaydigan qonuni shunday: miyali odam yo piyonista bo'ladi yoki aftini mana shunaqa burishtiradi.

**Luka Lukich.** Xudo hech bandasiga ilm xizmatida bo'lishni nasib qilmasin! Joningni hovuchlab turasan: har kim aralashadi, har kim o'zini dono qilib ko'rsatgisi keladi.

**Hokim.** Shugina bo'lsa-ku mayli-a! Mana bu maxfiy revizorni aytинг. To'satdan kelib «Xo'sh, sizlar shu yerdamisizlar, qo'zichoqlarim! Qani, bu shaharning sudyasi kim bo'ladi? Lyapkin-Tyapkinmi? Qani o'sha Lyapkin-Tyapkin ni bu yoqqa aytib keling-chi? Xudoyixonalar mutasaddisi kim bo'ladi? Zemlyanikami? Qani bu yoqqa aytib keling-chi» deb qolsa, mana bu yomon!

## II MAJLIS

*Halgilar va pochta mudiri.*

**Pochta mudiri.** Nima gap o'zi, janoblar, qanaqa chinovnik kela-yotgan emish?

**Hokim.** Hali eshitganingiz yo'qmi?

**Pochta mudiri.** Pyotr Ivanovich Bobchinskiydan eshitdim. U kishi hozirgina pochtaxonaga kelib ketgan edilar.

**Hokim.** Qani, xo'sh? Buni nima deb o'ylaysiz?

**Pochta mudiri.** Nima deb o'ylar edim? Turklar bilan urush bo'ladi.

**Ammos Fyodorovich.** Fikrimiz bir joydan chiqdi. Men ham xudi shunday deb o'yagan edim.

**Hokim.** Ikkoviaring ham nomaqul aytibsizlar!

**Pochta mudiri.** Yo'q, shunaqagao'xshab qoldi, turklar bilan urush bo'ladi, har baloni boshlagan fransuzlar.

**Hokim.** Turklar bilan qanaqa urush bo'ladi? Turklarga emas, biza yomon bo'ladi, bizga. Bu turgan gap. Menga xat keldi.

**Pochta mudiri.** Unday bo'lsa turklar bilan urush bo'lmaydi.

**Hokim.** Xo'sh, qani, siz nima deysiz, Ivan Kuzmich?

**Pochta mudiri.** Men nima der edim? O'zingiz nima deysiz, Anton Antonovich?

**Hokim.** Nima der edim? Qo'rqadigan yerim yo'q, ammo haligiday, bir oz... savdogarlar bilan qora xalq meni tashvishga solib turibdi. Men ularga yuk tushgan emishman. Men bitta-yarimtadan pora olgan bo'l-sam ham, azbaroyi xudo, biron g'araz bilan olgan emasman, mening ustimidan shu (*uni qo'ltiqlab chetga olib chiqadi*), shu, mening ustimidan biron chaquv bo'ldimi deb o'ylayman-da. O'ylang axir, nega bo'l-masa bizning shaharga revizor keladi? Menga qarang, Ivan Kuzmich, hammamizga ham nafi tegadigan bir ish qilsangiz qalay bo'lar ekan: pochtaxonangizga keladigan, ketadigan hamma xatlarni, haligiday, oz-moz ochib ko'rsangiz: shikoyat yo boshqa biron gap chiqib qolmasmikan. Hech gap bo'lmasa yana bekitib qo'yaverasiz, hatto shunday, ochiqligicha yuboraversangiz ham bo'laveradi, hech bokisi yo'q.

**Pochta mudiri.** Bilaman, bilaman... Buni menga o'rgatmang. Ehti-yotkorlikdangina emas, ko'proq yangi gaplarga qiziqqanimdan o'zim ham xatlarni ochib ko'rib turaman: olamda qanday yangi gaplar borligini bilishni o'larday yaxshi ko'raman. Men sizga aystsam, birovning xatini ochib o'qish juda g'alati bo'ladi-da... Ba'zi bir xatlarda har xil ajoyib voqealarni shunday yozadiki, o'qib huzur qilasiz... Turgan-bitgani hikmat... «Moskovskiye Vedomosti» ni o'qib ham bunchalik miyangiz to'lmaydi.

**Hokim.** Xo'sh, menga qarang, o'sha xatlarda Peterburgdan keldigan chinovnik to'g'risida hech gap yo'qmi?

**Pochta mudiri.** Yo'q, peterburglik chinovnik xususida hech gap yo'q. Ammo Kostroma, Saratov chinovniklari to'g'risida gap ko'p. Attang, bu xatlarni o'qimaysiz-da, shunday g'alati joylari borski... Mana, yaqinda bir poruchikning o'rtog'iga yozgan xatini o'qidim; balni shunday boplab tasvirabdiki, bay, bay... «Aziz do'stim — debdi — mening hayotim huzur-halovatda o'tayotibdi: nozaninlar ko'p»... Shunday yozibdiki, asti qo'ying. Xatni atayin olib qoldim. O'qib beraymi?

**Hokim.** Hozir buning mavridi emas, qulorra kirmaydi. Baraka toping, Ivan Kuzmich, shunday qiling: agar biron shikoyat yoki ma'lumot uchrab qolsa, hech qanday mulohazaga borib o'tirmasdan, darrov olib qo'ying.

*Pochta mudiri.* Jonim bilan.

*Ammos Fyodorovich.* Ehtiyyot bo'ling, bir kun emas, bir kun ba-  
loga qolasiz.

*Pochta mudiri.* Xudo saqlasim.

*Hokim.* Yo'q, yo'q, hech. Ovoza bo'ladigan bir ish qilsangiz ekan,  
o'zaro bo'ladigan narsa-da.

*Ammos Fyodorovich.* Ha... ko'p bema'ni ish bo'ldi! Men, rosti-  
ni aytsam, sizni bir kuchuk bilan xursand qilay deb kelgan edim! Ana  
u o'zingiz bilgan kuchukning hamshirasi edi. Cheptovich bilan Varxovin-  
skiyning su'dlashib yurganidan xabaringiz borku, endi huzur-huzur me-  
niki bo'lib qoldi: unisining ham yerida quyon ovlayman, bunisining ham.

*Hokim.* Shu vaqtida quyon yurakka sig'adimi, azizim? Fikru-  
yodim shu la'nati maxfiy revizorda bo'lib qoldi. Xuddi hozir eshik  
ochilib, lop etib kirib kelayotganday...

### III MAJLIS

*Haligilar, Dobchinskiy va Bobchinskiy (ikkovi hovliqib kiradi).*

*Dobchinskiy.* Hoy, eshitdilaringmi?

*Dobchinskiy.* G'alati bir xabar!

*Hamma.* Nima, nima bo'pti?

*Dobchinskiy.* Xayolga kelmagan bir ish: musofirxonaga borsak...

*Dobchinskiy (uning so'zini bo'lib).* Pyotr Ivanovich ikkovimiz mu-  
sofirxonaga borsak...

*Dobchinskiy (uning so'zini bo'lib).* E, shoshmang, Pyotr Ivanovich,  
men aytay.

*Dobchinskiy.* E, yo'q, men o'zim... Shoshmang, shoshmang... Siz  
gapni boplolmaysiz.

*Dobchinskiy.* Siz adashib ketasiz, hamma gap esingizda turmaydi.

*Dobchinskiy.* Esimda turadi, azbaroyi xudo esimda turadi. Shosh-  
mang endi, men gapirib beraman, tek turing! Xudo hayringizni ber-  
sin, janoblar, sizlar aytinglar, bu kishi tek tursin.

*Hokim.* Ayta qoling endi, azbaroyi xudo, nima gap o'zi? Yuragim  
qinidan chiqay deb turibdi. Janoblar, o'tiringlar! Kursi olinglar. Pyotr  
Ivanovich, mana sizga kursi (*hamma ikkala Pyotr Ivanovich atrofiga*  
*tizilishib o'tiradi*). Xo'sh, nima bo'libdi?

*Dobchinskiy.* Shoshmang, shoshmang, men xammasini bir bosh-  
dan aytib beraman. Janoblari o'sha kelgan xatni olib tashvishmand

bo'lganlarida oldilaridan chiqib ketish sharafiga noil bo'lishim bila-noq, yugurib... Jon birodar, Pyotr Ivanovich, gapga qo'sh solmang! Hammasi, hammasi yodimda bor. Yugurganimcha Korobkining ol-diga bordim; borsam, Korobkin uyida yo'q ekan, undan chiqib Rastakovskiyinika bordim, Rastakovskiy ham uyida yo'q ekan; keyin, sizga kelgan xabarni aytay deb Ivan Kuzmichnikiga kirdim, bu ki-shinikidan chiqib kelayotib, Pyotr Ivanovich bilan uchrashib qoldim.

*Dobchinsky (so'zini bo'lib).* Somsapaz do'koni oldida...

*Bobchinsky.* Somsapaz do'koni oldida. Pyotr Ivanovichni ko'rib, «Anton Antonovichga kelgan xatda aytigan yangilikdan xabaringiz bormi?» deb so'radi. Pyotr Ivanovich buni xizmatkorlingiz Avdot-yadan eshitgan ekan. Uni siz, bilmadim, nima ish bilandir Filipp Antonovich Pochechuevnikiga yuborgan ekansiz.

*Dobchinsky (so'zini bo'lib).* Fransuz arag'iga bochka olib kelgani yuborgan ekansiz.

*Bobchinsky (uning qo'lini itarib qo'yib).* Fransuz arag'iga bochka olib kelgani... Pyotr Ivanovich ikkalamiz ketdik... gapga qo'sh solmang, birodar, gapga qo'sh solmang!... Ikkovimiz Pochechuevniki-ga qarab ketdik. Yo'lda Pyotr Ivanich «Yuring, mayxonaga kiramiz, qorin juda ham... ertalabdan beri hech narsa yeganim yo'q» dedilar. Pyotr Ivanovichning qorni... «Mayxonaga yangi tutilgan baliq keltirishibdi, ovqatlanib chiqamiz» dedilar. Musofirxonaga shunday kir-sak, birdan yoshgina bir yigit...

*Dobchinsky.* Aft-boshi kelishgan! Ustida grajdancha kiyim.

*Bobchinsky.* Aft-boshi kelishgan, ustida grajdancha kiyim... O'ylanib u yoqdan-bu yoqqa yuribdi... Aft-basharasi... Yurish-turi-shi... (peshanasini ko'rsatib) bunda gap ko'p. Men, xuddi karomat qil-ganday, Pyotr Ivanovichga «Buning bir balosi bor» dedim. Pyotr Ivanovich sekin imlab mayxonachini, Vlasni chaqirdi. Uning xotini uch hafta bo'ladi, tuqqan. Bolasi biram tetikki, katta bo'lsa xuddi otasiga o'xshab mayxona ochadi. Pyotr Ivanovich Vlasni chaqirib sekin «Bu yigit kim?» deb so'radi. Vlas aytdiki «Bu odam...» shoshmang, en-di, Pyotr Ivanovich, gapga qo'sh solmang, xudo xayringizni bersin, qo'ying, siz gaplrib berolmaysiz, azbaroyi xudo, udda qilolmaysiz, bit-ta tishingiz yo'q, men bilaman, hamma gap og'zingizdan pis-pis bo'lib chiqadi... Ha, «Bu yigit chinovnik ekan» dedi, «Peterburgdan kelib-di» dedi, «Saratov gubernyasiga ketayotgan emish, nomi Ivan Aleksandrovich Xlestakov» dedi. «G'alati kishi ekan» dedi, «ikki hafta-dan beri mayxonadan chiqmaydi, ovqatni nuql nasiyaga olib, bir pul

bermaydi» dedi. Shunday degandan keyin darrov kallamga bir fikr keldi, Pyotr Ivanovichga «ey» dedim.

**Dobchinskiy.** Yo'q, Pyotr Ivanovich, avval men «ey» dedim.

**Bobchinskiy.** Avval siz «ey!» dedingiz, keyin men ham... Pyotr Ivanovich ikkovimiz «ey!» dedik. «Saratov gubernyasiga boradigan bo'lса, bu yerda nima qilib o'tiradi?» O'sha chinovnik mana shuning o'zginasi.

**Hokim.** Kim, qanaqa chinovnik?

**Bobchinskiy.** Olgan xatingizda aytilgan chinovnik, revizor.

**Hokim** (*vahimaga tushib*). Qo'ysalaring-chi xudo saqlasın, u emas.

**Dobchinskiy.** O'sha! Nasiyaga ovqat yeb pul bermasa, bir yoqqa ketmasa, o'sha bo'lmay kim bo'ladi? Qog'ozi Saratovga yozilgan emish.

**Bobchinskiy.** O'sha, azbaroyi xudo o'sha, ... xamma yoqqa razm solayotibdi; hamma yoqni ko'zdan kechirayotibdi. Pyotr Ivanovich ikkovimizning baliq yeb o'tiranimizni ko'rib... Pyotr Ivanovichning qorni juda och bo'lгani uchun ko'proq baliq olgan edik... Oldimizdag'i tarelkaga ham qarab qo'ydi. Hamma yoqqa shunday razm soladi-ki, esim chiqib ketdi.

**Hokim.** Xudoyo xudovondo, biz osiylarni o'zing kechir! Qaysi uyda turar ekan?

**Dobchinskiy.** Zinaning tagidagi beshinchi nomerda.

**Bobchinskiy.** Bultur ofitserlar mushtlashgan uyda.

**Dokim.** Qachondan beri turat ekan?

**Bobchinskiy.** Ikki haftacha bo'libdi. Bayram kuni kelgan ekan.

**Hokim.** Ikki hafta! (*Chetga karab*) yo azizlar, yo avliyo-yu anbiyolar, o'zlarining madad qilinglar! Bu ikki hafta ichida unter-ofitserning xotini kaltaklandi, mahbuslarga oziq-ovqat berilmadi! Ko'chalar qovoqxonaga o'xshaydi, iflos! Sharmandagarchilik (*boshini ushlaydi*).

**Artyomiy Filippovich.** Nima qildik endi, Anton Antonovich, saf bo'lib musofirxonaga boraylik bo'lmasa.

**Ammos Fyodorovich.** Yo'q, yo'q! Oldin kattalar, ruhoniylar, savdogarlar borsin. «Ioan Mason qilmishlari» degan kitobda ham shunday deyilgan.

**Hokim.** Yo'q! Yo'q! Bu ishni o'zimga qo'yinglar. Umrinda ko'p qiyinchiliklarni ko'rganman, hammasini eplab, yana rahmat eshitganman. Bu safar ham xudoning o'zi yor bo'lar. (*Bobchinskiyga*.) Siz hali yosh yigit dedingizmi?

**Bobchinskiy.** yosh, yigirma uch yo yigirma to'rtdan sal oshgan-dir-da.

**Hokim.** Bunday bo'lsa ko'p yaxshi, yosh yigitning qo'yniga qo'l solib ko'rish oson. Qaridan xudo saqlasin! yoshning bor-yo'g'i sirtida bo'ladi. Sizlar, janoblar, o'z ishlaringni sarishta qilinglar. Men o'zim yoki Pyotr Ivanovich bilan birgalikda shunday aylangani chiq-qan bo'llib, musofirlardan xabar olgani kirib chiqamiz. Hoy Svistunov!

**Svistunov.** Labbay!

**Hakim.** Yugur, pristavni chaqirib kel; yo'q, shoshma, sen men-ga keraksan. Biron kishiga ayt, tezroq pristavni aytib kelsin, o'zing tezroq kel.

*Mirshab shoshib-pishib chiqib ketadi.*

**Artyomly Filippovich.** Yuring, yuring, Ammos Fyodorovich! Chindan ham bir balo bo'lishi mumkin.

**Ammos Fyodorovich.** Siz nega qo'rqsiz? Kasallarga toza qalpoqlar kiygizsangiz bo'ladi-da, boshqa nimadan qo'rqsiz.

**Artyomly Filippovich.** E, qalpoqni qo'ysangiz-chi! Kasallarga so'k oshi buyurilgan, lekin butun koridorlardan karam hidi keladi, dimog'ni yorib yuboray deydi.

**Ammos Fyodorovich.** O'z ishimdan ko'nglim to'q. Darhaqiqat, uyezd sud mahkamasiga kim ham kirar edi deysiz? Bironta qog'ozga ko'z tashlagunday bo'lsa, dunyoga kelganiga ming-ming pushaymon bo'ladi. Mana men o'n besh yildan beri sudlik qilaman, ba'zida bittayarimta qog'ozni o'qib ko'ray desam, tars yorilib ketguday bo'lamon. Bu qog'ozdag'i gaplarning qaysisi rost, qaysisi yolg'on ekanini xudoning o'zi ham bilmaydi.

*Sudya, xudoyixonalar mutasaddisi, muktablar noziri va pochta mudiri chiqib ketayotib, eshikda mirshabga duch keladilar.*

#### IV MAJLIS

*Hokim, Bobchinskiy, Dobchinskiy va Mirshab.*

**Hokim.** Arava turibdimi?

**Mirshab.** Turibdi.

**Hokim.** Bor, ko'chaga chiqib tur... Yo'q, turatur! Bor, olib kel... Boshqalar qani? Bitta o'zingmi? Axir, Proxorov ham kelsin demab-mi edim? Qani Proxorov?

*Mirshab.* Proxorov mirshabxonada. Ishga yaraguday emas.

*Hokim.* Nega?

*Mirshab.* Ertalab o'lar holatda olib kelishgan edi — mast. Ikki che-lak suv bilan ham o'ziga kelmadni.

*Hokim* (*boshini ushlab*). Obbo xudo urdi! Darrov ko'chaga chiq... Shoshma, avval yugurib uydan qilich bilan yangi shlyapamni olib chiq. Yugur! Qani! Pyotr Ivanovich, yuring!

*Bobchinskiy.* Men ham, ... men ham ruxsat eting, men ham bor-ray, Anton Antonovich!

*Hokim.* Yo'q, yo'q, Pyotr Ivanovich, bo'lmaydi, bo'lmaydi, yaxshi emas, aravaga sig'ishmaymiz, ham.

*Bobchinskiy.* Mayli, mayli, hech bokisi yo'q, sig'ishmasak men pi-yoda aravaning ketidan chopqillab boraveraman. Men shunchayiki eshikning tirqishidan qarasam bas; ko'ray-chi, avzoyi qalay.

*Hokim* (*qilichini olib, mirshabga*). Hozir borib o'nboshilarga ayt, har qaysisi... Bu qilichni ko'ring-a? La'nati savdogar Abdulin hokim-nning qilichi eskirib qolganini ko'rib turib, yangisini yubormaydi-ya! Obbo mug'ambirlar-yey! Bu muttahamlar hali yeng uchida uzatgani ariza ham bitib qo'ygandir deyman. Ayt, har qaysisi bittadan qo'liga ko'cha olsin.... E, ko'cha emas, supurgi, supurgi olsin degin! Mayxo-nagacha hamma yoqni supurib-sidirib top-toza qilsin... Eshitdingmi! Hoy, menga qara, sen! Men seni bilaman: hamisha kumush qoshiqlarni o'g'irlab, etiting qo'njiga tiqasan. Meni bilmaydi deysanmi? Sav-dogar Chernaevni nima qilding? A? U senga mundir tikdirgani ikki gaz movut bergen edi, hammasini yeb ketding. Pora olsang amalingga yarasha olgin-da, bor!

## V MAJLIS

*Haligilar va daha pristavi.*

*Hokim.* E, Stepan Ilich! Azbaroyi xudo qaerlarda yurasiz? Shu ham gap bo'ldimi?

*Daha pristavi.* Men shu yerda edim. Tashqarida edim.

*Hokim.* Menga qarang, Stepan Ilich! Peterburgdan chinovnik kepi-ku, nima ishlar qildingiz?

*Daha pristavi.* O'zingiz aytganday qildim: mirshab Pugovitsinni o'nboshillar bilan birga yo'llkalarni tozalagani yubordim.

*Hokim.* Derjimorda qaerda?

*Daha pristavi.* Derjimorda o't o'chiruvchilar bilan birga ketgan edi.

*Hokim.* Proxorov mastmi?

*Daha pristavi.* Mast.

*Hokim.* Nechuk siz bunga yo'l qo'ydingiz?

*Daha pristavi.* Kim bilibdi deysiz. Kecha shahardan tashqarida katta mushtlashish bo'lgan ekan, shuni bostirib kelgani borib, mast bo'lib kelibdi.

*Hokim.* Menga qarang, siz bunday qiling: mirshablardan Pugovitsin... bo'yи balandroq bo'lgani uchun tartib saqlagan bo'lib ko'prikda tursin. Etikdo'zning yonidagi eski devorni darrov yo'qotib, o'rniga bordon to'sib qo'yilsin, toinki, shahar ko'chalari plan bilan solinayotganga o'rshab tursin. Buzilgan joy qancha ko'p bo'lsa, shahar hokimi shuncha ishchan ko'rindi. E, xudo urdi, o'sha devorning yonida qirq aravacha axlat uyilib yotgan edi-ku, sira esimda yo'g'-a! Bu qanday rasvo shahar ekan! Qaerga biron haykal o'rnat-sang, yo devor qilsang darrov tagiga allaqaysi go'r'dan baloyu-battar to'planadi, qoladi! (*Uf tortadi.*) Ha, aytganday, agar u chinovnik xizmatdagilardan, askarlardan «xursandmisizlar!» deb so'raguday bo'lsa, hamma «juda xursandmiz, janobi ollyulari» desin; bitta-yarimta «norozimiz» deydigan bo'lsa men unga keyin norozilikni ko'rsatib qo'yaman. Uh, uh, uh! Gunohim ko'p, ko'p gunohim! (*Shlyapasini olaman deb g'ilofni oladi.*) E, xudo, shu tashvishlardan qutqarsang, shukronasiga butxonaga sbunday shamlar yoqar edimki, bunaqa shamni hech kim yoqmagan bo'lar edi; la'natি savdogarlarning har biriga uch puddan mum sham solar edim. E, xudo! Poko parvardigoro! Qani, yuring, Pyotr Ivanovich (*shlyapa deb qog'oz g'ilofni klymoqchi bo'ladi*).

*Daha pristavi.* Anton Antonovich, bu shlyapa emas, g'ilof.

*Hokim (g'ilofni tashlab).* G'ilof bo'lsa g'ilofdir-da, ming la'nat! Ha, bundan besh yil burun xudoyixonalar huzurida butxona solish uchun pul chiqarilgan edi, shu butxona nega hozirgacha solinmaydi deb sorasa «Solinayotgan edi, bitay deganda o't tushdi» deyishni esingizdan chiqarmang. Men bu xususda raport ham topshirganman, tag'in bitta-yarimta odam, esida yo'q, ahmoqlik qilib, «Butxona solish harakati ham bo'lgan emas» deb rostini aytib qo'ymasin. Undan keyin Derjimordaga aytib qo'yilsin, mushtim bor deb hammani ura bermasin. Tartib joriy qilaman deb hammaning qansharini yorib yuradi. — gunohkorni ham uradi, gunohsizni ham uradi, Qani, yuring, yurimg, Pyotr Ivanovich! (*Chiqib qaytib kirishadi.*)

chiqarilmasini: bu mahluqlarning ichki ko'ylaksiz mundirning o'zini kiyib chiqib ketaveradigan odati bor.

*Hammalari chiqib ketishadi.*

## VI MAJLIS

*Anna Andreevna bilan Marya Antonovna yugurib sahnaga chiqadi.*

*Anna Andreevna.* Qani, qani bular? Voy xudoyim! (*Eshikni olib.*) Ho, otasi! Antosha, Anton! (*Tez-tez gapirib.*) Hamma ayb senda, sen meni shuncha alahsитding: «To'g'nag'ich taqay, ro'mol o'ray» deb ivrisib o'tirding. (*Yugurib borib derazadan chaqiradi.*) Anton! Qayoqqa! Qayoqqa! Nima, keldimi? Revizor? Mo'ylovi ham bormi? Mo'ylovi qanaqa?

*Hokim (ovozi).* Keyin, keyin, onasi!

*Anna Andreevna.* Keyin? Shu ham gap-u! Keyin emish! Kerakmas keyin... Bir og'iz so'z, shuni ayt: polkovnik ekanmi? A? (*Jaxli chiqib.*) Ketdi! Qarab tur hali! Hammasi mana shuning kasofati: «Shoshmang, onajon, ro'molimni bog'lab olay; hozir bo'laman» deb odamni tutdi. Mana endi nima bo'ldi? Hamma gapdap bexabar qoldik. Oliftalik ham o'lsin. Pochta mudiri kelganini eshitib pardozu-andoz qilib o'ldi. O'ziga oro berib oynaga hali bunday qilib qarar, hali unday qilib qarar! U odamni o'zingga jazman deb o'ylaysan shekilli. U bo'lsa hamma vaqt orqangdan aftini burishtirib qoladi.

*Marya Antonovna.* Nima qipti, onajon? Ikki soatdan keyin bari-bit hamma gapni eshitamiz.

*Anna Andreevna.* Ikki soatdan keyin emish! *Qullug'-e!* Xo'p gapni gapirdilar-da! Xayriyat bir oydan keyin demading (*derazadan*). Hoy Avdotya! A? Birov kelgan emish, kim keldi, eshitmadingmi? Eshitgанин yo'qmi? Voy satqai odam ket! Qo'lini silkitadi! Silkitsa silkita bermaydimi, so'rasang bo'lar edi. Fahming qursin! Sening es-hushing kuyovda. A? Darrov ketib qolishdi? Aravaning ketidan yugurmaysanmi! Bor, bor hozir, yugur! Menga qara, yugur deyman; qayoqqa ketishdi ekan, surishtir. Kim kepti, qanaqa odam ekan, yaxshilab so'ra, eshitdingmi? Tirqishdan qarab bil: ko'zi qanaqa, qorami, yo'qmi; undan keyin darrov kel. Tushundingmi? Qani, bo'l tezroq. Bo'l, bo'l, bo'll! (*Parda tushguncha qichqiradi. Parda tushganda, ikkovi deraza yonida turgan bo'ladi.*)

# IKKINCHI PARDA

## MUSOFIRXONADA KICHKINA BIR BO'LMA. KARAVOT, STOL, CHAMADON, BO'SH SHISHA, ETIK, KIYIM CHO'TKASI VA HOKAZO.

### I MAJLIS

*Osip (xo'jayinning karavotida yotibdi).* Bu qurg'ur qorin shunaqayam ochqadiki, ichaklarim surnay chalyapti. Ahvol shu bo'lsa uyga ham yetib borolmaymizmi deyman-da! Nima ham deysan bunga! Piterdan chiqqanimizga bir oydan oshdi! Butun pulni yo'lda yutqizib mana endi dumini qisib o'tiribdi, parvoyi palak! O'sha pullarni arava kiraga berib tezroq yetib olsak-ku bo'lar edi; yo'q, bu kishi har shaharda o'zlarini ko'rsatmasalar bo'lmaydi! (*Xo'jayinini masxara kildi.*) «Hoy Osip, bor, yaxshiroq uy tanla, ovqatning ham yaxshirog'ini so'ra: men bemaza ovqatni yeyolmayman, menga yaxshi ovqat bo'lmasa bo'lmaydi». Koshki biron arziydigan odam bo'lsa, amali — kichkinagina bir registrator. O'tkinchilar bilan tanishib karta o'yanaganl-o'ynagan. Mana endi butun pulini yutqizib ship-shiydam bo'lib o'tiribdi. Bunaqa tirikchilik jonimgayam tegdi-da! Qishloq yaxshi-ye: qishloqda tomosha bo'lmasa ham tashvish oz; bitta xotinni olasan-u somsa yeb, yumshoq to'shakda yotaverasan. Albatta Piterda turish yaxshiku-ya, bunga, nima yetsin. Pul bo'lsa bas, turish-turmush si-yosat-u nafosat. Teatrxonalarni aytasanmi, itlarning o'yinga tushishi ni aytasanmi! Ko'ngling nimani xohlasa bor. Hamma nozik iboralar bilan gaplashadi, shunday gaplashadiki, dvoryanlardan qolishmaydi. Shchukin bozoriga borsang savdogarlar «Marhamat qilsinlar» deb turadi; daryodan o'tgani qayiqqa tushsang biron chinovnikning yoniga o'tirib qolasan; ulfatchilikni xohlab qolsang biron do'konga kirasan; orden taqqan ofitser lagerdan gapirib beradi, osmondag'i yulduzlar dan gapirib hammasini mana shunday ko'z oldingga keltiradi qo'yadi. Ofitserning kampir xotini kirib qoladi; ba'zan biron oqsoch qiz kirib chiqadi, shunaqayam... Hay, Hay! (*Kulimsitaydi va bosh chayqaydi.*) Hech kimning og'zidan nojo'ya gap eshitmaysan: hamma seni sizlaydi. Yurib charchasang izvosh kira qilasan-u boyarga o'xshab kerilib ketaverasan, kira berging kelmasa bermaysan: har bir hovlining ikkita darvozasi bor, bittasidan kirasan-u ikkinchisidan chiqib ketaverasan, izvoshchi seni topib bo'pti. Faqat bir tomoni yomon: ba'zan

ovqatni xo'p yeb yorilguday bo'lsang, ba'zan mana bunaqa, ochlikdan tirishib o'tirasan. Hamma ayb xo'jayinda. Unga nima ham deb bo'ladi? Otasi-ku pul yuboradi, shu pulni tejab-tergab sarf qilsa bo'l-maydimi! Qayoqda, sovurgani-sovurgan: hali izvosh, hali teatr xona. Bir haftadan keyin qaraysanki yana cho'ntagida bir pul yo'g'-u yangi fragini qo'limga tutqazib, chayqov bozoriga yuboradi. Shunday vaqtlar ham bo'ladiki, hamma yog'ini sotib eski kamzul-u eski shinel bilan qoladi. Xudo haqi! Shunday yaxshi, movut kiyimlar! Bir frakning o'zi yuz elliq so'm turadi-yu, bozorga chiqarib yigirma so'm-ga sottiradi. Shimni qanchaga sottirganligini qo'yavering — tuproq bahosi. Bunga nima sabab? Sabab shuki ish qilmaydi; xizmatga borish o'rniqa ko'chada tomosha qilib yuradi, karta o'ynaydi. Buni otasi bilmaydi-da, bilsa-ku, chinovnlk ekanligiga ham qaramay, etagini ko'tarib xo'p savalar edi-ya; shunday savalar ediki, uch-to'rt kun ketini yerga qo'ya olmas edi. Xizmat qiladigan bo'lsang xizmat qilgindal! Mana endi mayxonachi «qarzlarining bermasalaring boshqa ovqat bermayman» deb o'tiribdi; qarzimizni bermasak nima bo'la-di. (*Ustortib.*) E xudoyo, bir qoshiqqina karam sho'rva bo'lsachi-ya! Hozir butun dunyoni ikki yamlab bir yutishga tayyorman. Taqillayapti; keldi (*karavotdan shoshib turadi.*)

## II MAJLIS

### Osip bilan Xlestakov

**Xlestakov.** Ma, buni ol. (*Shapkasi bilan xassasini beradi.*) Ha, yana karavotga ag'anadingmi?

**Osip.** Ag'anab nima qilaman? Nima, karavotni endi ko'ribmanmi?

**Xlestakov.** Yolg'on aytasan, ag'anagansan, qara, g'ijim bo'lib yotibdi.

**Osip.** Nima qilaman karavotingizni? Nima, umrimda karavot ko'rmabmanmi? Oyog'im bor, tikka tursam ham bo'laveradi. Karavotingizga zor bo'libmanmi?

**Xlestakov (nari-beri yurib).** Kamzulning cho'ntagini qara-chi, tamaki bormi?

**Osip.** Tamaki nima qiladi? Qolgan-qutganini qoqishtirib chekkanningizga to'rt kun bo'ldi-ku.

**Xlestakov (nari-beri yuradi, lablarini xar xil qilibqimtiydi, nihoyat, baland va keskin tovush bilan).** Menga qara... Hoy, Osip!

**Osip.** Nima deysiz?

**Xlestakov** (*baland ovoz bilan, lekin botinmayroq*). Bir tushib chiqqin.

**Osip.** Qayoqqa?

**Xlestakov** (*sekin va tortinibrok, iltimos tarzida*). Pastga, bufetga... Aytgın... Mengə ovqat berishsin.

**Osip.** Qo'ysangiz-chi, bormayman.

**Xlestakov.** Nega gapimni qaytarasan, ahmoq!

**Osip.** Nega bo'lar edi, borganim bilan baribir hech narsa chiqmaydi. Mayxonachi «bundan keyin ovqat bermayman» dedi.

**Xlestakov.** Nega bermas ekan? Ana bema'ni gap-u!

**Osip.** «Xo'jayining uch haftadan beri ovqat yeb pul bermaydi, borib hokimga arz qilaman» deydi. «Muttaham ekansizlar, xo'jayining ham qallob ekan, biz sizlarga o'xshagan tovlamachi muttahamlarni ko'p ko'rganmiz» deydi.

**Xlestakov.** U shundoq degan bo'lsa sen shuni menga ayta qolmasang nima bo'ladi, hayvon!

**Osip.** «Mana shunaqa kelishadi, xo'p turishadi, qarzdor bo'lishadi, undan keyin haydab chiqarishning ham iloji bo'lmay qoladi» deydi. «Men g'idibidi qilib o'tirmayman, to'g'ri mirshabxonaga arz qilib boraman-u qamatib qo'yaman» deydi.

**Xlestakov.** Bo'ldi, bo'ldi, ahmoq! Bor, bor, ayt! Shunday to'ng hayvon!

**Osip.** Mayxonachining o'zini chaqirib kela qolay.

**Xlestakov.** Chaqirib nima qilasan? O'zing borib ayt.

**Osip.** E, xo'jayin...

**Xlestakov.** Xo'p, bor, ming la'nat! Mayxonachini chaqirib kela qol!

**Osip** chiqdi.

### III MAJLIS

**Xlestakov** (*yolg'iz*). Qorin rosa ochqadi-da! Nafs orom olmasmikin deb bir aylanib ham keldim, qayoqdal Ishtaha karnay. Penzada pulni harom-harishga sarf qilmaganimda uyg'a yetib olar edim. Piyoda askar kapitani qurgur, kartaga juda epchil ekan. Choraki soat deguncha shilib oldi-qo'ydi-ya. Shunday bo'lsa ham yana bir o'ynagim keldi-yu boshqa to'g'ri kelmadi-da. Ko'p rasvo shahar ekan-da! Baqollari nasiyaga hech narsa bermaydi-ya! Bu juda ham pastlik! (Avval «Robert»

*operasidan, so'ngra bir kuyda hushtak chaladi, nihoyat qanday kuy chalayotganini bilib bo'lmaydi.) Hech kim kelmayapti-ku.*

## IV MAJLIS

*Xlestakov, Osip va mayxona xizmatkori.*

**Xizmatkor.** Xo'jayin borib so'rab kelgin, nima ishlari bor ekan dedilar.

**Xlestakov.** Salom, uka! Qalay, salomatmisan?

**Xizmatkor.** Shukur.

**Xlestakov.** Xo'sh, mehmonxona ishlari qalay? Joyidami?

**Xizmatkor.** Shukur, joyida.

**Xlestakov.** Mehmon ko'p tushib turadimi?

**Xizmatkor.** Ha, yetib turibdi.

**Xlestakov.** Menga qara uka, menga hanuz ovqat olib kelishgani yo'q, sen borib aytgin, tezroq berishsin, ovqatdan keyin qiladigan ishlarim bor.

**Xizmatkor.** Xo'jayin endi ovqat bermayman degan edilar-ku! U kishi hokimga arz qilgani ham bormoqchi edilar.

**Xlestakov.** Arzi nimasi? Axir o'zing o'ylab ko'r, qandoq qilay? Qor nim och. Bu ahvolda sulayib qolaman. Ochlikdan yuragim gumirib ketayotibdi; hazili yo'q.

**Xizmatkor.** Xo'jayin «ilgari yegan ovqatlarning pulini bermaguncha boshqa ovqat bermayman» deydilar. U kishining javoblari shu.

**Xlestakov.** Sen unga tushuntir, yo'lga sol.

**Xizmatkor.** Axir men u kishiga nima ham deyman?

**Xlestakov.** Sen durustroq uqtir, qorni och, ovqat yemasa bo'lmaydi degin. Pul o'z yo'li bilan. Meni ham o'ziga o'xshagan mujik, bir-ikki kun ovqat yemasa hech narsa bo'lmaydi deb o'ylaydi shekilli. Shu ham gap bo'ldi-yu!

**Xizmatkor.** Bo'pti, aytaman.

## V MAJLIS

**Xlestakov (yolg'iz).** Ovqat bermasa juda yomon bo'ladi-ku. Hech qachon qornim bunchalik och qolgan emas edi. Kiyim-kechakdan birontasini pullasammikin? Shalvarimni sotsammikin? Yo'q, och qolsam qolayki, uyga Peterburg kiyimida boray. Afsuski

Ioxim soyabon aravasini bermadi-da, berganda uyg'a soyabon arava dada kirib borsam juda soz bo'lar edi. Biron qo'shni pomeshchikning eshigi oldiga qo'sh fonarlik soyabon arava kelib to'xtasa, orqada yasangan Osip tursa... To's-to'polon bo'lib ketar deyman! «Kim ekan, nima gap?» Lakey kirib: (*lakeyga taqlid qilib*): «Peterburgdan Ivan Aleksandrovich Xlestakov kelibdilar, qabul qiladilarmi?» deydi. Bu galvarslar «qabul qiladilarmi» degan gapning ma'nosini qayoqdan bilsin. Bularning uyiga biron ta'qim tabiat pomeshchik kelsa so'ramay-netmay, ayiqqa o'xshab, to'g'ri mehmonxonaga kiraveradi. Bitta-yarimta qiz ko'rinish qolsa sekin oldiga borib: «Oyimqiz, men shunday ham...» (*ko'llarini birl-birtiga ishqab, ta'zim kiladi*). Tfu! Ochlikdan ko'nglim ozib ketdi.

## VI MAJLIS

*Xlestakov, Osip, so'ngra xizmatkor.*

*Xlestakov.* Ha nima bo'ldi?

*Osip.* Ovqat olib kelyapti.

*Xlestakov* (*o'zida yo'q xursand*). Opkelyapti, opkelyapti! Opkelyapti!

*Xizmatkor* (*tarelka va salfetkalar bilan kiradi*). Xo'jayin «bu safar ham berdim, bundan keyin bermayman» dedilar.

*Xlestakov.* Xo'jayin, xo'jayin emish... Tfu o'sha xo'jayininggal Ni-ma ovqat?

*Xizmatkor.* Sho'rva bilan qovurma.

*Xlestakov.* Ie, ikki xil xolosmi?

*Xizmatkor.* Ha, ikki xil xolos

*Xlestakov.* Ana bemazagarchilig-u! Olib ket kerak emas. Xo'-jayiningga ayt, bu nima degan gap o'zil... Kam bu!

*Xizmatkor.* Xo'jayin shuni ham ko'p deyaptilar.

*Xlestakov.* Nega qaylesi yo'k?

*Xizmatkor.* Qayla yo'q.

*Xlestakov.* Nega bo'lmas ekan? Oshxonaning oldidan o'tayotib o'z ko'zim bilan ko'rdim, qayla ko'p edi. Ertalab stolovoyda ikkita pakan-a odam baliq, yana allanimalar yeb o'tirgan edi.

*Xizmatkor.* Borlikka bor-u, lekin yo'q.

*Xlestakov.* Nega yo'q?

*Xizmatkor.* Yo'q-da.

**Xlestakov.** Baliq-chi, kotlet-chi?

**Xizmatkor.** Bular durustroq odamlarga beriladi.

**Xlestakov.** Voy ahmog'-yey!

**Xizmatkor.** Shunaqa.

**Xlestakov.** Voy cho'chqa-yey... Nega ular yer ekan-u men yemas ekanman? Ular yeganda men nega yeya olmayman? Ular ham men ga o'xshagan musofir-da axir?

**Xizmatkor.** Sizga o'xshagan emas.

**Xlestakov.** Qanaqa bo'lmasa?

**Xizmatkor.** Qanaqa bo'lar edi? Qanaqaligi ma'lum: yegan ovqatiga pul beradi.

**Xlestakov.** Men sen ahmoq bilan aytishib o'tirmayman (*sha'rva quyib ichadi*). Bu qanaqa sho'rva? Sho'rva deb suv olib kelibsan-ku; maza-matrasи yo'q, sassiq. Ichmayman bu sho'rvani, boshqa sho'rva olib kel!

**Xizmatkor.** Mayli, olib ketaman. Xo'jayin, agar ichmasa olib ke-laver degan edilar.

**Xlestakov** (*sho'rvani bermaydi*). Hay, hay, hay... tegma, ahmoq! Sen boshqalarga shunaqa muomala qilib o'rgangansan, men sen aytgan odamlardan emasman. Men bilan pashshalashma... (*Sho'rvani ichadi*.) Bay, bay, bay! Bu qanaqa sho'rva! (*Ichaveradi*.) Munaqa sho'rvani dunyoda hech kim ko'rmagandir: yog'ning o'rniga allaqanaqa patlat suzib yuribdi (*tovuqni kesadi*). Bay, bay, bay, tovuqni qara-ya! Qovurmani ber! Kosada jinday sho'rva qoldi, olib ich, Osip. (*Go'shtni kesadi*.) Bu qanaqa qovurma? Bu qovurma emas.

**Xizmatkor.** Nima ekan bo'lmasa?

**Xlestakov.** Nima bo'lsa bordir, lekin qovurma emas. Go'sht deb boltani qovurib beribdi (*yeydi*). Muttahamlar! Bergan ovqatini qara-ya! Go'shtdan bir burdasini yesang jag'ing tushadi. (*Barmog'i bilan tishini kovlaydi*.) Ablahlar! Xuddi daraxtning po'stlog'i-ya, tishga kirsa chiqarib bo'lmaydi; bunaqa ovqatni yesang tishing ham qorayib ketadi. Muttahamlar! (*Og'zini salfetka bilan artadi*.) Boshqa ovqat yo'qmi?

**Xizmatkor.** Yo'q.

**Xlestakov.** Tovlamachi! Ablahlar! Loaqal jinday qayla yo biron shirinlik bersachi. Ishyoqmaslar! Musofirlarni shilishni biladi xolos.

**Xizmatkor** tarelka va salfetkani olib

**Osip** bilan birga chikib ketadi.

## VII MAJLIS

### Xlestakov so'ngra Osip.

**Xlestakov.** Bu ovqati chap ichagimga ham yuq bo'lgani yo'q; ishtahani battarraq ochdi xolos. Mayda pul bo'lganda bozordan non oldirar edim.

**Osip (kiradi).** Negadir hokim kelib sizni surishtiryapti, so'rayapti.

**Xlestakov (cha'chib).** Ana xolos! Bu la'nati mayxonachi allaqachon arz qilganga o'xshaydi-ku! Hokim turmaga sudrab qolsa nima qilaman? Xayr, qandoq qilaman? Agar yaxshilikcha bo'lsa oldiga tushib... yo'q, yo'q, bo'lmaydi! Shaharda ofitserlar ızg'ishib yuribdi, odam ham ko'p; men, xuddi aksiga olganday, bir savdogarning qizi bilan ko'z qisishib ham qo'yanan edim... Yo'q, bormayman... Nima u, meni qamashga nima haqi bor? Men savdogar yo kosibmidim? (*Dadil bo'lib qomatini rostlaydi.*) To'g'ri o'ziga aytaman: nima haqing bor deyman? (*Eshikning qabzasi buraladi, Xlestakov rangi oqarib, junjayadi.*)

## VIII MAJLIS

### Xlestakov, Hokim va Dobchinskiy.

Hokim bo'sag'adan o'tib to'xtaydi. Ikkovi ham qo'rqqanidan bir-biriga karab baqrayganicha qoladi.

**Hokim (sal o'zini tutib olgach qo'llarini tushirib g'oz turadi).** Sog'liq tilaymiz.

**Xlestakov (ta'zim qilib).** Marhamat.

**Hakim.** Afv etsinlar.

**Xlestakov.** Zarari yo'q.

**Hokim.** Men bu shaharning hokimi bo'lganligim uchun musofirlarga va hamma oljanob kishilarga aziyat yetmasligidan xabardor bo'lib turishni vazifam deb bilaman...

**Xlestakov (avval bir oz tutiladi, keyin baland ovoz bilan).** Qandoq qilay... Haqini beraman... Qishloqdan menga pul yuborishadi. (*Dobchinskiy eshikdan boshini tiqib qaraydi.*) Ayb o'zida: bergan go'shti yog'ochga o'xshaydi; sho'rv'a deb allanima baloni beribdi, derazadan to'kib tashladim. Kun bo'y'i menga ovqat bermay ochlikdan tirishti-di... Choydan bo'lsa-ku baliq hildi kelib turadi. Men buning nimsiga... Shunaqa ham bo'ladimi!

**Hokim (qo'rqib).** Kechirasiz, ayb menda emas. Mening bozorlarimda hamma vaqt yaxshi go'shti bo'ladi. Go'shtni xolmogorlik savdogarlar olib kelishadi, hammasi ham eslik, yaxshi odamlar, bilmadim bu bunaqa go'shtlarni qaerdan olar ekan. Agar undoq bo'lsa... Ijozat bering, sizni boshqa uyg'a eltib qo'yay.

**Xlestakov.** Hech keragi yo'q. Bilaman u boshqa uyni, boshqa uy turma bo'ladi. Nima haqingiz bor? Qanday jur'at qilasiz?.. Men... Men Peterburgda xizmat qilaman. (*Dadil bo'ladi.*) Men, men, men...

**Hokim (chetga).** Obbo xudo urdi, jahli yomon ekan-ku! Hammasi bilibdi, la'nati savdogarlar hammasini yetkazibdi!

**Xlestakov (dadil bo'lib).** Butun yasovullaringiz bilan kelganingizda ham bormayman. To'g'ri ministrga arz qilaman! (*Stolga mush-taydi.*) Bu qanday gap? Bu qanday gap?

**Hokim (g'oz turadi, vujudi titraydi).** Rahm qiling xarob qilmang. Xotinim bor, yosh bolalarim bor... Bir odamni baxti qora qilmang.

**Xlestakov.** Yo'q, dedim, yo'q! Gapini qara-yu! Menga nima? Bolachaqangiz bor deb men turmaga boraymi, ana gap-u!

*Bobchinskiy eshikdan boshini tiqib qaraydi  
va qo'rqib darrov bekinadi.*

Yo'q, bormayman! Qulluq!

**Hokim (qaltilrab).** Tajribasizlik, azbaroyi xudo, tajribasizlik. Kambag'alchilikdan... O'zları o'ylab ko'rsinlar: podsholik beradigan oylik choy bilan qandga ham yetmaydi. Pora olgan bo'lsam ham juda oz, uncha-muncha ovqat-u, bitta-ikkita kiyimga yarasha olganman xolos. Marhum unter-ofitserning savdogarlik qilib yuradigan xotinini urganchigim to'g'risidagi gap quruq tuhmat, xudo ursin, tuhmat! Bu gap mening dushmanlarimdan chiqqan; bu odamlar meni o'ldirib qo'ya qolishga ham tayyor.

**Xlestakov.** Qo'ysangiz-chi! U odamlar bilan mening nima ishim bor... (*O'ylab.*) Bilmadim, menga sizning dushmanlaringiz-u unter-ofitser xotinining nima daxli bor... Unter-ofitserning xotini butkul boshqa odam, lekin meni urolmaysiz, qo'lingiz kaltalik qiladi... Gapini qara-yu! Tavba!.. Haqini beraman dedim beraman, lekin hozir pulim yo'q, yonimda bir tiylnim bo'limgani uchun ham shu yerda o'tiribman-da.

**Hokim (chetga).** Ustaligini qara-ya. Bu gapning zamiriga uncha-muncha odam yetolmaydi! Nimadan daromad qilishingni ham bilmaysan! Har nima bo'lsa ham bir urinib ko'ray, tavakkal, bir urinib

ko'ray. (*Baralla*) Agar pulga yo boshqa biron narsaga zoriqqa bo'lalar, xizmatlariga tayyorman. Musofirlarga yordam berish mening burchim.

*Xlestakov.* Bering, menga qarz bering! Mayxonachining haqini hozir beraman. Menga biron ikki yuz so'm, hatto undan kamroq bo'l-sa ham yetadi.

*Hokim (pulni uzatib).* Rosa ikki yuz so'm, ovora bo'lib sanama-salar ham bo'ladi.

*Xlestakov (pulni olib).* Qulluq, rahmat. Qishloqqa borishim bila-noq yuboraman... Pulim birdan shunaqa... Juda olijanob odam ekan-siz. Mana bunday bo'pti.

*Hokim (chetga).* Xudoga shukur, pulni oldi. Endi ish jo'nashib ketadiganga o'xshaydi. Ikki yuz so'm deb to'rt yuz so'm qistirdim.

*Xlestakov.* Hoy, Osip! (*Osip kirdi*.) Mayxona xizmatkorini cha-qir! (*Hokim va Dobchinskiyga*.) Nega tikka turibsizlar, marhamat qilinglar, o'tiringlar. (*Dobchinskiyga*.) Qani, o'tirsinlar.

*Hokim.* Mayli, tikka tursak ham bo'laveradi.

*Xlestakov.* Marhamat qiling, o'tiring. Juda ochiq, mehmondo'st odam ekansizlat. Rostini aytsam, men avval sizlar meni... (*Dobchinskiyga*.) O'tiring.

*Hokim bilan Dobchinsky o'tiradi. Dobchinsky  
eshikdan boshini tiqib karaydi va quloq soladi.*

*Hokim (chetga).* Dadilroq bo'lish kerak. Bilib qo'y, men maxfiy re-vizorman demoqchi-da! Xo'p, o'zimizni anqovlikka sola miz: bu odam kim ekanligini bilmagan bo'laylik. (*Baralla*.) Biz shahrimizning pomeshchiklaridan Pyotr Ivanovich Dobchinskiy bilan birga mahkama ishi bilan aylanib yurgan edik, musofirlardan ham xabar olgani kir-dik, chunki men hech narsa bilan ishi yo'q boshqa hokimlardan emas-man; o'z vazifamdan tashqari insonparvar xristian bo'lganim uchun har bir odamga yaxshilik qilishni istayman; buni qarangki, tole siz bilan ko'rishmoqni nasib etdi.

*Xlestakov.* Men ham nihoyatda xursandman. Siz kirmaganingiz-da bu yerda o'tiraverar edim: qarzni qanday qilib uzishni bilmay o'tir-gan edim.

*Hokim (chetga).* Bu gapni kimga gapirayotibsani! Qarzni qanday qilib uzishni bilmay o'tirgan emish! (*Baralla*.) So'rashga haddim si-g'adimi: qaysi tomonga va qaerlarga boradilar?

*Xlestakov.* Men Saratov gubernyasiga, o'z qishlog'imga ketayotibman.

**Hokim** (*chetga istehzoli bir kiyofada*). Saratov gubernyasiga emish! Qip-qizil yolg'on gapirib, qizarmaydi ham! O'ho', bu bilan gaplashganda juda hushyor bo'lish kerak ekan! (*Baralla*.) Juda yaxshi niyat qilibsiz. Yo'l to'g'risida shuni aytayki, bir tomondan, bekatlarda otga mahtal bo'lib qoladi kishi deyishadi, lekin, ikkinchi tomondan, sayohat kishining bahrini ochadi. Siz ko'proq sayr-u sayohat uchun yo'lga chiqqan bo'lsangiz kerak?

**Xlestakov.** Yo'q, padarimiz chaqirtirdilar. Peterburgda xizmat qilib shu mahalgacha biron mukofotga sazovor bo'imading deb xafa bo'la-yotibdilar. Peterburgga boardingmi, darrov ko'kragingga Vladimir osib qo'yadi deb o'ylaydilar-da. O'zлari xizmat qilib ko'rsalar bilar edilar.

**Hokim** (*chetga*). Buning nayrangini qara-ya! Chol otasini ham o'rta ga soldi-ku! (*Baralla*.) U yerda qancha turadilar?

**Xlestakov.** O'zim ham bilmayman. Otam o'larday qaysar, miyasini yegan bir chol. Men: «nima desangiz deng, Peterburgdan ketolmayman» dedim. Rost-da, nega endi umrimni mujiklar orasida bekorga o'tkazar ekanman! Ilgarigi zamon o'tib ketgan: men marifat talab odamman.

**Hokim** (*chetga*). Yolg'oni qiyvoradi-ya! Shuncha yolg'on gapirib biron marta tili tutilsa-chi! O'zi ko'rimsiz, pakana, tirnoq bilan bos-sang qirs etguday holi bor-u. Shoshmay tur hali! Tilingdan tutilasan! Men seni bir gapga solay (*baralla*). Haq gapni gaplordingiz. Qishloq joyda nima qiladi kishi? Mana bu yerni oling: kechalari uxlamaysan, vatan deb joning halak, hech narsangni ayamaysan, lekin mukofotdan darak yo'q. (*Uyga razm soladi*.) Uyingiz zaxroq shekilli?

**Xlestakov.** Rasvo uy, kanasini aytинг, umrimda bunaqa kanani ko'rgan emasman: xuddi itday talaydi.

**Hokim.** Buni qarang-a! Shunday mafratlik mehmon bir behuda, dunyoga kelmasa ham bo'ladigan maxluqdan aziyat tortib o'tirs-a-ya! Qorong'i ham ekan-ku?

**Xlestakov.** Ha, juda qorong'i. Mayxonachi sham bermaydigan qiliq ham chiqardi. Ba'zan biron ish qilsammi, o'qisam yoki ilhom kelganda biron narsa yozsam deyman. Iloj yo'q: qop-qorong'i.

**Hokim.** Bir iltimos qilsam haddim sig'armikin... Yo'g'-ye men kim-u, siz kim...

**Xlestakov.** Nima edi?

**Hokim.** Yo'q, yo'q! Men kim-u... menga kim qo'yibdi!

**Xlestakov.** Nima, nima axir?

**Hokim.** Haddim siqqanda... mening hovlimda juda yaxshi, yorug', tinchgina, siz bop bir uy bor edi... Yo'g'-ye, bunday sharafga loyiq

emasligimni o'zim sezib turibman... Tag'in xafa bo'l mang, azbaroyi ochiqligimdan aytdim.

*Xlestakov.* Aksincha, jonim bilan. Bu qovoqxonada turgandan ko'ra sizning uyingiz yaxshiroq.

*Hokim.* Boshim osmonga yetar edi! Xotininning xursand bo'lishini aytin! Mening tabiatim shu: bolaligimdan mehmondo'stman, xususan mehmon ma'rifatli odam bo'lsa... Yana xushomadgo'ylik qilayotibdi deb o'ylamang; yo'q, bunaqa kasalim yo'q, chin ko'nglimdan aytayotibman.

*Xlestakov.* Tashakkur, tashakkur. O'zim ham munofiq kishilarni yomon ko'raman. Sizning ochiqligingiz, mehmondo'stligingiz menga juda yoqib qoldi. Rostini aystsam, hurmat bilan sadoqat-u sadoqat bilan hurmatdan boshqa hech narsani istamayman.

## IX MAJLIS

*Haligilar, mayxona xizmatkori va uning ketidan  
Osip. Bobchinskiy eshikdan boshini tiqib qaraydi.*

*Xizmatkor.* Chaqirdilarmi?

*Xlestakov.* Ha, qani, schyot olib kel.

*Xizmatkor.* Schyotni hali tashlab ketgan edim-ku.

*Xlestakov.* Schyot-pchyotingni bilmayman. Ayt, necha pul edi?

*Xizmatkor.* Kelgan kuningiz ovqat oldingiz, ertasiga ozroq baliq yedingiz, ana shundan bu yog'i hammasi nasiya bo'lgan.

*Xlestakov.* Ahmoq! Hammasini aytib o'tiradi. Necha pul bo'liganini aytib qo'ya qolmaysanmi!

*Hokim.* Siz tashvish qilmang, keyin oladi. (*Xizmatkorga.*) Yo'qol, o'zlar yuboradilar.

*Xlestakov.* Ha, rost aytasiz. (*Pulni cho'ntagiga soladi.*)

*Xizmatkor* chiqib ketadi. *Bobchinskiy eshikni oolib qaraydi.*

## X MAJLIS

*Hokim, Xlestakov, Dobchinskiy.*

*Hokim.* Endi shahrimizdag'i ba'zi muassasalarini ko'rishga maylari qalay, chunonchi: xudoyixonalarini va boshqa joylarni...

*Xlestakov.* Nima bor ekan u yerda?

*Hokim.* Hech, shunday, ishlarmizni ko'rasiz... Tanishasiz... Sayru sayohat qilib yurgan bo'lsangiz...

*Xlestakov.* Jonim bilan, boraman.

*Bobchinskiy* boshini eshikdan tiqadi.

*Hokim.* Agar maylingiz bo'lsa o'shanaqasi uyezd mакtabiga ham kiramiz, ilm o'qitish tartibini ham ko'rasiz.

*Xlestakov.* Yaxshi bo'ladi, yaxshi bo'ladi.

*Hokim.* Undan keyin, agar xohishlari bo'lsa, shahar turmasiga ham kiradilar, jinoyatkorlarning maishatini ham ko'radilar.

*Xlestakov.* Turmada nima qilamiz? Undan ko'ra xudoyixonalar ni ko'ra qolaylik.

*Hokim.* Ixtiyor o'zlarida. O'z ekipajlarida boradillarmi yo mening aravamda boradillarmi?

*Xlestakov.* Sizning aravangizda bora qolay.

*Hokim (Dobchinskiyga).* Undoq bo'lsa, Pyotr Ivanovich, siz sig'maysiz-ku.

*Dobchinskiy.* Mayli, men piyoda bora qolaman.

*Hokim (sek'in Dobchinskiyga).* Menga qarang, hozir ikkita xat yozib beraman, chopqillaganingizcha, bittasini xudoyixonalar mutasaddisi Zemlyanikaga, ikkinchisini xotinimga yetkazasiz. (*Xlestakovga.*) Ijozat bersalar huzurlarida xotinimga to'rt enlikkina xat yozsam, toki xotinim muhtaram mehmonni kutib olishga tayyorlik ko'rib tursa?

*Xlestakov.* Nima hojati bor?.. Lekin siyoh bor-u qog'oz yo'q... Mana schyotning orqasiga yozsangiz ham bo'ladi.

*Hokim.* Mayli... (yoza turib o'zicha.) Ziyofatni yeb araqni ichkanningdan keyin ko'ramiz... Gubernya maderasi o'zi ko'rimsiz bo'lsa ham, lekin filni yiqtadi. Men buning o'zi kim va bundan qanchalik ehtiyyot bo'lish kerakligini bilib olsam bas. (Xatni yozib Dobchinskiyga beradi. Dobchinskiy eshikni ochar ekan, u tomonda kulok solib turgan Bobchinskiy bexosdan ichkariga munkib tushadi. Hamma birdan «ux» deb yuboradi. Bobchinskiy o'rnidan turadi.)

*Xlestakov.* Nima bo'ldi, biron Joyingiz mayib ba'lmadimi?

*Bobchinskiy.* Yo'q, yo'q, hech narsa bo'lgani yo'q, qansharim salgina lat yedi xolos! Yugurib Kristian Ivanovichning oldiga boraman, bit malhami bor, shundan jindak surkab qo'ysa tuzaladi.

*Hokim (Bobchinskiyga taxdid kiladi. Xlestakovga). Qo'yavering! Qani, marhamat qilsinlar! Xizmatkoringizga aytaman, chamadonингизни бизникiga olib boradi (Osipga). Ukaginam, bu yerdagi hamma narsani biznikiga olib, bor, hokimning uyi qaysi desang hamma ko'r-satib beradi. Marhamat qilsinlar! (Xlestakovni oldinga o'tkazadi va or-kasiga kayrilib Bobchinskiyga.) Xo' o'ling! Yiqilgani boshqa joy qurib ketganmidi! Shu yerda yiqlilib tarvayib yotsa-ya! (Chiqib ketadi, uning ketidan Bobchinskiy ham chikadi.)*

## UCHINCHI PARDA

### BIRINCHI PARDADAGI BO'LMA

#### I MAJLIS

*Anna Andreevna, Marya Antonovna hamon o'sha vaziyatda deraza oldida turishadi.*

*Anna Andreevna.* Mana, bir soatdan beri kutamiz. Hamma illat sening bema'ni tannozligingda: nozanday kiyingan eding-ku, yana ivirsib o'tirishga balo bormi-di... Qayogdan ham senga quloq soldim! Mana endi nima bo'ldi. Aksiga olib, odam qorasi ko'rinxmaydi-ya!

*Marya Antonovna.* Obbo, onajon, hademay hammasini bilib olamiz... Hozir Avdotya kelib qoladi. (*Derazadan tashqariga qarab qich-qirib yuboradi.*) Voy, onajon, hu ana, ko'chaning boshida birov kelyapti.

*Anna Andreevna.* Qani? Nuql shunaqa yo'q narsalarni gapirib yurasan. Ha, kelyapti. Kim ekan u? Bo'yil o'rta... Ustida frak. Kim bo'lسا ekan? A? Voy o'lsin! Kim edi o'zi bu?

*Marya Antonovna.* Dobchinskiy, onajon.

*Anna Andreevna.* Qo'ysang-chi. Cholni ko'rsang buvam deya berasan: Dobchinskiy emish. (*Ro'molchasini silkiydi.*) Hoy, bu yoqqa keling, tezroq keling.

*Marya Antonovna.* Rost, onajon, Dobchinskiy.

*Anna Andreevna.* Bir gapni tutib olsang hech qo'ymaysan. Dobchinskiy emas dedim-ku, axir.

*Marya Antonovna.* Ana, ana Dobchinskiy ekan-ku.

*Anna Andreevna.* Ha, Dobchinskiy ekan. Endi tanidim. Men ham shunaqa deyapman-ku. (*Derazadan qichqimdi.*) Yuguring! Tezroq yursan-

gizchi. O'sha yerdan gapiravering. Bari bir. Nima gap? Juda badjahā ekan-mi? A? Erimchi, erim? (*Derazadan bir oz chetlanib, fig'oni chiqib.*) Muncha ham rasvo bo'lmasa: uyga kirmagunicha bir og'iz ham gapirmaydi.

## II MAJLIS

### *Hалигилар ва Dobchinskiy.*

**Anna Andreevna.** Hali sizdan kelgan ish shu bo'ldimi? Men sizni tappa-tuzuk odam deb yurgan edim. Hamma yuguriб ketsa siz ham sbularning ketidan ketdingiz-qoldingiz! Mana endi nima bo'lganini bilolmay, garang bo'lib o'tiribman. Uyalmaysizmi? Men sizning o'g'-lingiz Vanichkani, qizingiz Lizankani cho'qintirgan bo'lsam-u, siz shunaqangi qilib o'tirsangiz!

**Dobchinskiy.** Xudo haqi, jigarim, sizga shu gapni tezroq yetkaza qolay deb, yugura berib o'pkam og'zimga tiqilib qoldi.

**Marya Antonovna.** Salom, Pyotr Ivanovich.

**Anna Andreevna.** Xo'sh, nima bo'ldi, nima gap, gapiring.

**Dobchinskiy.** Anton Antonovich sizga xat berib yubordilar.

**Anna Andreevna.** Kim ekan o'zi? Generalmi?

**Dobchinskiy.** Yo'q, general-ku emas, lekin generaldan qolishmaydi: juda ham o'qigan, basavlat odam ekan.

**Anna Andreevna.** Ha! Erimga kelgan xatda aytilgan odam shu.

**Dobchinskiy.** Ha, o'shaning o'zi. Pyotr Ivanovich ikkovimiz ham-madan burun bilgan edik.

**Anna Andreevna.** Qani, gapira qoling: nima gap o'zi?

**Dobchinskiy.** Xudoga shukur, xotirjamlik. Avval Anton Antonovichga dag'dag'a qildi, jahli chiqib: «Mehmonxona yomon ekan, uyingga bormayman, seni deb turmaga tushmoqchi emasman» dedi; lekin Anton Antonovichning aybi yo'qligini bilib, bir-ikki og'iz gaplashgandan keyin, hovridan tushdi, xudoga shukur, ishlar o'ngarilib ketdi. Hozir kasalxonani ko'rgani ketishdi. Rostini aytsam, biron chaquv bo'lmadimikin deb Anton Antonovich xiyla cho'chigan edilar, men ham xiyla qo'rqedim.

**Anna Andreevna.** Siz nega qo'rqasiz? Xizmatda emassiz-ku.

**Dobchinskiy.** Qaydam, podsholik odam gapirganda yuragim or-qamga urib ketadi.

**Anna Andreevna.** Xayr, bu gaplarni qo'ya bering. Qanaqa odam ekan o'zi, yoshmi, qarimi? Shuni ayting.

*Dobchinskiy.* yosh, yigirma uchlarga kirgan yigit. Lekin xuddi cholga o'xshab gapiradi: «Marhamat qiling, men (qo'li bilan ishora qiladi) u yoqqa ham boraveraman, bu yoqqa ham boraveraman...» deydi. Gapni juda o'rinalatadi. «Men — dedi — o'qishni ham, yozishni ham yaxshi ko'raman, lekin uy qorong'iroq» deydi.

*Anna Andreevna.* O'zi qanaqa, o'zi, oqdan kelganmi, qoramag'izdan kelganmi?

*Dobchinskiy.* Bug'doy rang. Ko'zлari shunday o'ynab turadiki, odam tob berolmaydi.

*Anna Andreevna.* Nima deb yozdi ekan? (O'qiydi.) «Senga beto'xtov ma'lum qilamanki, holim xarob bo'lgan edi, lekin xudoning marhamatidan umid qilib, ikki dona tuzlagan bod ring va ayniqsa yarim porsi baliq urug'i bir so'm 25 tiyin...» (To'xtaydi.) Tushunolmadim: tuzlagan bodring bilan balig'i nimasi?

*Dobchinskiy.* Anton Antonovich shoshib, xatni allaqanday bir schyotga yozgan edilar.

*Anna Andreevna.* Ha, shundoq ekan. (O'qiydi.) «Lekin xudoning marhamatidan umid qilib, Ishimning oxiri baxayr bo'ladiga-  
ga o'xshaydi. Sariq qog'oz yopishtirilgan uyni tezlik bilan muhtaram mehmonga tayyor qilib qo'y; obedga urinmay qo'ya qol, chunki Artyomiy Filippovichning huzurida, kasalxonada ovqat yeymiz; lekin vinoni ko'proq g'amlab qo'y: savdogar Abdulinga ayt, eng yaxshi vino-  
laridan yuborsin, yubormaydigan bo'lsa omborini ag'dar-to'ntar qilib tashlayman. Qo'lingni o'pib qolgovchi Anton Skvoznik-Dmu-  
xanovskiy...» Voy xudo urdi! Tezroq harakat qilish kerak! Hoy, kim u? Mishka!

*Dobchinskiy.* (Eshikka tomon yugurib qichkiradi.) Misha! Mishka! Mishka!

Mishka kiradi.

*Anna Andreevna.* Menga qara, yugurib savdogar Abdulinnikiga bor... Shoshma, xat yozib beraman. (Stolga o'tirib xat yozar ekan gapiradi.) Bu xatni izvoshchi Sidorga ber, savdogar Abdulinning oldiga borib vino olib kelsin. O'zing darrov ana u uyni yig' ishtirib, ozoda qilib qo'y. Karavot, umivalnik yana boshqa kerakli narsalarni qo'y.

*Dobchinskiy.* Xo'p, Anna Andreevna, men yugurib boray-chi, u yoqda nima bo'lyapti ekan.

*Anna Andreevna.* Boring, bora qoling.

### III MAJLIS

*Anna Andreevna va Marya Antonovna.*

**Anna Andreevna.** Qani, Mashenka, kel, yana pardoz-andoz qilaylik. Poytaxtdan kelgan odam, tag'in, xudo urib, bizni kulgi qilmashin. Sen burmalik havo rang ko'ylagingni kiya qol.

**Marya Antonovna.** Qo'ying o'sha ko'yakni, onajon. Menga hech ham yoqmaydi. Lyapkin-Tyapkinning qizi ham, Zemlyanikaning qizi ham havo rang ko'yak kiyadi. Qo'ying, men gullik ko'ylagimni kiyaman.

**Anna Andreevna.** Gulli ko'yak emish! Aksiga olmasang hech ko'ngling joyiga tushmaydi. O'sha ko'ylagingni kiyaver, yaxshiroq bo'ladi, chunki men sariq ko'yak kiymoqchiman. Men sariq ko'yakni yaxshi ko'rman.

**Marya Antonovna.** E, onajon, sariq ko'yak sizga yarashmaydi.

**Anna Andreevna.** Menga yarashmaydimi?

**Marya Antonovna.** Yarashmaydi, o'lay agar yarashmaydi: ko'zингiz qop-qora bo'lganda yarashar edi.

**Anna Andreevna.** Ana gap! Mening ko'zim qora emasmi? Qop-qora. Gapingni qara-yu. O'zimga hamisha qora moshshoq motkasi bilan rom ochaman-u, qora bo'lmaydimi?

**Marya Antonovna.** Yo'q, onajon, siz topdon motkasiz.

**Anna Andreevna.** Bo'lмаган gap, behuda gap. Men hech qachon topdon motkasi bo'lgan emasman. (*Marya Antonovna bilan shoshib-pishib chikib ketadi va sahnanine orqasida gapiradi.*) Qachon topdon bo'lgan ekanman, qayoqdagi gaplarni gapirasan.

Bular chiqib ketgan zamон eshik ochiladi va *Misha* supurindi chiqarib tashlaydi. Boshqa eshikdan boshida chamadon *Osip* kiradi.

### IV MAJLIS

*Mishka bilan Osip.*

**Osip.** Qayyoqqa qo'yay?

**Mishka.** Mana bu yoqqa, amaki.

**Osip.** Shoshma, nafasimni rostlab olay, sho'rim qursin. Qorin och bo'lgandan keyin jindek yuk ham og'irlilik qilar ekan.

*Mishka.* Amaki, general qachon keladi?

*Osip.* Qanaqa general?

*Mishka.* Xo'jayingiz-chi.

*Osip.* Xo'jayinimmi? Xo'jayinim general emishmi?

*Mishka.* General emasmi?

*Osip.* Generallikka general-ku, lekin boshqacharoq general.

*Mishka.* Qanaqa general, chinakam generaldan kattaroqmi, kichkinaroqmi?

*Osip.* Sal kattaroq.

*Mishka.* O'qurg'ur-yey! Shuning uchun uyimiz alg'ov-dalg'ov bo'lgan ekan-da.

*Osip.* Menga qara, uka epchilgina bolaga o'xshaysan, ovqat-povqatning harakatini qilsang-chi.

*Mishka.* Sizga atagan ovqatimiz hali pishgani yo'q, amaki. Bundayroq ovqatni yernaysiz, xo'jayinlengiz kelgandan keyin siz ham o'sha ovqatdan yeysiz.

*Osip.* Bundayroq ovqatdan nima bor?

*Mishka.* Karam sho'rva, bo'tqa, somsa bor.

*Osip.* Olib kel, o'sha karam sho'rva, bo'tqa, somsangni. Mayli, boriga baraka. Chamadonni olib kirib qo'yaylik. U yoqda boshqa eshik bormi?

*Mishka.* Bor.

Ikkovi chamadonni narigi uyga olib kirishadi.

## V MAJLIS

*Mirshablar* darvozaning ikki pallasini ochishadi. *Xlestakov* kiradi.

Uning ketidan *Hokim*, *xudoyixonalar mutasaddisi*, *maktablar noziri*, *Dobchinskiy* va burniga malxa m yopishtirgan *Bobchinskiy*. *Hokim* yo'lida yotgan qog'ozni mirshablarga ko'rsatadi. Ikkala mirshab yugurib, bir-birini itarib, qogozni yerdan oladi.

*Xlestakov.* Xudoyixonalar yaxshi ekan. Yaxshi odatlaring bor ekan, yo'lovchilarga shaharlaringni ko'rsatar ekansizlar. Boshqa shaharlarda menga xech narsani ko'rsatishgani yo'q.

*Hokim.* Boshqa shaharlarda, to'ram, shahar hokimlari va mansabdorlar ko'proq o'zlarini, ya'ni o'z manfaatlarini ko'zlaydilar, bu yerdagilar esa halol xizmat va hushyorlik bilan ulug'larning iltifotiga sazovor bo'lishdan boshqa narsani o'ylashmaydi.

**Xlestakov.** Ovqat juda yaxshi bo'lgan ekan, bo'kib qola yozdim. Har kuni shunaqa yaxshi ovqat yeysizlarmi?

**Hokim.** Bugun aziz mehmon sharofatlari bilan shundoq bo'lgan edi.

**Xlestakov.** Jon-dilim ovqat. Kishi degan dunyoda huzur-halovat gulini tergani yashaydi-da. Haligi qanaqa baliq edi?

**Artyomiy Filippovich** (*yugurib uning oldiga boradi*). Labardan, to'ram.

**Xlestakov.** Juda shirin ekan-da. Qaerda ovqat yedik, kasalxonadami?

**Artyomiy Filippovich.** Shundoq, to'ram, kasalxonada.

**Xlestakov.** Ha, ha, karavotlar turgan edi. Kasallar tuzalib chiqib ketishganmi? Kasal oz edi shekilli?

**Artyomiy Filippovich.** Biron o'nta kasal qolgan xolos. Boshqa hammasi tuzalib chiqib ketgan. Bizda tartib shunaqa. Men mutasad-dilikni o'z qo'limga olganimdan beri — ehtimol sizga favqulodda tuyular, kasallar pashshaday tuzalishayotibdi. Kasal kasalxonaga qadam qo'yishi bilanoq, tuzaladi qoladi. Dori-darmondan ham ko'ra tartib va pokizalik ko'proq davo bo'layotibdi.

**Hokim.** Men sizga aytsam, shahar hokimi bo'lisdan mushkul-roq narsa yo'q. Birgina pokizalik, shikast-rext va boshqa narsalarning o'zi bir dunyo ish. Eng aqli odam ham shoshib qoladi. Lekin, xudo-ga shukur, hamma ish joyida bo'lib turibdi! Boshqa hokim bo'lganda, albatta, o'z foydasini ko'zlar edi, lekin men, ishoning-ishonmang, kechasi ko'rpara kirganimda ham: E, xudo, qandoq qilsam ulug'lar mening jon kuydirganimni ko'rib rozi bo'lishar ekan deb o'ylayman. Ulug'lar mukofot berishadimi, yo'qmi — o'zlar bilishadi, lekin hech bo'limganda ko'nglim tinchidi-ku. Shahar ozoda bo'lsa, ko'chalarga suv sepib turilsa, mahbuslarga yaxshi qaralsa, araqxo'rlar kam bo'lsa... Menga boshqa nima kerak? Hech qanday martabaning keragi yo'q. Al-batta, odamning havasi keladi, lekin savob bo'lgan joyda boshqa hech narsaning keragi yo'q.

**Artyomiy Filippovich** (*chetga*). Bu takasaltang o'zini mucha maqtamasa! Xudo xo'p til bergen ekan-da.

**Xlestakov.** Rost aytasiz. Rostini aytsam, o'zim ham ba'zan nasr bilan, ba'zan nazm bilan ish qilib turaman.

**Bobchinskiy** (*Dobchinskiyiga*). To'g'ri, to'g'ri, Pyotr Ivanovich. Gapini ko'rding, xiyla ilmli odamga o'xshaydi.

**Xlestakov.** Menga qarang, shaharlaringda dilxushlik qiladigan, karta-partiya o'ynaydigan biron joy yo'qmi?

**Hokim** (*o'zicha*). Ehe, bu gapni kimga tegizib aytayotganligini bilamiz (*baralla*). Bizning shaharda bunaqa ishlar bo'lmaydi. Mening

o'zim umrimda qo'llimga karta olgan odam emasman: karta o'yini ni bilmayman ham. Kartani ko'rsam jinim qo'zg'aydi. Bitta-yarimta g'ishtin shoxigami, boshqasigami ko'zim tushib qolsa, ko'nglim ozadi. Bir kuni bolalarni o'ynatib o'tirib kartadan uy yasagan edim, o'sha kechasi tong otguncha yomon tushlar ko'rib chiqdim. Afti qursin. Nainki odam aziz umrini kartaga sarf qilsa!

*Luka Lukich* (*o'zicha*). Voy ablah-yeys, o'tgan kuni kartada yuz so'mimni yutib olgan edi-ya.

*Hokim*. Kartaga sarf qiladigan umrimni hukumat foydasiga sarf qilganim yaxshi emasmi?

*Xlestakov*. Yo'q, siz juda ham unaqa... gap har narsaga qanday ko'z bilan qarashda... Omad ketganda, albatta, karta degan narsa.... Yo'q, karta har qalay qiziq o'yin.

## VI MAJLIS

*Shular, Anna Andreevna bilan Marya Antonovna.*

*Hokim*. Kaminangizning oilasi: xotinim, qizim.

*Xlestakov* (*ta'zim qilib*). Iltifotingizga sazovor bo'lGANIM uchun xursandman, xonim.

*Anna Andreevna*. Biz sizning iltifotingizdan ko'pdan-ko'p xursandmiz.

*Xlestakov*. Yo'q, xonim, aksincha, men ko'pdan-ko'p xursandman.

*Anna Andreevna*. Nahot shundoq bo'lsa! Ko'nglimiz uchun shundoq desangiz ham qulluq. Marxamat qilsinlar, o'tirsinlar.

*Xlestakov*. Sizning yoningizda tikka turishning o'zi ham davlat; o'tir desangiz, mayli, o'tiray. Sizning yoningizda o'trishga tuyassar bo'lGANIM uchun baxtliman.

*Anna Andreevna*. Kechirasiz, men bunday gaplarga arzimayman... Poytaxtdan chiqib bunchalik yo'l yurish sizga juda og'ir tushgandir.

*Xlestakov*. Juda-juda. Kiborlar doirasida bo'lGAN odam, *Compteneur vous* birdan safarga chiqib qolsa, qynalar ekan; xillas traktorlar, jaxolat... Agar taqdir menga shu holni nasib qilmaganda... Mana (*Anna Andreevnaga qarab ta'zim qiladi*) hordig'im chiqdi.

*Anna Andreevna*. Chindan qlynalgandirsiz.

*Xlestakov*. Lekin hozir juda rohat qilib o'tiribman.

*Anna Andreevna*. Yo'g'-ye! Bizni juda ham osmonga ko'tarib yubordingiz. Men bunga loyiq emasman.

*Xlestakov.* Nega loyiq emas ekansiz? Loyiqsiz, xonim.

*Anna Andreevna.* Men qishloqda turaman...

*Xlestakov.* Ha, qishloqning ham o'ziga yarasha fa-fazilatlari bor... Albatta. Peterburgga solishtirib bo'lmaydiku-ya. E, Peterburg! Nimasini aytasiz! Siz balki meni mahkamada xat ko'chirib o'tiradigan biron mirza deb o'ylarsiz, yo'q, mahkama boshlig'i qalin o'rtog'im bo'ladi. Ba'zan yelkamga shunday qo'lini tashlaydi-yu: «biznikiga obedga kelgin» deb qoladi. Men mahkamaga «uni undoq qll, buni bundoq qil» degani bir kirib chiqaman xolos. Hamma xatni mirza yozadi. Qalamini tirillatgani-tirillatgan. Meni kollejskiy assesor qilmoqchi bo'lishgan edi, ko'nmadim — nima keragi bor? Mahkamaning zinasida qorovul meni ko'rib qolsa cho'tkasini olib orqamdan yuguradi, «ijozat bering, Ivan Aleksandrovich, etgingizni cho'tkalab qo'yay» deydi (*hokimga*). Nega tikka turibsizlar, janoblat, marhamat qilinglar, o'tiringlar.

*Hokim.* Mansabimiz uncha degulik emas, tikka tursak ham bo'laveradi.

*Artyomiy Filippovich.* Mayli, tikka turamiz.

*Luka-Lukich.* Tashvish tortmasinlar.

*Xlestakov.* Mansabga qaramanglar, marhamat, o'tiringlar. (*Hokim va boshqalar o'tirishadi*.) Takallufga hushim yo'q. Hamma vaqt ko'zga ko'rinaslikka tirishaman, lekin hech bo'lmaydi, baribir ko'rishadi. Biron joyga chiqdimmi — bas, darrov «ana, Ivan Aleksandrovich kelyaptilar» deyishadi. Bir kuni meni bosh qo'mondon deb o'lashibdi: soldatlar gauptvaxtdan yugurib chiqib miltik bilan chest berishsa bo'ladiimi! Keyin bir tanish ofitser: «Biz seni bosh qo'mondon deb o'yalmiz-a» dedi.

*Anna Andreevna.* Buni qarang-a.

*Xlestakov.* Meni hamma tanlydi... Chiroyli artistkalar bilan tanishman. Men har xil tomosha asarlari... adiblari tez-tez ko'rib turaman. Pushkin bilan oramizdan qil o'tmaydi. Ba'zan: «Xo'sh, og'aynim, Pushkin, ahvol qalay?» desam, «yomon emas, og'ayni» deydi. O'zi ham juda g'alati odam-da.

*Anna Andreevna.* Siz yozib ham turasizmi? yozuvchilik ham yaxshi hunar. Jurnallarga ham yozib tursangiz kerak?

*Xlestakov.* Ha, jurnallarga ham yozib turaman. Ko'p asar yozgaman: «Figaroning uylanishi», «Robert Dyavol», «Norma». Ba'zilari ning oti esimda ham yo'q. Asli yozuvchi ham emas edim-ku, lekin teatrning direktori hol-jonimga qo'ymay: «Bir narsa yozib bermasang bo'lmaydi, og'ayni» deb turib oldi. «Xayr, yozsam yoza qolay»

deb hammasini bir kechada yozdim-u, odamlarning og'zini ochirib qo'ydim. Zehnim juda o'tkir. Baron Brambeus nomi bilan chiqqan hamma kitoblar, «Fregat Nadejda», «Moskovskiy telegraf»... hammasini men yozganman.

*Anna Andreevna.* O'sha Brambeus sizmisiz?

*Xlestakov.* Bo'lmasa-chi, hammasining maqolasini men o'zim tuzatib beraman. Xizmatimga Smirdin qirq ming so'm beradi.

*Anna Andreevna.* Undoq bo'lsa «Yuriy Miloslavskiy»ni ham siz yozgan ekansiz-da?

*Xlestakov.* Ha men yozganman.

*Anna Andreevna.* Men buni hozir payqadim.

*Marya Antonovna.* Onajon, bu kitob janob Zagoskin asari deb yozilgan-ku?

*Anna Andreevna.* Shu yerda ham gap qaytarasan deb turgan edim.

*Xlestakov.* Ha, ha, to'g'ri, to'g'ri, bu asar Zagoskinniki. Boshqa bir «Yuriy Miloslavskiy» degan asar bor. Bunisi meniki.

*Anna Andreevna.* Ha, men siznikini o'qiganman. Juda ham yaxshi yozilgan-da.

*Xlestakov.* Rostini aytasam adabiyot bilangina tirikman. Mening uyim Peterburgda bиринчи uy, Ivan Aleksandrovichning hovlisi de-sangiz hamma biladi. (*Hammaga*) Peterburgga borib qolsalaring marhamat qilinglar, kiringlar. Men ham bal berib turaman.

*Anna Andreevna.* Siz beradigan bal uncha-muncha bal bo'lmas deyman.

*Xlestakov.* Nimasini aytasiz. Stolda, masalan, tarvuz, yetti yuz so'mlik tarvuz: sho'rva to'ppa-to'g'ri Parijdan biqirlab qaynab turgan holda qozoni bilan paroxodda olib kelingan bo'ladi. Qozonning qopqog'i ko'tarilsa shunday bug'i chiqadiki, tabiat olamida bunday bug'ni hech kim ko'rgan emas. Men har kuni balda bo'laman. Karta o'ynaydigan ulfatlarim ko'p: biri tashqi ishlar ministri, biri fransuz safiri, biri Angliya safiri, biri nemis safiri va hokazo. Karta o'ynab shundoq ham char-chaymanki, nimasini aytasiz. To'rtinchchi qavatga arang chiqaman-u oqsochimga: «Ma, Mavrushka, shinelmni ol» deyishga zo'rg'a darmonim yetadi. E, e, esimdan chiqibdi, ikkinchi qavatda turaman. Bitta zinadan chiqaman xolos... Ertalab men hali uyqudan turmasimdan burun mehmonxonamni ko'rsangiz: graflar, knyazlar g'ij-g'ij bo'lib o'tirishadi; ariday g'o'ng' illashgani-g'o'ng' illashgan... Ba'zan ministr ham keladi. (*Hokim va boshkalar o'ti yorilib, o'rinlaridan turishadi*) Menga yuborilgan xatlarning ustiga ham: «janob oliylariga» deb yozishadi. Bir vaqt

hatto departamentni ham boshqarganman. Qiziq: direktor ketib qoldi, qayoqqa ketgani ma'lum emas. Turgan gap, bu o'ringa kim o'tiradi deb shov-shuv bo'lib qoldi... Ko'p generallar talabgor bo'lib keldi-yu, lekin hech qaysisi uddasidan chiqolmadi. Chetdan qaraganda oson ko'rindi-yu, lekin, haqiqatda qiyin ish. Hech kim udda qilolmagandan keyin menga murojaat qilishdi. Kurer ketidan kurer, kurer ketidan kurer, qani endi keti uzilsa. O'ttiz besh ming kurer kelsa bo'ladimi! O'zi nima gap deb so'radim. «Ivan Aleksandrovich, marhamat qilib departamentni boshqaring» deyishdi. Rostini aytam bir oz shoshib qoldim; ustimda xalat, chiqib, «yo'q» demoqchi bo'ldim-u, lekin podshoning qulog'iga yetib qolsa deb, «ha, mayli, afandilar, qabul qilsam qabul qila qolay, lekin bilib qo'yinglar, mening qulog'im ding, men ish boshida bo'lganimdan keyin unday bunday gaplar bo'lmashligi kerak» dedim. Haqiqatan ham departamentdan shunday o'tsam, xuddi zilzila bo'lganday, hamma dag'-dag' titrardi. (*Hokim va boshqalar qo'rqib qaltirashadi. Xlestakov qizishib ketadi.*) Men hazil-pazilni bilmayman. Hammasiga zarbimni o'tkazib olganman. Mendan davlat kengashi ham qo'rqadi. Ha, nima? Shundoq odamman o'zim. Men hech kimni rioya qilmayman. Hammaga: «o'zimni o'zim bilaman, o'zim» deyman. Hech qaerda, hech ish mensiz bitmaydi. Saroyga har kuni borib turaman. Xohlasam ertaga feldmarshal bo'laman. (*Sidirilib yerga yikilay deganda, boshkalar hurmat bilan tutib qolishadi.*)

**Hokim (titrab-kaltirab).** J

**Xlestakov (keskin tovushda).** Nima deysiz?

**Hokim.** Ja... Ja... Ja...

**Xlestakov (hamon o'shanday tovush bilan).** Tushunolmadim, qo'ysangizchi.

**Hokim.** Ja-ja-Janob oliylari, bir oz dam olmaydilarmi? Mana uy, hamma narsa taxt.

**Xlestakov.** Qo'ysangiz-chi. Mayli, dam olsam ola qolay. Ovqatlaring juda yaxshi bo'lgan ekan, maza qildim... (*Deklamatsiya kilib.*) Labardan! Labardan (*yon tomonagi uyg'a kiradi, uning ketidan Hokim ham kiradi.*)

## VII MAJLIS

**Xlestakov bilan Hokimdan boshqa hamma.**

**Bobchinsky (Dobchinskiyga).** Odam degan mana bundoq bo'libdi, Pyotr Ivanovich. Ana buni odam desang bo'ladi. Umrimda bunday

katta odamning suhbatida bo'lgan emas edim, yuragim yorilib o'la-yozdim. Qani, Pyotr Ivanovich, ayting, bu odam mansab jihatidan kim bo'lsa, ekan?

**Dobchinskiy.** Menimcha general bo'lsa kerak.

**Bobchinskiy.** Yo'q, menimcha general buning patagiga ham arzimaydi; agar general bo'lsa generalissimusdan kam emas. Davlat kengashini boplaganini eshitdingizmi? Yuring, tezroq borib Ammos Fyodorovich bilan Korobkinga aytaylik. Xayr, Anna Andreevna.

**Dobchinskiy.** Xayr, azizim.

Ikkovi chiqib ketadi.

**Artyomiy Filippovich (Luka Lukichga).** Yuragim yorilgunday bo'lyapti, lekin nimadan qo'rqa yotgan imni o'zim ham bilmayman. Mundirimizni ham kiymabmiz. Uyqudan turib Peterburgga ma'lum qilsa nima bo'ladi? (*Maktab noziri bilan birga uydan chikib ketadi.*) Xayr, bekam!

### VIII MAJLIS

*Anna Andreevna, Marya Antonovna.*

**Anna Andreevna.** Zap odam ekan-da.

**Marya Antonovna.** Asti qo'ying.

**Anna Andreevna.** Nazokatini qara-ya. Poytaxtdan kelgan odamligi shundoqqina ko'rinib turibdi. Turgan-bitgani fazilat-a... Hay, hay! Shunday yigitlarga joningni qoqsang ham arziydi. Butkul mahliyo bo'lib qoldim. Lekin men ham unga yoqib qoldim: zehn solsam, ha-deb menga qaraydi.

**Marya Antonovna.** Voy, onajon, menga qaradi-ku.

**Anna Andreevna.** Behuda gapingni qo'y, hozir hech o'rni emas.

**Marya Antonovna.** Yo'q, onajon, rost, menga qaradi.

**Anna Andreevna.** Yana gap qaytaradi-ya! Gap tashlamasang ko'ngling joyiga tushmaydi. Bas! Nega senga qarar ekan? Nima qiladi qarab?

**Marya Antonovna.** Qaradi, ko'p qaradi, adabiyotdan gap boshlaganda qaradi, safirlar bilan karta o'ynagani to'g'risida gapirganda ham qaradi.

**Anna Andreevna.** Biron marta qaragan bo'lsa qaragandir, lekin o'shanda ham shunchayiki «bir qarab qo'yaychi» degandir-da.

## IX MAJLIS

*O'shalar va Hokim.*

*Hokim (ayoq uchida yurib kiradi). Jim...*

*Anna Andreevna. Nima?*

*Hokim.* Ichirganimga ham pushaymonman. O'sha gapirgan gaplaringning yarmi rost bo'lganida ham, bilasanmi, nima bo'ladi? (*O'ylana-di.*) Rost bo'lmay nima bo'ladi? Ichkilik odamning ichidagini sirtiga chiqaradi. Uncha-muncha yolg'oni ham bor-ku, lekin gap bo'lgandan keyin ichida yolg'oni ham bo'ladi-da. Ministrlar bilan karta o'ynasa, saroyga borib tursa... Xudo haqi o'ylagan sayin boshim g'ovlaydi. Xuddi yo jar yoqasida, yo dor ostida turganga o'xshayman.

*Anna Andreevna.* Men hech qo'rqqanim yo'q. Mening nazarimda o'qigan, kibor, olly maqom bir odam xolos, mansabi bilan nima ishim bor.

*Hokim.* Xotin bo'lganiningdan keyin shu-da! Shunaqa bo'lmasalaring xotin bo'larmidilaring. Sizlarga shunaqa gaplar bo'lsa bas. To'satdan qayoqdagi bema'nii gapni gapirib qo'yasizlar. Sizlarga hech gap yo'q, baloga biz erkaklar qolamiz. Sen u bilan muncha yoyilib gaplashasan, nima u senga, Dobchinskiyimi?

*Anna Andreevna.* Bu to'g'rida menga o'rgatmay qo'ya qoling, biz ham uncha-muncha bilamiz (*qiziga qaraydi*).

*Hokim (o'zicha).* Sizlarga gap uqtirib bo'ladimi: boshga bitgan balosizlar. Qo'rqqanimdan hali-hali o'zimga kelolmayman (*eshikni ochib ichkariga*) Mishkal Mirshablarni — Svistunov bilan Derjimordani char-qir. Shu yerda, darvozaning oldida bo'lsa kerak (*bir oz jimlikdan so'ng*). Ajab zamona bo'ldi-da: saviatliroq bir odam bo'lsa ham go'rga ekan — oriq, mijg'ov odam bo'lsa, qayoqdan bilasan uning kimligini. Harbiy kiyimda bo'lsa-ku xayr, lekin frak kiyib olsa xuddi qanoti yulingan pashshaday bo'ladi qoladi. Traktorda ham xo'p o'zini sipo tutdi, shuna-qayam kinoyalar qildiki, ikki dunyoda buning tagiga yetolmaysan; mana endi ochiqli ketdi, keragidan ham ortiqroq laqillab qo'yadi. yosh-da!

## X MAJLIS

*O'shalar va Osip. Barmog'i bilan imo qilib  
hamma unga tomon yuguradi.*

*Anna Andreevna.* Bu yoqqa kel, jigarim!

**Hokim.** Jim... Nima? Nima? Uxlab yotibdimi?

**Osip.** Yo'q, kerishyapti.

**Anna Andreevna.** Menga qara, oting nima?

**Osip.** Osip, xonim.

**Hokim (qizi bilan xotiniga).** Bo'ldi, bo'ldi, bas. (Osipga.) Xo'sh, do'stim, qorningni yaxshilab to'yg'izishdimi?

**Osip.** Ha, juda to'ydim, qulluq.

**Anna Andreevna.** Hoy menga qara, xo'jayiningning oldiga grafilar, knyazlar ko'p kelishadimi?

**Osip (chetga).** Nima desam ekan. Halitdan shuncha ovqat berissa, bundan keyin yana ham ko'proq berishar (*baralla*). Ha, graflar ham kelib turishadi.

**Marya Antonovna.** Osip, jonginam, xo'jayining muncha ham yaxshi odam ekan!

**Anna Andreevna.** Hoy, menga qara, Osip, xo'jayining o'zi...

**Hokim.** E, qo'ysalaring-chi! Qayoqdagi behuda gaplar bilan meni ishdan qo'ymanglar. Xo'sh, do'stim?

**Anna Andreevna.** Xo'jayining qanaqa mansabda.

**Osip.** Qanaqa mansabda bo'lar edi.

**Hokim.** Obbo, shu bema'ni gaplaringni qo'yasizlarmi, qo'ymaysizlarmi? Gapni gapga qo'shmaysizlar-a! Xo'sh, do'stim, xo'jayining qalay? Qattiqko'lmi? Odamlarni qovurib turadimi?

**Osip.** Ha, tartibni yaxshi ko'radi, har ish vaqtida, har narsa joyida bo'lsin deydi.

**Hokim.** Sen menga juda yoqib qolding. Yaxshi odam bo'lsang kerek, do'stim. Xo'sh...

**Anna Andreevna.** Menga qara, Osip, xo'jayining Peterburgda mundir kiyib yuradimi?

**Hokim.** Bo'ldi endi, muncha shaqillaysan, Bu yerda odamning hayot-mamoti to'g'risida gap ketyapti (Osipga). Menga ham yoqib qolding, do'stim. Mana bu ikki so'lkovoyni ol, yo'lda choy-poy ichib ketarsan.

**Osip (pulni olib).** Qulluq, to'ram. Umringiz uzoq bo'lsin. Bir kambag'alni xursand qildingiz.

**Hokim.** Bo'pti, bo'pti, o'zim ham xursandman. Qani, ayt-chi, do'stim...

**Anna Andreevna.** Menga qara, Osip, xo'jayiningga qanaqa ko'z yoqadi.

**Marya Antonovna.** Osip, jonginam, xo'jayiningni burni muncha ham chiroyli ekan.

**Hokim.** Gapni-gappa qo'shasizlarmi, yo'qmi? (*Osipga.*) Xo'jayining ko'proq nimaga e'tibor qiladi, ya'ni yo'lida unga nima ko'proq ma'qul bo'ladi.

**Osip.** Nima zehniga yoqsa o'sha ma'qul bo'ladi. Yaxshi kutib olinsa, yaxshi ziyofat qilinsa yana ham ma'qulroq bo'ladi.

**Hokim.** Yaxshi ziyofat dedingmi?

**Osip.** Ha. Men bir krepostnoy odam bo'lsam ham mendan xabardor bo'lib turadi. Xudo haqi! Biron joyga borsak darrov «xo'sh, Osip, qorningni yaxshilab to'yg'izishdimi» deb so'raydi. «Yo'q, xo'jayin» desam, «E, Osip, bu yaramas odam ekan, Peterburgga borganimizdan keyin esimga sol» deydi. «E, deyman o'zimcha (*qa'l siltab*), men bir to'pori odamman, qo'y, nima qilaman esiga solib» deyman qo'yaman.

**Hokim.** Yaxshi, yaxshi, gaping ma'qul. Men senga hali choy puli byorgan edim, mana bunga non olib yegin.

**Osip.** Nima vajdan pul beryaptilar, to'ram? (*Pulni cha'ntagiga saladi.*) Mayli, sog'liqlari uchun icharman.

**Anna Andreevna.** Mening oldimga kir, men ham pul beraman.

**Marya Antonovna.** Osip, jonglnam, xo'jayiningni o'pib qo'y.

Narigi uuda *Xlestakov* sek'in yo'taladi.

**Hokim.** Jim... (*Oyoq uchida turadi. Hamma shivirlab gapiradi.*) Hay, hay, tovush chiqara ko'rmanglar. Boringlat, uyga kiringlar, bas...

**Anna Andreevna.** Yur, Mashenka. Men mehmonning bir narsasini payqadim, buni o'zimizdan boshqa hech kim eshitmasligi kerak.

**Hokim.** Ha, endi bularga xudo berdi. Bularning gapini bir eshit-sang, qaytib eshitishni orzu qilmaysan. (*Osipga qarab.*) Qani, do'stim...

## XI MAJLIS

*O'shalar, Derjimorda va Svistunov.*

**Hokim.** Jim! Ayiqqa o'xshamay o'linglar, muncha taraqlatasizlar! Aravadan qirq pudlik yuk tashlayotganday-a! Qayoqda laqillab yuribsizlar?

**Derjimorda.** Amringizni bajo keltirgani borgan edim...

**Hokim.** Jim! (*Uning og'zini berkitadi.*) Qarg'aday qag'illamay o'l! (*Masxara kilib.*) Amrimni bajo keltirgani borgan emish! Bo'sh bochkaga o'xshab, sal tegsang gumburlaydi. (*Osipga.*) Xo'p, do'stim, sen chi-qib xo'jayinga kerakli narsalarni tayyorla. Nima kerak bo'lsa so'rayber

(*mirshablarga*). Sizlar eshik oldida hech qayoqqa jilmay turinglar, begona odamni, ayniqsa savdogarlarni uyga yo'latmanglar. Agar biron-tasini kirgizadigan bo'slalaring... Agar biron odam mening ustimdan ariza ko'tarib kelsa yo ariza ko'tarib kelganga o'xshab qolsa, darrov gribonidan tutib (*ayog'i bilan ko'rsatadi*). Mana bundoq qilib boplanqlar. Fahmladilaringmi? Jim... Jim... (*Mirshablarning ketidan oyoq uchida yurib chiqib ketadi*.)

## TO'RTINCHI PARDA

### HOKIMNING HOVLISIDAGI O'SHA UY

#### I MAJLIS

Oyoq uchida sekin yurib *Ammos Fyodorovich*, *Artyomiy Filippovich*, *pochta mudiri*, *Luka Lukich*, *Bobchinskiy* bilan *Dobchinskiylar* mundit kiyib, yasanib kirishadi.

Hamma shivitlab gapirishadi.

*Ammos Fyodorovich* (*hammani qator qilib*). Janoblar, xudo haqi tezroq qator bo'linglar, tartib bilan turinglar. Eshittilaring-ku. Saroyga borib turar ekan, davlat kengashiga do'q qilar ekan. Harbiycha saf tortinglar. Siz, Pyotr Ivanovich, mana bu yoqqa o'ting. Siz, Pyotr Ivanovich, mana bu yerda turing.

Ikkala Pyotr Ivanovich oyoq uchida chopishadi.

*Artyomiy Filippovich*. O'zingiz bilasiz, Ammos Fyodorovich, ba'zi bir tadbirlar ko'rishimiz kerak edi.

*Ammos Fyodorovich*. Qanaqa tadbirlar?

*Artyomiy Filippovich*. Qanaqa tadbirlar bo'lar edi?

*Ammos Fyodorovich*. Picha-picha uzatsak deysizmi?

*Artyomiy Filippovich*. Ha-ha. Bir narsa uzataylik.

*Ammos Fyodorovich*. Qanday bo'lar ekan? Podsholik odam, ba-qirib bermasin tag'in. Biron haykal o'rnatgani dvoryanlar nomidan iona deb berilsamikin.

*Pochta mudiri*. Yoki pochtaga egasi yo'q pul kelgan ekan deb beraylikmi?

*Artyomiy Filippovich.* Ehtiyyot bo'ling, tag'in o'zingizni pochtaga solib biron yoqqa badarg'a qilmasin. Yaxshi hukumat barpo bo'lган mamlakatda bunaqa ishlar oson emas. Nega hamma miz bu yerga to'plandik? Yaxshisi bitta-bitta ko'rinyaylik... Nima gap bo'lsa ham orada qolsin, birov eshitmasin. Yaxshi odamlar ishni mana shunday qiladi. Qani, siz boshlang, Ammos Fyodorovich.

*Ammos Fyodorovich.* Siz boshlay qoling, hurmatli mehmon avval sizning tuzingizni tatidi.

*Artyomiy Filippovich.* Bo'lmasa bu ishni yoshlarga ma'rifat tarqatadigan Luka Lukich boshlay qolsinlar.

*Luka Lukich.* Yo'q, yo'q, janoblar. Men shunday tarbiya ko'rgan-manki, katta mansabdorga ro'para bo'lsam yuragim orziqib, tilim tutilib qoladi. Yo'q, janoblar, meni tinch qo'yinglar.

*Artyomiy Filippovich.* Sizdan boshqa hech kim bu ishni eplolmaydi, Ammos Fyodorovich. Gapni sizdan boshqa boplaydigan odam yo'q. Gapda naq Sitseron bo'lib ketasiz.

*Ammos Fyodorovich.* Qo'ysangiz-chi, unchalik emas. Gapingizni qarang-u! Sitseron emish! Men xonaki yoki iskovuch it to'g'risida gapni boplayman xolos.

*Hamma.* Yo'q, siz faqat it to'g'risida emas, hamma gapni ham boplaysiz. Qo'ying, Ammos Fyodorovich, bizga bir otalik qiling. Yo'q, Ammos Fyodorovich.

*Ammos Fyodorovich.* Qo'ysalaring-chi, janoblar.

Shu payt Xlestakov yotgan uydan oyoq sharpasi va yo'tal eshitiladi. Hamma bir-birini itarib eshikka tomon boradi va har qaysisi ichkarida nima bo'layotganini ko'rishga oshiqadi. Shivilagan nidolar eshitiladi.

*Babchinsky (tovushi).* Voy, Pyotr Ivanovich, oyog'imni bosib oldingiz.

*Zemlyanika (tovushi).* Hoy, janoblar, qisib o'liddilaring-ku, nari tursalaring-chi!

*Bir necha kishi voy-voylaydi.* Nihoyat hamma chiqib uy bo'sh qoladi.

## II MAJLIS

*Xlestakov (uyqudan turgan, o'zi yolg'iz chiqadi).* Anchagina uxlab-man-da. Shuncha parqu yostig'u, parqu to'shakni qayoqdan topishibdi

ekan? Terlab ketibman-a. Kecha nonushta mahalida menga bir narsa ichirgan bo'lsa kerak — hali ham boshim og'riyapti. Bu yer xo'p o'ynab-kuladigan joyga o'xshab qoldi. Xursandchilikni ko'p yaxshi ko'ruman-da. Rostini aytsam birov beg'araz ko'nglimni olsa juda-juda xursand bo'laman. Hokimning qizi chakki emas ekan, lekin onasi ham hali xiyla tarang... Menga mana shunaqa maishat bo'lsa.

### III MAJLIS

*Xlestakov bilan Ammos Fyodorovich.*

**Ammos Fyodorovich (kitradi, o'zicha).** Ilohim shu yerdan esomon chiqay-da. Tizzalarim bukilib ketyapti. (*G'o'dayib, bir qo'li bilan qilichini ushlab baland ovoz bilan.*) Ijozat bersalar o'zimni tanitay: shu verdagi uyezd sudining sudyasi kollejskiy assesor Lyapkin-Tyapkin.

**Xlestakov.** Marhamat qiling, o'tiring. Sudyamisiz?

**Ammos Fyodorovich.** Sakkiz yuz o'n oltinchi yilda dvoryanlarining xohishi bilan uch yil muddatga suda qilinib saylangan edim, hozirgacha ishlab yuribman.

**Xlestakov.** Sudyalik ham yomon ish bo'lmasa kerak, deyman?

**Ammos Fyodorovich.** Uch yildan uch muddat xizmat qilganim uchun boshliqlar meni to'rtinchi darajali Vladimir nishoniga taqdim qilishgan. (*Chetga.*) Qo'limdag'i pul kaftimni yondirib yuboryapti.

**Xlestakov.** Vladimir nishonini men ham yaxshi ko'ruman. Uchinchi darajali Anna nishoni unchalik emas.

**Ammos Fyodorovich (pul tutgan qo'lini bir oz oldinga cho'zib o'zicha).** Xudo-yey, qaerda turganimni bilmayman. Xuddi cho'g'da turanga o'xshayman.

**Xlestakov.** Qo'lingizdag'i nima? Ammos Fyodorovich (*garang bo'lib, pulni yerga t-shirib yuboradi*). Hech nima...

**Xlestakov.** Hech nima? Pul tushib ketdi-ku?

**Ammos Fyodorovich (vujudi titrab).** Yo'q, yo'q. (*Chetga.*) Obbo xudo urdi. Sudga ketdim. Olib ketgani arava ham kelayotgandir.

**Xlestakov (pulni yerdan oladi).** Bu pulku?

**Ammos Fyodorovich (o'zicha).** Tamom, ish rasvo bo'ldi, xarob bo'ldim.

**Xlestakov.** Menga qarang, shu pulni menga qarz berib turing.

**Ammos Fyodorovich (shoshib).** Xo'p, xo'p... Jonim bilan. (*Chetga.*) Dadilroq bo'lsamchi-ya! yo xudo! Ey aziz-avliyolar, madad qilinglar.

**Xlestakov.** Bilasizmi, yo'lda xarajatim ko'payibroq ketdi... Qishloqqa borishim bilan yuboraman.

**Ammos Fyodorovich.** Hojati yo'q. Yubormasangiz ham boshimiz osmonga yetadi. Albatta, ojiz bo'l sam ham, bor kuchim va ixlos bilan ulug'larga... xizmat qilishga harakat qilaman. (O'rnidan turadi va g'o'dayib.) Men janoblarini notinch qilmay. Biron amr-farmonlari yo'qmi?

**Xlestakov.** Qanaqa amr-farmon?

**Ammos Fyodorovich.** Uezd sudiga biron amr-farmon bermaydilarmi demoqchiman.

**Xlestakov.** Nega? Menga hech hojati yo'q. Tashakkur.

**Ammos Fyodorovich** (ta'zim kilib ketar ekan, chetga). Tamom, shahar bizniki.

**Xlestakov** (sud'ya chikib ketgandan keyin). Sudya yomon odam emas ekan.

#### IV MAJLIS

**Xlestakov** bilan pochta mudiri (egnida mundir, qilichini tutgan holda g'o'dayib kiradi).

**Pochta mudiri.** Ijozat bersalar o'zimni tanitay: pochta mudiri nadvornly sovetnik Shpekin.

**Xlestakov.** Marhamat. Yaxshi odamlarning suhbatini yoqtiraman. O'tiring. Siz bu yerda ko'pdan beri turasizmi?

**Pochta mudiri.** Ha, to'ram.

**Xlestakov.** Shaharlaring menga yoqib qoldi. Odam ozlikka oz-ku, lekin, nima qipti, poytaxtmidi? Nima dedingiz?

**Pochta mudiri.** Rost aytadilar.

**Xlestakov.** Faqat poytaxtda nazokatli odamlar bo'ladi. To'qim tabiat provincial odamlar bo'lmaydi. Shunday emasmi?

**Pochta mudiri.** Shunday, to'ram. (Chetga.) Mutakkabbir odam emas ekan: har qanaqa gapni gapirishaverar ekan.

**Xlestakov.** Lekin kichkina shaharda ham yaxshi maishat qilsa bolalar ekan, shunday emasmi?

**Pochta mudiri.** Shunday, to'ram.

**Xlestakov.** Menimcha odama nima kerak? Izzat-hurmat, samimiy muhabbat kerak. Nima dedingiz?

**Pochta mudiri.** Haq gap...

**Xlestakov.** Siz ham mening fikrimda ekansiz. Xursandman. Ba'zilar meni g'alati odam deyishadi, lekin mening fe'l'm shu. (*Uning ko'ziga qarab o'zicha.*) Qani, bir yuz qarz so'rab ko'ray-chi. (*Baralla.*) Ko'p qiziq ish bo'ldi-da: yo'lda xarajat ko'payib ketdi. Menga uch yuz so'mgina qarz topib berolmaysizmi?

**Pochta mudiri.** Nega bera olmas ekanman, mendan pul so'ray-siz-u boshim osmonga yetmaydimi? Mana, marhamat qilsinlar, xiz-matingizga tayyorman.

**Xlestakov.** Qulluq. Rostini aystsam yo'lda pulni ayamayman, ayashning nima hojati bor? Nima dedingiz?

**Pochta mudiri.** Rost aytadilar. (*O'rnidan turadl, g'o'dayib qilichni ushlaydi.*) Endi sizni notinch qilmay... Pochta xususida biron gap-lari yo'qmi?

**Xlestakov.** Yo'q, yo'q.

**Pochta mudiri** ta'zim qilib chiqib ketadi.

**Xlestakov (papirosh chekib).** Pochta mudiri ham durust odamga o'x-shaydi. Sermulozimat odam ekan. Jon-dilim shunaqa odam.

## V MAJLIS

**Xlestakov** oldiga *Luka Lukichni* eshikdan itarib kirgizishadi. Tovush: «Nega qo'rqsan?»

**Luka Lukich** (*qillchini ushlab va qaltirab*). Ijozat bersalar o'zimni tanitsam: maktablar noziri titulyarniy sovetnik Xlopov.

**Xlestakov.** Marxamat, marhamat. O'tiring, o'tiring. Papirosh che-kasizmi? (*Papirosh uzatadi.*)

**Luka Lukich** (*ikkilanib, o'zicha*). Ana xolos, bunchalik bo'lishini hech kutmagan edim. Olsammikan, olmasammikan?

**Xlestakov.** Oling, oling. Peterburg papiroshiga o'xshamaydi-ku, le-kin chakki emas. Peterburgda yuztasi yigirma besh so'mlik papiroshlar chekar edim. Chekkanda qaymoqning mazasini berar edi. Mana, tutatib oling. (*Sham tutadi.*)

**Luka Lukich** chekmoqchi bo'ladi, vujudi titraydi.

**Xlestakov.** Bu yog'idan, bu yog'idan.

*Luka Lukich* (yuragi hovliqqanidan, qo'lidagi papirosn tushirib yuboradi, tupuradi va qo'l siltab o'zicha). Rasvo bo'ldim, qo'rqoqlik boshimga yetdi.

*Xlestakov.* Papirosga hushingiz yo'q shekilli, men rostini aystsam, juda yaxshi ko'raman. Xotin-xalojga ham suyagim yo'q. Sizchi? Siz qanaqa xotinlarni yoqtirasiz, qorarog'inimi yo oppoqqinasinimi?

*Luka Lukich* nima deyishini bilmasdan gangib qoladi.

*Xlestakov.* Ochig'ini ayta bering, qorarog'inimi yo oppoqqinasinimi?

*Luka Lukich.* Bir nima degani ojizman.

*Xlestakov.* Yo'q, yo'q, undoq demang, men sizning didingizni bilmochiman.

*Luka Lukich.* Ma'lumlari bo'lsinki... (*Chetga.*) Nima deyayotganimni o'zim ham bilmayman.

*Xlestakov.* Ha-ha! Aytmaysizmi? Biron ta mayizdakkina xotin bo shingizni aylantirganga o'xshaydi-ku, shundoq emasmi?

*Luka Lukich* indamaydi.

*Xlestakov.* Ana, qizarib ketdingiz-ku, ana, ana! Nega aytmaysiz?

*Luka Lukich.* Gangib qoldim, ja-ja-janob... O-o-oliylari... (*Chetga.*) Tilginam kesilsin! Rasvo qildi.

*Xlestakov.* Gangib qoldim? To'g'ri, mening ko'zimda odamni gan gitib qo'yadigan bir narsa bor. Hech qanaqa xotin ko'zimga tikka qarolmaydi, shunday emasmi?

*Luka Lukich.* To'g'ri, to'ram.

*Xlestakov.* Qiziq ish bo'ldi: yo'l xarajatim ko'payib ketdi. Menga uch yuz so'mgina qarz topib berolmaysizmi?

*Luka Lukich* (*cho'ntagiga qo'l tilqib o'zicha*). Obbo, pulim bo'lmasa nima qilaman? Bor, bor ekan. (*Pulni olib titraganicha uzatadi.*)

*Xlestakov.* Ko'p minnatdorman.

*Luka Lukich* (*g'o'dayib, qilichini ushlab*). Endi sizni notinch qil masam ham bo'lar.

*Xlestakov.* Xayr.

*Luka Lukich* (*oyog'i yerga tegmay chopadi va o'zicha*). Xudoga shukur, endi maktabni borib ko'rmas.

## VI MAJLIS

*Xlestakov oldiga Artyomiy Filippovich,  
g'o'dayib kilichini tutib kiradi.*

**Artyomiy Filippovich.** Ijozat bersalar o'zimni tanitsam: xudoyixonalar mutasaddisi, nadvorniy sovetnik Zemlyanika.

**Xlestakov.** Salom, marhamat. O'tiring.

**Artyomiy Filippovich.** Kecha janoblarini kuzatish va taxti idoramda bo'lgan xudoyixonalarни ko'rsatish sharafiga noil bo'lgan edim.

**Xlestakov.** Ha, ha, esimda bor, juda yaxshi ovqatlar bilan siylagan edingiz.

**Artyomiy Filippovich.** Vatan xizmatiga tayyorman.

**Xlestakov.** Rostini aytsam, jon-dilim yaxshi ovqat. Menga qarang, nazarimda kecha bo'yingiz salgina pastroq edimi?

**Artyomiy Filippovich.** Ehtimoldan xoli emas. (*Bir oz jim qolib.*) Shuni aytishim kerakki, hech narsani ayamasdan sidqidil bilan xizmatimni ado qilib turibman. (*Stulni unga yaqinroq surib, sekinroq gapiradi.*) Ammo pochta mudiri hech ish qilmaydi. Hamma ishi ora yo'lda qolib ketgan, posilkalar vaqtida yuborilmaydi... O'zingiz atayin surishtirib ko'rsangiz ham bo'ladi. Hali mendan burun kirkhan sudya ham umrini quyon ovlab o'tkazadi, mahkamasida it asraydi. Endi axloqiy masalasiga kelsak, u mening qarindoshim va o'rtog'im bo'lsa ham, vatan manfaati uchun shuni aytishim kerakki, axloqi ham buzuq. Bu yerda, hali o'zingiz ko'rgan Dobchinskiy degan bir pomeshchik bor, shu uyidan biron joyga chiqdi deguncha sudya darrov xotining oldiga kirib o'tiradi. Qasam ich desangiz ichaman... Bolalarini ko'ring, birontasi Dobchinskiyga o'xshamaydi, hammasi, hatto qizlari ham sudyaning xuddi o'zi.

**Xlestakov.** Hali shundoq deng, bu narsa xayolimga ham kelmag'an edi.

**Artyomiy Filippovich.** Maktablar nozirini aytmaysizmi... Ulug'lar shunday vazifani unga ishonib topshirishganiga hayronman: bu odam Yakubenchidan ham battarroq, yoshlarga shunday nojo'ya narsalardan ta'lim beradiki, asti qo'ying! Janoblariga yozib bersam qalay bo'ladi?

**Xlestakov.** Xo'p, mayli, yozib bering, ko'p xursand bo'laman. Zerikkan vaqtlarimda biron qiziqroq narsani o'qishni yaxshi ko'ruman. Sizning familiyangiz nima edi, ovsar bo'lib qolibman.

*Artyomiy Filippovich.* Zemlyanika.

*Xlestakov.* Ha, ha, Zemlyanika. Bolalaringiz bormi?

*Artyomiy Filippovich.* Ha, albatta, beshta bolam bor. Ikkitasi katta bo'lib qolgan.

*Xlestakov.* Katta bo'lib qolgan? Bularning haligiday...

*Artyomiy Filippovich.* Oti nima demoqchilar-mi?

*Xlestakov.* Ha, oti nima?

*Artyomiy Filippovich.* Nikolay, Ivan, Yelizaveta, Marya, Perepetuya.

*Xlestakov.* Yaxshi.

*Artyomiy Filippovich.* Janoblarning zarur ishlarga band bo'lgan vaqtlarini olmayin (*ketmoqchi bo'lib, ta'zim kiladi*).

*Xlestakov* (uni kuzatar ekan). Yo'q, mayli... Juda qiziq narsalarni gapirib berdingiz, yana boshqa vaqtarda ham marhamat qilib turing. Suhbatni yaxshı ko'raman. (*Qaytadi va eshikni ochib qichkiradi*.) Hoy, otingiz nima edi, esimdan chiqib qolaveradi.

*Artyomiy Filippovich.* Artyomiy Filippovich.

*Xlestakov.* Menga qarang, Artyomiy Filippovich, yo'lda g'alati hodisa bo'lib qoldi: bor pulimni sarf qilib qo'yibman. To'rt yuz so'mgina qarz berib turolmaysizmi?

*Artyomiy Filippovich.* Xo'p bo'ladi.

*Xlestakov.* Ko'p yaxshi boldi-da, qulluq.

## VII MAJLIS

*Xlestakov, Bobchinskiy bilan Dobchinskiy*

*Bobchinskiy.* Ijozat bersalar o'zimni tanitsam: shu shahar aholisi Pyotr Ivan o'g'li Bobchinskiy.

*Dobchinskiy.* Pomeshchik Pyotr Ivan o'g'li Dobchinskiy.

*Xlestakov.* Ha, men sizni ko'rgan edim. Yiqilib tushgan edingiz shekilli. Burningiz tuzaldimi?

*Bobchinskiy.* Xudoga shukur, tashvish tortmasinlar, tuzaldi, butkul tuzaldi.

*Xlestakov.* Xayriyat... (*Birdan.*) Pullaring yo'q-mi?

*Dobchinskiy.* Pul? Qanaqa pul?

*Xlestakov.* Biron ming so'm qarz?

*Bobchinskiy.* Muncha pulim yo'q. Sizda ham yo'qmi, Pyotr Ivanovich?

*Dobchinskiy.* Yonimda yo'q, pulimni xayriya ishlari bankasiga qo'ygan edim.

*Xlestakov.* Ming so'm bo'lmasa yuz so'm topilib qolar. Bobchinskiy (*cho'ntagini kovlab*). Pyotr Ivanovich, sizda, yuz so'm yo'qmi? Menda qirq so'm bor ekan xolos.

*Dobchinskiy (hamyoniga karab).* Yigirma besh so'm bor ekan xolos.

*Bobchinskiy.* Durustroq qarang, Pyotr Ivanovich, o'ng cho'ntagingiz teshik edi shekilli, shundan etagingizga tushib ketgandir, qarang topilib qolar.

*Dobchinskiy.* Yo'q, yo'q.

*Xlestakov.* Mayli, qo'ya bering. Bir aytdim-da. Oltmis besh so'm bo'lsa ham bo'laveradi, baribir (*pulni oladi*).

*Dobchinskiy.* Agar ijozat bersalar bir nozik masalani janoblari dan so'ramoqchi edim.

*Xlestakov.* Nima ekan?

*Dobchinskiy.* Juda nozik ish. Katta o'g'lim uylanmasimdan burunroq tug'ilgan edi.

*Xlestakov.* Shundoqmi?

*Dobchinskiy.* Lekin, otiga xaromi bo'lsa ham, haqiqatda o'z pushti-kamarimdan bo'lgan va buni keyinchalik eru xotinlik yo'li bilan halollab olganman. Shuning uchun istar edimki, endi u mening qonuniy o'g'lim bo'lsa-yu Dobchinskiy deb atalsa.

*Xlestakov.* Ko'p, atala qolsin. Mayli.

*Dobchinskiy.* Men-ku bu xususda janoblarini bezovta qilmas edim, lekin iste'dodiga xayfim keladi. Bolasi tushkur bo'ladigan bola: baytlarni yod biladi, qo'liga plichoq tushib qolsa shunaqa aravachalar yasaydiki, og'zingiz ochilib qoladi. Mana, Pyotr Ivanovich aytisinlar.

*Dobchinskiy.* Ha, iste'dodi zo'r.

*Xlestakov.* Yaxshi, yaxshi. Men bu to'g'rida harakat qilaman, gapi raman... Hammasi to'g'ri bo'lib ketadi. (*Dobchinskiyga*.) Sizning ham biron gapingiz bormi?

*Dobchinskiy.* Albatta, juda zarur iltimosim bor.

*Xlestakov.* Nima ekan?

*Dobchinskiy.* Men sizdan o'tinib so'rар edimki, Peterburgga borishingiz bilan o'sha yerdagi hamma to'ralarga, senatorlarga, admirallarga: «Janob falon, ma'lumingiz bo'lsinki, falon shaharda Pyotr Ivanovich Bobchinskiy degan odam bor» deb qo'ysangiz. Xuddi shundoq deng: falon shaharda Pyotr Ivanovich Bobchinskiy bor deng.

*Xlestakov.* Ko'p yaxshi.

**Bobchinskiy.** Mabodo shahanshohimni ko'rib qolsangiz u kishi-ga ham: «imperator hazratlari, falon shaharda Pyotr Ivanovich Bobchinskiy bor» deb qo'ying.

**Xlestakov.** Ko'p yaxshi.

**Dobchinskiy.** Kechirasiz, sizga ko'p aziyat berdik.

**Bobchinskiy.** Kechirasiz, sizga ko'p aziyat berdik.

**Xlestakov.** Mayli, mayli, xursandman. (Kuzatib qo'yadi.)

### VIII MAJLIS

**Xlestakov (yolg'iz).** Bu yerda chinovniklar ko'p ekan. Nazarimda bular meni podsholik odam deb o'ylashyapti. O'zim ham kecha bularni go'sxo'r qilgan edim. Voy, axmoqlar-yey! Bu gaplarning hammasini Peterburgdag'i o'rtog'im Tryapichkinga yozay, maqola yozib yurardi, bularni bir boplasin. Hoy, Osip, menga qog'oz bilan siyoh ber. (Osip eshikdan kallasini tikib «chozir» deydi.) Tryapichkinning qo'liga tushgan odam omon qolmaydi, o'ng kelsa otasini ham ayamaydi, pulga ham suyagi yo'q. Lekin nima bo'lса ham bu chinovniklar yaxshi odamlar, menga pul qarz berishgani shuni ko'rsatadi. Qani, bir sanaychi, kancha bo'ldi ekan? Sudyadan uch yuz, pochta mudiridan uch yuz, olti yuz, yetti yuz, sakkiz yuz... Mana buni muncha ham yog' bosibdi. Sakkiz yuz, to'qqiz yuz... O'ho! Mingdan oshibdi-ku. Qani, kapitan, endi qo'limga tushginchi, karta o'ynashni senga ko'rsatib qo'yay.

### IX MAJLIS

**Xlestakov, Osip siyoh, qog'oz ko'tarib kiradi.**

**Xlestakov.** Hoy kallavaram, meni qanday izzat-hurmat qilishayot-ganini ko'ryapsanmi? (Yozadi.)

**Osip.** Ha xudoga shukur. Lekin, bilasizmi, Ivan Aleksandrovich?

**Xlestakov.** Nima?

**Osip.** Ketaylik! Xudo haqi tezroq ketaylik.

**Xlestakov (yoza turib).** Bekor aytibsan! Nega?

**Osip.** Shunday. Afti qursin hammasining! Bir-ikki kun o'ynadik, bas. Nima qilasiz bular bilan ortiqcha pashshalashib? Tupuring hammasiga. Falokat bosib boshqa birov kelib qolsa... Xudo haqqi, Ivan Aleksandrovich! Juda yaxshi otlar bor ekan, maza qilib ketamiz.

**Xlestakov (yoza turib).** Yo'q yana bir oz turgim kelib qoldi. Erta-ga ketamiz.

**Osip.** Erta nimasi! Xudo haqqi ketaylik, Ivan Aleksandrovich. Sizga ko'p izzat-ikrom qilishyapti-ku, lekin, shundoq bo'lsa ham tezroq ketganimiz yaxshi. Bular sizni boshqa odam gumon qilishyapti. Ke-chikkaningizga otangiz ham xafa bo'ladilar. Maza qilib ketar edikda, yaxshi otlar berishardi.

**Xlestakov (yoza turib).** Xo'p, mayli. Avval mana shu xatni pochtaga eltib ber, birato'la guvohnomani ham olib keta qol. Qara, yaxshi ot berishsin. Aravakashlarga ayt, bir so'lkavoydan heraman, feldegirday olib yurishsin, ashula aytib berishsin (*yozadi*). Tryapichkin bu xatni o'qib kula berib qotib qolar...

**Osip.** Men boshqa bir odamni yubora-yu, o'zim narsalarni yig'ish-tiray, vaqt o'tmasin.

**Xlestakov (yoza turib).** Mayli, lekin sham olib kel.

**Osip (chiqadi, sahna orqasida).** Hoy, uka, bitta xat bor, shuni pochtaga eltib, pochta mudiriga ayt, bepul qabul qilsin. Undan keyin aytgin, xo'jayinga eng yaxshi kurer troykasini yuborishsin, yo'l kita bermas emishlar, podsholik berar emish degin. Ayt, tezroq yuborishsin, bulmasa xo'jayin xafa bo'ladilar. Shoshma, xat hali bitgani yo'q.

**Xlestakov (yozadi).** Tryapichkin hozir qaerda turarkin — Pochtamt ko'chasidami, Groxovoydamikin? Bu ham pul bermasdan uydanyuga ko'chib yurishni yaxshi ko'radi. Tavakkal, Pochtamt ko'chasiga yuboraman. (*Xatni buklab adres yozadi*.)

**Osip** sham keltiradi. **Xlestakov** xatni konvertga soladi.

**Derjimorda tovushi.** Hoy, pahmoq soqol, qayoqqa? Aytdim-ku hech kim kirmsasin dedilar.

**Xlestakov (Osipga xatni beradi).** Mana, olib bor.

**Savdogarlar (tovushi).** Bizni kirgizing, otaxon. Kirgizmaslikka haqingiz yo'q, ish bilan kelganmiz.

**Derjimorda (tovushi).** Yo'qol, yo'qol! Hech kimni qabul qilmaydi, uxlab yotibdi (*g'ovur ko'tariladi*).

**Xlestakov.** Osip, nima gap o'zi? Qara-chi, nima g'ovur?

**Osip (derazadan qarab).** Savdogarlar kirmoqchi bo'lishyapti, mire-shab qo'ymayapti. Qo'llarida qog'oz, sizni ko'rishmoqchi shekilli.

**Xlestakov (deraza oldiga kelib).** Ha, nima ishlaring bor, yaxshilar?

**Savdogarlar** (tovushi). Sizga arzdod bilan keldik. Ayting, to'ram, bizni kirgizishsin.

**Xlestakov.** Qo'ying, qo'ying, kirishsin. Osip, ayt kirgizsin. (Osip chiqadi.)

**Xlestakov** (derazadan uzatilgan qog'ozni olib o'qiydi). «Janob Olampano Moliya Xazratlariga savdogar Abdulindan...» Nima balo! Bunaqa mansab yo'q edi-ku!

## X MAJLIS

**Xlestakov** bilan **savdogarlar** qo'llarida vino, kallaqand

**Xlestakov.** Nima arzlarining bor, yaxshilar? Savdogarlar. Janobin-gizni ziyorat qilgani keldik.

**Xlestakov.** Xo'sh, xizmat?

**Savdogarlar.** Bizga rahm qiling, to'ram. Bizga bekordan-bekor jabr qilishyapti.

**Xlestakov.** Kim?

**Birsavdogar.** Kim bo'lar edi, shahrimizning hokimida. Bunday hokim, to'ram, hech bo'lgan emas. Bizga shunday azoblar beradiki, ta'rifga sig'maydi. Uyimizga hadeb askar qo'ya beradi, jonimizdan ham bezor bo'ldik. Nohaq ish qiladi. Kishining soqolidan ushlab: «hu tatar!» deb so'kadi. Xudo haqi! Izzatini joyiga qo'yimagan bo'lsak ham mayliga edi, hammasini o'rniga keltiramiz: xotiniga, qiziga hamma vaqt ko'yylaklik berib turamiz. Yo'q, u kishiga bu ham kam. Do'konga kirib qo'liga tushgan narsani olib keta beradi. Movutni ko'rib qolsa darrov: «e, yaxshi movut ekan, shu to'pni uyimga eltib ber» deydi. Koshki kamroq bo'lsa, bir to'pi kamida ellik gaz bo'ladi, eltib berasan kishi.

**Xlestakov.** Shundaqami? Obbo muttaham-ey!

**Savdogarlar.** Xudo haqi, bunaqa hokim dunyoga kelganmas. Qorasi ko'rinsa do'kondagi hamma narsani yashirish kerak bo'ladi. Ju-da ham nazari past: bochkada yetti yildan beri achib yotgan olxo'rini ham hovuchlab og'ziga tiqadi, holbuki buni malay ham yemaydi. Har yili Anton kuni hokimning tug'ilgan kuni deb bor-yo'g'imizni eltib beramiz. Yo'q, yana ber deydi. Onufriy kuni ham u kishining tug'ilgan kuni emish. Qandoq qilamiz, Onufriy kuni ham narsa eltib beramiz.

**Xlestakov.** Toza qaroqchi ekan-ku.

**Savdogarlar.** Xudo haqi. Bir nima deb ko'r-chi, uyingga butun boshliq bir polkni keltirib qo'yadi. Sal narsaga eshikni qulflab qo'yadi.

«Men seni urdurmayman, azob bermayman, zakonda yo'q! Lekin tuz-lagan baliq yegizaman» deydi.

*Xlestakov.* Obbo, muttaham-ey! Bu qilmishiga uni Sibir qilish kerak.

*Savdogarlar.* Ey, to'ram, qayoqqa yuborsangiz ham mayli, ish qilib bizdan uzoqroq bo'lsin. Janoblari bizning non-tuzimizni qaytarmasalar, vino bilan kallaqand olib kelgan edik.

*Xlestakov.* Qo'yinglar unaqa gaplarni, men sira pora olmayman. Bir-on uch yuz so'm pul qarz bersalaring boshqa, gap, qarz olishim mumkin.

*Savdogarlar.* Jonimiz bilan, to'ram. (*Pulni chiqarib.*) Uch yuz so'm nima ekan, besh yuz so'm oling, ishqilib yordam qilsangiz bo'lgani.

*Xlestakov.* Qarz bo'lsa hech narsa demayman, ola beraman.

*Savdogarlar* (kumush patnusda pul tutishadi). Marhamat, pat-nusi bilan oling.

*Xlestakov.* Ha, mayli, patnusini ham ola qolay.

*Savdogarlar* (*ta'zim kilib*). Bira to'la qandni ham ola qoling.

*Xlestakov.* Yo'q, men pora olmayman.

*Osip.* To'ram, nega olmaysiz? Ola bering, yo'lida kerak bo'ladi. Xalta bilan kallaqandni bu yoqqa ber. Hammasini ber, kerak bo'ladi. U nima? Chilvirmi? Bu yoqqa ber, yo'lida chilvir ham kerak bo'ladi, arava sinib-netib qolsa bog'laymiz.

*Savdogarlar.* Bir lutf-marhamat qilib yuboring. To'ram, siz yordam qilmasangiz holimiz xarob.

*Xlestakov.* Albatta, albatta. Harakat qilaman.

*Savdogarlar chiqib ketishadi.*

*Xotin* (*tovushi*). Nega meni qo'yiamsan, haqing yo'q! Sening us-tingdan ham arz kilaman! Turtma!

*Xlestakov.* Kim u? (*Deraza oldiga keladi.*) Nima arzing bor, kampir?

*Illi xotinning* (*tovushi*). Sizga sig'inib keldik, arzimizni eshititing, to'ram.

*Xlestakov* (*derazadan*). Qo'ying, kirishsin.

## XI MAJLIS

*Xlestakov, unter-ofitser va slesar xotini*

*Slesar xotini* (*ikki bukilib*). Sizga sig'inib keldim.

*Unter-ofitser xotini.* Sizga sig'inib keldim.

*Xlestakov.* Kimsizlar o'zlarining?

*Unter-ofitser xotini.* Unter-ofitser xotini Ivanovaman.

*Slesar xotini.* Slesar xotiniman. Shu yerli meshchanka Fevronya Petrovna Poshlepkina bo'laman, to'ram.

*Xlestakov.* Shoshmanglar, bitta-bitta gapiringlar. Nima deysan?

*Slesar xotini.* Sizga sig'inib keldim. Hokimning ustidan arzim bor. Xudo yo'liqsin. Bu muttahamning o'zi ham, bola-chaqasi ham, qavmi-qarindoshi ham niyatiga yetmasin.

*Xlestakov.* Nima qildi?

*Slesar xotini.* Bu muttaham erimni askarlikka yozib qo'ydi. Hali bizza navbat kelgani yo'q edi. Xotinlik odamni askarlikka yozish zakonda yo'q.

*Xlestakov.* Nima haqi bor ekan.

*Slesar xotini.* Yozdi, yozdi qo'ydi, muttaham! Illohim u dunyo-yu, bu dunyo xudoning qahriga giriftor bo'lsin. Ammasi bo'lsa ammasi ham, otasi tirik bo'lsa otasi ham, bu muttahamning o'zi ham baloga duchor bo'lsin! Aslida mashinachining o'g'lini askarlikka yozishi kerak edi, o'zi piyonista bir narsa. Uning ota-onasi boyda, tomonini yaxshilab moylagan edi, savdogar xotin Panteleevaning o'g'liga yopishdi. Panteleeva ham uning xotiniga uch kiyimlik polotno bergen edi, mening erimga yopishib oldi. «Sen erni nima qilasan, o'zi ham hech narsaga yaramaydi» deydi. Yarash-yaramasligini o'zim bilaman, axir! Ni-ma ishing bor! «Ering o'g'ri, hozir o'g'irlik qilmagan bo'lsa baribir qiladi, hozir bo'limasa yanagi yilga baribir askarlikka olinadi» deydi. Men ersiz nima qilaman, o'zim ojiz bir narsa bo'lsam. Xudo yetti pushting yorug'lik ko'rmasin, muttaham! Agar qaynanang bo'lsa u ham...

*Xlestakov.* Xo'p, xo'p. Sen nima deysan? (*Kampirni kuzatadi*)

*Slesar xotini* (chiqa turib). Esingizdan chiqmasin, rahm-shafqat qiling, to'ram.

*Unter-ofitser xotini.* Hokimning dastidan dod degani keldim, to'ram...

*Xlestakov.* Xo'p, nima gap? Gapni qisqaroq qil.

*Unter-ofitser xotini.* Meni urdi, to'ram.

*Xlestakov.* Nega?

*Unter-ofitser xotini.* Yanglishib, to'ram. Xotinlar bozorda bir-biri yulgan edi, mirshablar kelib meni olib ketishdi. Hokim meni shunaqa ham urdiki, ikki kungacha ketimni yerga qo'ya olmadim.

*Xlestakov.* Nima qilgin deysan?

*Unter-ofitser xotini.* Endi nima ham qilib bo'lardi. Yanglishib meni urgani uchun shtraf bera qolsin. Taqdirga tan beraman. Hozir pul-dan siqilibroq turibman.

*Xlestakov.* Xo'p, xo'p, boring, boring. Aytib qo'yaman.

Derazadan yordam so'ragan ko'l chiqadi.

Yana kim u? (*Deraza oldiga keladi*). Yo'q, yo'q, kerak emas. (*Deraza oldidan keta turib*.) Jonimga ham tegdi. Kirgizma Osip!

*Osip* (*derazadan qichqirib*). Boringlar, boringlar! Hozir vaqt emas, ertaga kelinglar.

Eshik ochiladi, dag'al materialdan shinel kiygan, soqoli o'sib ketgan, lablari shishgan, lunji bog'langan bir odam ko'rindi.

Uning ketida yana bir necha kishi namoyon bo'ladi.

*Osip.* Yo'qol, yo'qol! Qayoqqa suqula yotibsan! (*Uning qornidan itarib o'zi ham birga chiqadi va eshikni yopadi*.)

## XII MAJLIS

*Xlestakov, Marya Antonovna.*

*Marya Antonovna.* Voy!

*Xlestakov.* Nega mucha qo'rqib ketdingiz, oyimqiz?

*Marya Antonovna.* Yo'q, qa'rqqanim yo'q.

*Xlestakov* (*tavozi bilan*). Meni o'shanaqa odam o'rniда ko'rib, muchalik izzat-ikrom qilganlaring uchun minnatdorman, oyimqiz. Mumkinmi, qayoqqa ketayotgan edingiz?

*Marya Antonovna.* Hech qayoqqa ketayotganim yo'q.

*Xlestakov.* Nega hech qayoqqa ketmayotgan edingiz?

*Marya Antonovna.* Oyim shu yerdamikinlar deb kirgan edim...

*Xlestakov.* Yo'q, nega hech qayoqqa ketmayotgan edingiz, shuni aytинг?

*Marya Antonovna.* Men sizga halal berdim... Zarur ishlar bilan band edingiz.

*Xlestakov* (*tavozi bilan*). Sizning ko'zlaringiz har qanaqa zarur ish-dan ham zarurroq. Siz hech qachon menga halal bermaysiz, aksincha, rohat bag'ishlaysiz.

*Marya Antonovna.* Muncha chiroqli gapirasiz.

*Xlestakov.* Sizday jonon qizga... Sizga stul qo'yib berish sharafiga noil bo'lgani haddim sig'armikan? Yo'q, sizni stulga emas, taxtga o'tqazish kerak.

*Marya Antonovna.* Voy, hayronman... Ishim zarur edi-ku!  
(O'tiradi.)

*Xlestakov.* Ro'molchangiz muncha ham chiroyli.

*Marya Antonovna.* Sizlar, poytaxt odamlari, bizdan kulasizlar-da.

*Xlestakov.* Qani endi, ro'molcha bo'l sam-u oppoqina bo'yningizga o'rilib olsam.

*Marya Antonovna.* Tushunmayapman, nima deyapsiz o'zingiz, ro'molcha deysiz... Bugun havo allanechuk?

*Xlestakov.* Sizning lablaringiz oldida har qanaqa havo o'taversin.

*Marya Antonovna.* Siz ha deb shunaqa gaplarni gapiraverasiz... Undan ko'ra albomimga biron g'azal yozib bersangiz bo'lmaydimi? G'azalni ko'p bilsangiz kerak.

*Xlestakov.* Sizning uchun hamma narsaga tayyorman. Qanaqa g'azal yozib beray?

*Marya Antonovna.* Biron yaxshi, yangi g'azal bo'lsin.

*Xlestakov.* G'azal ham gapmil! G'azalni ko'p bilaman.

*Marya Antonovna.* Qanaqa g'azal yozib berasiz, aytin-chi.

*Xlestakov.* Aytib nima qilaman. Aytmasam ham bilaman.

*Marya Antonovna.* Men g'azalni yaxshi ko'raman...

*Xlestakov.* Qaysi birini o'qib bersam ekan... Xo'p, shunisini o'qib beray: «G'ussada falakdan shikoyat etma» va hokazo. Bosh-qasi esimdan chiqibdi. Xayr, mayli. Bundan ko'ra sizga muhabbatimni, ko'zlariningizga shaydo bo'lqanimni aytay. (*Stulni unga tomon suradi.*)

*Marya Antonovna.* Muhabbat? Men muhabbatni bilmayman. Men muhabbatni ko'rgan emasman. (*Stulni orqaga suradi.*)

*Xlestakov.* Nega mendan qochasiz? Ikkovimiz yaqinroq o'tirganimiz yaxshi.

*Marya Antonovna* (*stulni orqaga surib*). Nima qilamiz yaqin o'tirib? Uzoq o'tirsak ham bo'laveradi.

*Xlestakov* (*stulni yaqinroq surib*). Nega uzoq o'tirar ekanmiz, yaqinroq o'tirsak ham bo'laveradi.

*Marya Antonovna* (*stulni orqaga suradi*). Nima keragi bor?

*Xlestakov* (*yaqinroq surilib*). Sizga yaqin ko'rinishgandir-da, bo'lmasa uzoq o'tiribmiz. Sizni bag'rimga bossam qanday yaxshi bo'lar edi.

*Marya Antonovna* (*derazaga qarab*). Bir nima uchdi shekilli? Hakkami yo biron boshqa qushmi?

*Xlestakov* (*uning yelkasidan o'pit derazaga qaraydi*). Hakka.

*Marya Antonovna (gazab bilan o'rnidan turadi).* Bu nimasi!.. Shunaqa ham bezbet bo'ladimi kishi!..

*Xlestakov (uni tutib).* Kechirasiz, oyim qiz, yaxshi ko'rganimdan o'pdim, yaxshi ko'rganimdan.

*Marya Antonovna.* Siz meni shunaqa provinsial qiz deb o'ylaysizmi? (*Ketmoqchi bo'ladi.*)

*Xlestakov (qo'yib yubormaydi).* Yaxshi ko'rganimdan o'pdim, yaxshi ko'rganimdan. Hazillashdim, Marya Antonovna, xafa bo'lman. Tiz cho'kib uzr so'rashga tayyorman. (*Tiz cho'kadi.*) Kechiring, kechiring. Mana, tiz cho'kib so'rayman.

### XIII MAJLIS

*Shular va Anna Andreevna.*

*Anna Andreevna (Xlestakovni tiz cho'kkан holda ko'rib).* Voy, bu nimasi!

*Xlestakov (turib).* Obbo!

*Anna Andreevna (qiziga).* Bu nima qilganingiz, oyim qiz, bu nima qiliq?

*Marya Antonovna.* Oyijon, men...

*Anna Andreevna.* Yo'qol! Yo'qol deyman, yo'qol! Ko'zimga ko'rningma! (*Marya Antonovna yig'lab chikib ketadi.*) Kechirasiz, men juda hayron bo'lib qoldim...

*Xlestakov (chetga).* Bu ham yomon emas, joyida. (*Tiz cho'kadi.*) Xonim, muhabbat yurak-bag'rimni o'rtab yuboryapti.

*Anna Andreevna.* Voy, nahot tiz cho'ksangiz! Turing, turing o'rningizdan. Pol juda iflos.

*Xlestakov.* Yo'q, tiz cho'kkanim-cho'kkan. Peshanamga bitganini ayting: hayotmi, mamotmi — shuni bilmochiman.

*Anna Andreevna.* Kechirasiz, tushunolmayotibman. Siz qizimning qo'lini so'ramoqchimisiz?

*Xlestakov.* Yo'q, o'zingizga oshiqman. Hayotim qilga osilib turibdi. Agar muhabbatimga iltifot qilmasangiz dunyoda turmaganim yaxshiroq. Ishqingizda o'rtaшиб, qo'lingizni so'rayotibman.

*Anna Andreevna.* Axir mening erim borga o'xshaydi-ku.

*Xlestakov.* Hech qisi yo'ql! Muhabbat deganda buning farqi yo'q. Karamzin «Qonunga sig'masa ko'ngilga sig'adi» degan. Qo'lingizni so'rayman, qo'lingizni.

## XIV MAJLIS

*Shular va Marya Antonovna (yugurib kiradi).*

**Marya Antonovna.** Oyijon, dadam aytdilarki... (*Xlestakovni tiz cho'kkан holida ko'rib qichqiradi.*) Voy, bu nimas!

**Anna Andreevna.** Ha mucha? Nima deysan? O'zi nima gap? Bu qanaqa betamizlik? Hovliqqanini qara-yu? Nimaga mucha esing ketdi? Nima qipti? Nima deb o'ylanding? Xuddi yosh bolaga o'xshaydiya, kim aytadi seni o'n sakkizga kligan qiz deb? Qachon esing kirdi? Kim aytadi seni yaxshi tarbiya ko'rgan qiz deb? Adab degan narsani qachon o'rganasan?

**Marya Antonovna (yig'lamsirab).** Bilmabman, onajon...

**Anna Andreevna.** Bilmadim, yengil-yelpi qiliqlaring qachon qolar ekan! Lyapkin-Tyapkinning qizlaridan sen ibrat olasan. Nainki o'shalarga ta'sib qilsang. Ulardan ibrat olma, boshqalardan ibrat olgin. Mana, onangdan ibrat ol, oningga ta'sib qil!

**Xlestakov (qizning qo'lidan ushlab).** Anna Andreevna, baxtimizning yo'llini to'smang, fotiha bering, qo'sha-qariylit.

**Anna Andreevna (xayron bo'lib).** E, siz buni...

**Xlestakov.** Ayting hukmingizni: yo hayot, yo mamot!

**Anna Andreevna.** Mana, ko'rdingmi, esi past. Sen rasvoni deb shunday aziz mehmon tiz cho'kib turibdi! Sen bo'sang jinniga o'xshab chopib yuribsan. Shu qilganingga jo'rttaga yo'q deyman: sen bunday odamga munosib emassan.

**Marya Antonovna.** Endi qilmayman, onajon, xudo ursin, qilmayman.

## XV MAJLIS

*Ushalar va Hokim shoshib kiradi.*

**Hokim.** Janob to'ram, rahm qiling, shafqat qiling.

**Xlestakov.** Nima bo'ldi?

**Hokim.** Savdogarlar mening ustimdan janoblariga arz qilishibdi. Azbaroyi xudo bular aytgan gaplarning yarmi ham rost emas. Bularning o'zları xalqni aldashadi. Unter-ofitserning xotini yolg'on gapiradi, men uni urGANIM yo'q, xudo haqi yolg'on, o'zi-o'zinı urg'an.

**Xlestakov.** Ming la'nat o'sha xotinga! Hozir bunaqa gaplar qulog'imga kirmaydi.

**Hokim.** Ishonmang, ishonmang. Hammasi yolg' onchi... Bularning gapiga yosh bola ham ishonmaydi. Bularning yolg' onchiligi butun shaharga ma'lum. Tovlamachilik xususiga kelganda bunaqa tovlamachi olamga kelgan emas.

**Anna Andreevna.** Hoy, bilasanmi, Ivan Aleksandrovich, boshimizni osmonga yetkazdilar: qizimizning qo'lini so'rayaptilar.

**Hokim.** Hoy! Hoy! Esingni yedingmi? Xafa bo'l mang, to'ram: buning esi shunaqa, kirdi chiqdiroq, onasi ham shunaqa edi.

**Xlestakov.** To'g'ri, qizingizning qo'lini so'radim, yaxshi ko'rib qoldim.

**Hokim.** Ishonmayman, to'ram!

**Anna Andreevna.** O'zлari aytib turibdilar-ku, axir!

**Xlestakov.** Men hazillashganim yo'q, muhabbat dardida devona bo'lib qolishim mumkin.

**Hokim.** Ishonmayman, to'ram. Bunday sharafga loyiq emasman.

**Xlestakov.** Agar Marya Antonovnani bermasangiz, azboroyi xudo...

**Hokim.** Ishonmayman, hazillashyapsiz, to'ram.

**Anna Andreevna.** Muncha galvars bo'imasang! Gapga tushunasanmi?

**Hokim.** Ishonmayman.

**Xlestakov.** Bering, bering! Achchig'im tez odamman: hech narsadan qaytmayman, o'zimni otib qo'ysam sudga tushaasiz.

**Hokim.** Xudo haqi, mening hech gunohim yo'q. g'azab qilmang. O'zлari biladilar, nima qilsalar ixtiyorlari. Kallam g'ovlab qoldi, nima bo'layotganini bilmayman. Umrinda bunday ahmoq bo'lgan emasman.

**Anna Andreevna.** Fotiha ber.

**Xlestakov** Marya Antonovnaning oldiga keladi.

**Hokim.** Xudoyo baxtlaringni bersin, qo'sha qaringlar. Mening hech gunohim yo'q.

**Xlestakov** Marya Antonovna bilan o'pishadi. **Hokim** ikkoviga qaraydi.

Tushummi, o'ngimmi? Rostdan-a! O'pishyapti-ya! Rostdan ham o'pishayotibdi. Xuddi kuyov-a. (Xursandlikdan irg'ishlaydi, qichqiradi.) Hoy Anton! Hoy Anton! Hoy Hokim! Endi pichog'ing moy ustida.

## XVI MAJLIS

### *Shular va Osip.*

**Osip.** Otlar tayyor.

**Xlestakov.** Xo'p, yaxshi... Hozir.

**Hokim.** Nima, ketmoqchimilar?

**Xlestakov.** Ha, hozir ketmoqchiman.

**Hokim.** Bo'lmasa qachon, masalan... Janoblari to'y to'g'risida bir nima deganday bo'lgan edilar-ku?

**Xlestakov.** Ha bu... birpas, bir kungagina amakimning oldiga borib kelaman. Mo'ysafid, boy odam. Ertagayoq qaytiib kelaman.

**Hokim.** Sog'-salomat borib kelishlari umidida janoblarini yo'l-dan qo'ymaymiz.

**Xlestakov.** Albatta, albatta, darrov kelaman. Xayr, suygan yorim, yuragimning... nimasi desam ekan! Xayr, jonginam! (*Qo'lini o'padi.*)

**Hokim.** Yo'lga biron narsa kerakmasmi? Kam xarjroq edilar shekilli?

**Xlestakov.** Yo'q, hojati yo'q. (*Bir oz o'yab.*) Lekin kam xarjroqman.

**Hokim.** Qancha kerak?

**Xlestakov.** Ana unda ikki yuz so'm, ikki yuz so'm emas, to'rt yuz bergen edingiz — men yanglishganingizdan foydalanmokchi emasman — yana to'rt yuz so'm bera qoling, rosa sakkiz yuz so'm bo'lsin.

**Hokim.** Hozir. (*Hamyonidan chikaradi.*) Satta yangi pullar qol-gan ekan-da.

**Xlestakov** (*pulni olib karaydi*). Yaxshi, yangi pul yangi baxt kelti-radi, deyishadi, shunday emasmi?

**Hokim.** Shunday...

**Xlestakov.** Xayr, Antonovich! Mehmondorchililingiz uchun ko'pdan-ko'p minnatdorman. Men hech qaerda bunday siylangan emasman. Xayr, Anna Andreevna! Xayr, jonim Marya Antonovna!

### Chiqadilar.

### Sahna orqasida

**Xlestakov tovushi.** Xayr! Farishtam, xayr, Marya Antonovna!

**Hokim tovushi.** Nahot shunday shaldiroq aravada yursangiz.

**Xlestakov tovushi.** Shunga o'rjanib qolganman. Arava shaldirama-sa boshim og'riydi.

*Aravakash tovushi.* Pir...

*Hokim tovushi.* Hech bo'lmasa gilam to'shaylik. Aytaymi, gilam olib chiqsinmi?

*Xlestakov tovushi.* Yo'q, nima keragi bor? Xayr, mayli, gilam olib chiqa qolsin.

*Hokim tovushi.* Hoy, Avdotya, chop, omborga kirib eng yaxshi gilamdan bittasini olib chiq. Eron gilamini olib chiqa qol.

*Aravakash tovushi.* Pir...

*Hokim tovushi.* Janoblarini qachon kutaylik?

*Xlestakov tovushi.* Erta yo indinga.

*Osip tovushi.* Bu gilam mi? Bu yoqqa ber. Bu yoqqa qo'y. Bu yog i-ga poxol to'sha.

*Aravakash tovushi.* Pir...

*Osip tovushi.* Bu yoqqa, mana bu yog iga! Yaxshi! Ko'p soz bo'ldi (gilamni shappalaydi). Mana endi o'tiring, to'ram.

*Xlestakov tovushi.* Yaxshi qoling, Anton Antonovich!

*Hokim tovushi.* Yaxshi borsinlar, to'ram.

*Xotinlar tovushi.* Xayr, Ivan Aleksandrovich!

*Xlestakov tovushi.* Xayr, onajon. Aravakash tovushi. Ha, chu, jonivor!

Qo'ng'iroq jiringlaydi.

## PARDA

# BESHINCHI PARDA

## O'SHA BO'LMA

### I MAJLIS

*Hokim, Anna Andreevna, Marya Antonovna*

*Hokim.* Xo'sh, Anna Andreevna, qalay deysan? A? Shunday bo'lar deb hech o'ylaganmiding? Omadni qara-ya! Omadni! Rostini ayt: tushingga ham kirmagandir deyman? Kichkinagina bir uyezd hokimining xotini shunday ulug' odamga qaynana bo'lib qolsa-ya!

**Anna Andreevna.** Hech-da! Men shunday bo'lishini allaqachonlar bila redim. Bu senga shunaqa allanima balo bo'lib ko'rindi-da, chunki o'zing to'pori odamsan, umringda durustroq odamni ko'rganing yo'q.

**Hokim.** O'zim ham-ku durust odamman-a, xotin, lekin, bunday o'ylab qarasang, rostdan ham juda kattadan ketdik. Nima deding, juda balandparvoz bo'lib ketdik. Shoshma hali, ustimdan ariza bergenlar, chaqimchilik qilganlarni maymunday o'ynataman. Hoy, kim u? (*Mirshab kiradi*.) E, senmisan, Ivan Karpovich. Qani, uka, savdogarlarni bu yoqqa aytib kel-chi. Men bularning bir tobini olib qo'yay! Hali meni ustimdan arz qiladiganmi bular! Voy urug'ing qurg'ur ko'rnamaklar-ey! Shoshmay tur hali hammang! Shu vaqtgacha mendan ko'rganlaring bir davlat edi, mana endi ko'r! Sen mening ustimdan ariza ko'tarib kel-ganlarning nomini yozib ol, uka, hammadan ham shu arizalarni bitib bergenlarni xatga ol. Undan keyin hammaga ayt: Hokimga toza xudo berib qoldi: qizini shunaqa ham katta odamga berdiki, nari yog'i yo'q, endi har ish qo'lidan keladi degin! Hammaga ayt, bilmagan odam qolmasin. Ko'chaga chiqib jar sol, dovul ur! To'y to'ydak bo'lsin. (*Mirshab ketadi*.) Anna Andreevna, nima deding! Xo'sh, endi qaerda turamiz? Shu yerda turamizmi, Peterburgda turamizmi?

**Anna Andreevna.** Albatta Peterburgda turamiz-da, bu yerda turib bo'ladiimi!

**Hokim.** Xo'p, Peterburgda desang Peterburgda turamizda; ammo shu yerning o'zida tursak ham yomon bo'lmasdi. Ketadigan bo'lsak hokimlikning bahridan o'tamiz-da, a, Anna Andreevna?

**Anna Andreevna.** Albatta, hokimlik ham ish bo'ldi-yu!

**Hokim.** Endi, deyman, Anna Andreevna, kattaroq bir amalni o'marsak ham bo'lar. Nega desang kuyovimiz hamma ministrlar bilan og'ayni, har kuni saroyga borib turadi. Shunday bo'lgandan keyin bir yo'lini qilar, vaqt kelib general bo'lib ham ketarman. Qalay deysan, Anna Andreevna? General bo'larmikinman?

**Anna Andreevna.** Bo'lmasa-chil Albatta!

**Hokim.** Qurg'ur, generallik zap ishda! Ko'kragingga lenta taqib qo'yishadi. Lentaning qaysisi tuzuk, Anna Andreevna qizilimi, ko'kimi?

**Anna Andreevna.** Ko'ki tuzuk-da, albatta.

**Hokim.** O'ho', ishtahang joyida-ku! Qizili bo'lsa ham jon degin. Nega general bo'ling keladi degin! Negaki, biron yerga borguday bo'lsang feidegerlar, adyutantlar oldingda ot chopib borib, «Otni tayyorlab turinglar!» deydi. Bekatda otni hech kimga berishmaydi; tutulyari bormi, kapitani bormi, hokimi bormi — hammasi qarab qolaveradi.

**Hech narsaning tashvishini tortmaysan. Ovqatni biron gubernator-nikida yeysan, hokim qo'l qovushtirib turadi. Xe-xe-xe! (Kula berib qotib qoladi.) Buni qara-ya, zor qolgor!**

**Anna Andreevna.** Sen nuqul shunaqa narsalarni o'ylaysan. Sen shuni esingdan chiqarmaginki, turish-turmushingni butkul o'zgartirishing kerak, ulfatlarining ham Zemlyanika yoki sen bilan quyon ovlab yuradigan ana shu it jinnisi sudyaga o'xshagan odamlar bo'l-maydi; aksincha, sening ulfatlarining shirin so'z graflar, aslzodalar bo'ladi... Lekin sendan xavotirman-da: ba'zan og'zingdan shunaqa gaplar chiqib ketadiki, bunaqa gapni durust odamlarning suhbatida hech qachon eshitmaysan kishi.

**Hokim.** Nima qipti? Gapning ziyoni yo'q.

**Anna Andreevna.** Hokim ekaningda-ku mayli-ya, u yoqda turmush boshqacha bo'ladi-da.

**Hokim.** Ha, aytganday, u yoqda juda g'alati baliqlar bor, yeganda odamning so'laklari oqib ketadi deyishadi.

**Anna Andreevna.** Sening fikr-yoding baliqda! Mening orzum shuki, uyimiz butun poytaxtda birinchi bo'lsin, undan shunaqa xushbo'y xidlar anqisinki, kirib bo'lmasin, kirgan kishining ko'zлari mana shunaqa suzilib ketsin (*ko'zini suzadi*). Oh-oh, qani endi!

## II MAJLIS

### *Hалигилар ва савдоғарлар.*

**Hokim.** Ha! Salom, lochinlarim!

**Savdogarlar (ta'zim qilib).** Salomat bo'lsinlar, qiblagohimiz!

**Hokim.** Xo'sh, qo'zichoqlarim, ahvollaring qalay? Mollar o'tayotib-dimi? Xo'sh, samavorfurushlar, bazzozlar, hali arz qiladigan ham bo'lib qoldilaringmi? Ha, tovlamachilar, qalloblar! Arz qiladigan ham bo'ldilaringmi? Arzlariningdan nima chiqdi? Buni darrov qamab qo'yadi deb edilaringmi? Hu arvoh urgurlar, ajina chalgurlar!..

**Anna Andreevna.** Voy xudoym-yeys! Gaplaringni qara-ya, Antosha!

**Hokim (norozi bo'lib).** Hozir og'zimga kelganini aytaveraman! O'sha sizlar arza bergen chinovnik mening qizimni olayotibdi-ya, bilasizmi? A? Endi nima deysizlar? Mana endi men sizlarni... Hu!.. Xaloyiqni aldaysan... Podsholikdan pudrat olasan-u chirik movut berib, xazinani yuz ming tushirasen. Keyin yigirma gaz movutni iona qilib, yana bunga mukofot ham ta'ma qilasan! Buni bilib qolishsa-ku, seni...

tag' in qornini chiqarib kerilib ham yuradi bu kishi savdogar, tegmanglar emish! «Biz dvoryanlardan qolishmaymiz» emish. Dvoryan... ha, turqing qursin! Dvoryan ilm o'rganadi: u matabda kaltak yesa ham bekorga kaltak yemaydi, ilm yo'lida kaltak yeydi. Sen-chi? Firibgarlik qilasan, xo'jayining ursa aldashni bilmaganing uchun uradi. Hali go'daksan, tiling duoga kelmaydi-yu, gazlama o'lchaganda odamlarni aldaysan. Qorning shishib cho'ntaging to'lsa, darrov o'zingda yo'q, kerilib, ketasan. Hu, tovlamachi! Kuniga o'n oktita samavor o'tkazaman deb kattalik qilasanmi? Tfu, o'sha kattaligingga ham-u, basharangga ham!

**Savdogarlar** (*ta'zim qilib*). Bizdan o'tibdi, Anton Antonovich!

**Hokim.** Hali arz qiladigan ham bo'ldilaringmi? Ko'prik solganin-gda yuz so'mlik kelmaydigan yog'ochni yigirma ming so'mlik deb yozganingda senga kim yordam bergen edi? Men edim, echki soqol! Esingdan chiqdimi? O'shanda bir og'iz aytib, seni Sibir qilib yuborish qo'limdan kelar edi! Yo'qmi?

**Bir savdogar.** Xudo o'zi kechirsin, Anton Antonovich! Shayton yo'ldan urdi. Minba'd arz qilmaymiz, o'zimiz sizni xursand qilamiz, ishqilib achchig'ingizdan tushing.

**Hokim.** Achchig'ingizdan tushing emish! Mana endi oyog'im os-tida yotibsan. Nega? Chunki mening qo'lim yuqori. Bordi-yu, ozgina sening qo'ling yuqori ketganda, sen la'nat, meni balchiqqa ti-qar eding, ustimga xari ham bostrib qo'yar eding.

**Savdogarlar** (*oyog'iga yiqilib*). Rahm qiling, Anton Antonovich!

**Hokim.** Rahm qiling emish! Endi «Rahm qiling» emish! Endimi! Men hammangni... (*qo'l siltab*) xayr, xudoga soldim, mayli. Men kek saqlaydigan odam emasman. Lekin bundan keyin qadamingni bilib bos. Men qizimni anchayin bir dvoryanga berayotganim yo'q, qulluq bo'lsinga dasturxonni katta qilib kelinglar... Baliq-maliq yo bo'lmasa, bitta kallaqand bilan qutulmaysizlar... Xayr, boringlar.

**Savdogarlar** chiqib ketishadi.

### III MAJLIS

*Haltgilar, Ammos Fyodorovich, Artyomiy  
Filippovich, undan keyin Rastakovskiy kiradi.*

**Ammos Fyodorovich** (*kirayotib*). Mish-mishlar rostmi, Anton Antonovich? Sizga katta baxt nasib bo'libdimi?

**Artyomiy Filippovich.** Katta baxt qulluq bo'lsin, eshitib chin ko'n-glimdan xursand bo'ldim. (*Anna Andreevnating qo'lini oladi.*) Anna Andreevna (*Marya Antonovnating qo'lini oladi*) Marya Antonovna!

**Rastakovskiy.** Qulluq bo'lsin, Anton Antonovich, sizga ham, ke-lin bilan kuyovga ham xudo umr bersin. Zurriyotingiz behisob bo'l-sin, nevara-chevara ko'ring! Anna Andreevna! (*Qo'lini oladi.*) Marya Antonovna! (*Qo'lini oladi.*)

#### IV MAJLIS

*Haligilar, Korobkin xotini bilan, Lyulyukov*

**Korobkin.** Qu'lluq bo'lsin, Anton Antonovich! Anna Andreevna! (*Uning qo'lini oladi.*) Marya Antonovna! (*Uning ham qo'lini oladi.*)

**Korobkinning xotini.** Qu'lluq bo'lsin, Anna Andreevna, baxtingiz muborak.

**Lyulyukov.** Muborak bo'lsin, Anna Andreevna! (*Qo'lini oladi va zalga karab og'zining ta'mini oladi.*) Marya Antonovna! Qu'lluq bo'lsin! (*Uning ham ko'lini oladi va zalga qarab yana og'zining ta'mini oladi.*)

#### V MAJLIS

Syurtuk va frak kiygan ko'p mehmonlar avval *Anna Andreevnating, so'ngra Marya Antonovnating qo'lini olib, har qaysisining nomini aytib ko'rishadilar. Bobchinskiy bilan Dobchinskly bir-birini itarishib, chopib kiradi.*

**Bobchinskiy.** Muborak bo'lsin.

**Dobchinskiy.** Anton Antonovich, muborak bo'lsin!

**Bobchinskiy.** Xushxabar muborak bo'lsin!

**Dobchinskiy.** Anna Andreevna!

**Bobchinskiy.** Anna Andreevna! (*Ikkovi baravar uning oldiga kelib, peshanasini bir-biriga urib oladi.*)

**Dobchinskiy.** Marya Antonovna (*ko'lini oladi*). Muborak bo'lsin. Endi iqbolingiz juda-juda baland bo'ladi, zar ko'yaklar kiyasiz, g'ala-ti sho'rvalar ichasiz, umringizni aysh-ishratda o'tkazasiz.

**Bobchinskiy (uning so'zini kesib).** Marya Antonovna, muborak bo'lsin! Xudo davlatlaringizni ziyoda qilsin, behisob oltinlar ato qilsin,

*mana shundoqqina (ko'lli bilan ko'rsatib) kaftga o'tqizsa bo'ladigan o'g'ilcha bersin. Chaqaloq «ingga-inggal» desin.*

## VI MAJLIS

*Yana bir necha mehmon kelib qo'l oladi.  
Luka Lukich xotini bilan.*

*Luka Lukich. Muborak...*

*Luka Lukichning xotini (oldin yugurib). Qutlug' bo'lsin, Anna Andreevna! (O'pishadilar.) Shunaqa ham sevindimki, «Anna Andreevna qizini chiqaryapti» deyishdi, sevinganimdan bu kishiga «Voy, xudoyim», — dedim, «menga qara, Lukanchik, Anna Andreevnating omadini qara-ya!» Ichimda «xudoga shukur» deb, bu kishiga «borib Anna Andreevnaga xursandligimni aytmasam asti iloji yo'q, sevinganimdan terimga sig'may ketayotibman» dedim, «Voy xudoyim-yey, — deyman ichimda — Anna Andreevna qizginasiga munosib bir kuyovni orzu qilar edi, xuddi o'zi orzu qilgan kuyov peshanasiga bitibdi». Shunday ham sevindimki, gapirolmay qoldim, nuqul yig'layman deng. Luka Lukich «nega yig'laysan, Nastenka?» deydi. «Bilmasam — deyman — nega yig'laganimni o'zim ham bilmayman, ko'zimdan yosh duv-duv to'kiladi».*

*Hokim. Janoblar, marhamat qilinglar o'tiringlar. Hoy, Mishka, stuldan ko'proq olib kel!*

*Mehmonlar o'tiradilar.*

## VII MAJLIS

*Haligilar, pristav va mirshablar*

*Daha pristavi. Qutlug' bo'lsin, to'ram. Umringiz uzoq bo'lsin, davlattingiz ziyoda bo'lsin.*

*Hokim. Rahmat, rahmat! O'tiringlar, janoblar!*

*Mehmonlar o'tirishadi.*

*Ammos Fyodorovich. Qani, Anton Antonovich, bu ishlar qanaqa bo'lib shunday bo'lib qoldi, qanday bo'ldi?*

**Hokim.** Juda favqulodda ish bo'ldi: qizni u kishi o'z og'izlari bilan so'radilar.

**Anna Andreevna.** Juda mulozimat bilan, xo'p izzatimizni joyiga qo'yib so'radilar, hamma gapni juda maromi bilan gapirdilar, «Men, Anna Andreevna, sizga hurmatim tufaylidan shunday qilmoqchiman» dedilar. Biram yaxshi, biram tarbiya ko'rgan, nazokatli odam ekanlarki, nimasini aytasiz! «Ishonasizmi, Anna Andreevna, menga hayot bir chaqa; sizning noyob fazilatlariningizni hurmat qilaman» deydilar.

**Marya Antonovna.** Voy, onajon, bu gaplarni menga aytgan edilarku.

**Anna Andreevna.** Tek tur, sen bunaqa gaplarga tushunmaysan, aralashma. «Men hayratdaman, Anna Andreevna» deydilar. Endi shunaqa ham shirin so'zki... Bunaqa hurmat umidida bo'lishga sira haddimiz yo'q demogchi edim, birdan tilz cho'kib, xudoning zorisini qildilar: «Anna Andreevna, meni baxti qaro qilmang, ko'nnglimning zorini tinglang, bo'lmasa o'zimni o'zim o'ldiraman» dedilar.

**Marya Antonovna.** Onajon, bu gaplarni mening to'g'rimda aytди-ku?

**Anna Andreevna.** Albatta... Sening to'g'ringda ham shunaqa dedi. Men aytmadi deyayotganim yo'q.

**Hokim.** Hatto bizni qo'rqtib yubordilar: «O'zimni o'zim otaman, otaman!» dedilar.

**Mehmonlar ko'pi.** Buni qarang-a!

**Ammos Fyodorovich.** O'h-ho!

**Luka Lukich.** Toledo, toleni qarang-a!

**Artyomiy Filippovich.** Tole nimasi, yaxshi xizmatning samarasи, (chetga) baxt nuqlu mana shunaqa cho'chqaning og'ziga o'zini uradi.

**Ammos Fyodorovich.** Anton Antonovich, mening ana u itimga og'iz solgan edingiz, endi ola qoling. Mayli, sotsam sotay.

**Hokim.** Yo'q, hozir bunaqa gaplar qulog'imga kirmaydi.

**Ammos Fyodorovich.** Bu bo'lmasa, boshqasi sizdan aylansin.

**Korobkinning xotini.** Voy-voy-voy, Anna Andreevna. Bu omadiningza sevinganimni bilsangiz! Sira aytgundai emas.

**Korobkin.** Aziz mehmonning o'zları hozir qaerdalar? Allaqaqyoqqa ketdilar deb eshitdim.

**Hokim.** Ha, bir kunlik juda zarur ishlari bor ekan, shunga ketdilar.

**Anna Andreevna.** To'y qilgani amakisidan fotiba olgani ketdi.

**Hokim.** Fotiha olgani ketdilar, ertagayoq... (Chuchkiradi. Hamma «Salomat bo'lsinlar!» deydi.) Rahmat, ertagayoq qaytib keladilar... (Yana chuchkiradi, yana hamma shuni aytadi, boshqa tovushlar ham eshitiladi.)

**Daha pristavi.** Salomat bo'lsinlar, to'ram!

*Bobchinskiy.* Yuzga kirsinlar, qop-qop oltinlar ato qilsin.

*Dobchinskiy.* Mingga kirsinlar!

*Artyomiy Filippovich.* Harom o'll

*Korobkinning xotini.* Xudo ko'tarsin!

*Hokim.* Qulluq! Sizlarga ham xudo umr bersin.

*Anna Andreevna.* Biz endi Peterburgda turmoqchimiz. Bu yerning havosi, rostini aytsam, shunday havoki... Qishloq havosida... Rostini aytsam, hech yoqmaydi... Dadasi ham u yerda... general bo'ladi.

*Hokim.* Shunday, janoblar, to'g'risini aytsam, general bo'lishga juda-juda ko'nglim sust ketadi.

*Luka Lukich.* Ilohim bo'ling!

*Rastakovskiy.* Bandasining qo'llidan kelmaydi xolos, xudo xohlasa hammasi ham bo'laveradi.

*Ammos Fyodorovich.* Katta kemaga katta safar munosib.

*Artyomiy Filippovich.* Xizmatga yarasha hurmat.

*Ammos Fyodorovich (chetga).* General bo'lsa ham rosa g'alati general bo'lsa kerak, sigirga to'qim urgandek xo'p yarashar! Eh, hali bu qayeqda-yu generallik qayeqda. U yerda sendan tuzukroq odamlar ham bor, hali general bo'lgan emas.

*Artyomiy Filippovich (chetga).* Obbo la'nati-yey, general bo'l-gisi ham bor! Bo'lsa bo'laveradi ham. Qurg'urning savlati general bop! (*Unga.*) O'shanda, Anton Antonovich, bizni ham esingizdan chiqarmang.

*Ammos Fyodorovich.* Maboda biron kor-hol bo'lsa, chunonchi, biron hojatimiz tushib qolsa marhamatingizni darig' tutmang.

*Korobkin.* Kelasi yil o'g'limni poytaxtga — podsholik xizmatiga eltmoqchiman. Shunda yigitchani o'z bolangizday ko'rib, qo'llab yuborasiz-da.

*Hokim.* Qo'limdan kelganini ayamayman.

*Anna Andreevna.* Antosha, sen hamisha shunaqa va'da berib yurasan, avvali shuki, bu to'g'rida o'ylagani qo'ling tegmaydi. Shunaqa va'dalar berib, ortiqcha tashvish orttirishning nima hojati bor?

*Hokim.* Nega axir, jonim? Ba'zan mumkin.

*Anna Andreevna.* Mumkin, albatta, lekin har qanaqa xashaki odamlarni qo'llay berish nimas!

*Korobkinning xotini.* Eshitdingizmi, bizning sha'nimizga nima deyapti bu kishi?

*Mehmon xotin.* Nima ham deysiz. Bu kishining bo'lgan bitgani shu; mujikka son tegsa, avliyotlik davo qiladi.

## VIII MAJLIS

*Haligilar va pochta mudiri, qo'lida ochiq xat, hovliqib kiradi.*

**Pochta mudiri.** G'atali ish chiqib qoldi, janoblar! Biz revizor deb o'ylagan chinovnik revizor emas ekan.

**Hamma.** Nega? Nechuk?

**Pochta mudiri.** Hech ham revizor emas ekan, men mana bu xatdan bildim.

**Hokim.** Gapirmang-yey, gapirmang! Qanaqa xat?

**Pochta mudiri.** O'zi yozgan xat. Menga shu xatni olib kelib berishdi. Adresiga qarasam «Pochtamt ko'chasi» debdi. Yuragim orqamga urib ketdi, «obbo, pochta ishlaridan chatoqlik topib boshlig'imizga ma'lumot berayotibdi» deb o'yladim-u, xatni ochdim.

**Hokim.** Nega ochdingiz?

**Pochta mudiri.** O'zim ham bilmay qolibman, g'ayritabiyy bir kuch qo'ymadni. Berib yuboray deb kurerni ham chiqargan edim, ammo nimalar yozdi ekan deb shunaqa ham qiziqdirmi, asti qo'ying! Hech o'zimni tlyolmadim, hech tiyolmadim. Shunday yuragim ezi-lib ketaverdi. Bir ko'nglim «Hoy ochma! Ochma! Baloga qolasan» dedi; bir ko'nglim «och, och, och!» dedi. Pechatnibuzi-shim bilan a'zoyi badanimdan o't chiqib ketdi. Ochganidandan keyin muzlab ketdim. Azbaroyi xudo, muzlab ketdim. Qo'llarim titradi, ko'zlarim tinib ketdi.

**Hokim.** Shunday mo'tabar zotning xatini ochgani nechuk haddingiz sig'di?

**Pochta mudiri.** Hamma gap, shunda-da; u mo'tabar ham emas ekan, zot ham emas ekan!

**Hokim.** Bo'lmasa nima ekan?

**Pochta mudiri.** Hech balo emas. Notayin bir mahluq!

**Hokim (achchiqlanib).** Mahluq degani nechuk haddingiz sig'adi, u kishi haqida nojo'ya gaplar aytgani nima haqingiz bor? Men hozir sizni qamoqqa buyuraman...

**Pochta mudiri.** Kim? Sizmi?

**Hokim.** Ha, men!

**Pochta mudiri.** Qo'lingizdan kelmaydi.

**Hokim.** U kishi mening qizimni olmoqchi, men ham katta amalga minaman, men sizni xuddi Sibirning o'ziga eltib tiqib qo'yaman-a, bilasizmi?

**Pochta mudiri.** Ey, Anton Antonovich! Sibir nima o'zi? Sibir uzoq Yaxshisi men sizga mana buni o'qib beray. Janoblar, ruxsat beringlar, xatni o'qib beray.

**Hamma.** O'qing, o'qing!

**Pochtamudiri** (o'qiydi). «Do'stim Tryapichkin, voqeа bo'lган ajib qiziq hodisalarni eshit: yo'lda meni piyoda askar kapitani rosa shilib oldi, shunday qildiki, mayxonaga to'lagani ham hech narsam qolmadi, mayxona egasi meni qamatadigan bo'lган edi, biroq peterburgcha kiyim-boshimni ko'rib, butun shahar meni general gubernator deb o'yładi. Hokimning uyida turibman; dimog'im choq; hokimning xotini bilan qiziga aylanishib yuribman, ammo hali qaysi biridan boshlashni bilmay turibman. Onasidan boshlasam-mikin degan o'yim bor, sababki u hozir nima desam yo'q demaydi-ganga o'xshaydi. Bir vaqtlar ikkovimiz pulsiz qolib, oshxonalar ni tovlab yurganimiz, bir kuni somsani yeb, haqini ingliz podshosi-ning daromadidan beriladi deganimizda somsapaz yoqamdan bo'-g'ib olgani esingda bormi? Hozir ishlar boshqacha. Kimdan qancha qarz so'rasam darrov beradi. Ajoyib kishilar degin: sen bo'lsang kula-kula o'lar eding. Sen maqolalar yozguvchi eding, bu gaplari ni o'sha yozadiganlaringga qistirib o't. Birinchidan hokim ahmoqlikni bo'yincha qilib kiyib olgan.

**Hokim.** Bo'lмаган gap! Bunday degan emas!

**Pochta mudiri** (xatni ko'rsatib). O'zingiz o'qing.

**Hokim** (o'qiydi). «Bo'yincha qilib kiyib olgan», bo'lмаган gap! O'zingiz yozgansiz.

**Pochta mudiri.** Nega men yozaman?

**Artyomiy Filippovich.** O'qing!

**Luka Lukich.** O'qing!

**Pochtamudiri** (davom etadi). «Hokim ahmoqlikni bo'yincha qilib kiyib olgan...»

**Hokim.** Obbo, kasofat-yey. Qaytarib aytishga balo bormi?

**Pochtamudiri** (davom etib). Him-him... him... him «bo'yincha qilib olgan. Pochta mudiri ham yaxshi odam...» (To'xtaydi.) Xayr, me-ning to'g'rimda ham bir nojo'ya gap aytibdi.

**Hokim.** Yo'q, o'qing!

**Pochta mudiri.** Nima keragi bor?

**Hokim.** O'qiladigan bo'lgandan keyin o'qish kerak! Hammasi-ni o'qing!

*Artyomiy Filippovich.* Menga bering, men o'qiy, (*Ko'zoynagini taqib o'qiydi*.) «Pochta mudiri departament qorovuli Mixeevning o'zginasi. Bu ham ablak bo'lsa kerak, nuqul urar ekan».

*Pochta mudiri* (tomoshabinga). Bolasi tushmagur, xo'p ham kaltak bop ekan-da!

*Artyomiy Filippovich* (davom etadi). «Xudoyixonalar mutasaddisi hm... hm...» (tutiladi).

*Korobkin.* Nega to'xtab qoldingiz?

*Artyomiy Filippovich.* Shu yeri badxatraq ekan. O'zi ham yaramas odam ekan-da.

*Korobkin.* Menga bering! Mening ko'zim o'tkirroq. (*Xatni olmokchi bo'ladi*.)

*Artyomiy Filippovich* (xatni bermaydi). Yo'q, bu yeri o'qilmasa ham bo'ladi, nari yog'i ochiq yozilgan.

*Korobkin.* Menga bering, o'zim bilaman.

*Artyomiy Filippovich.* O'qish bo'lsa, o'zim ham o'qiyman. Nari yog'i yaxshi yozilgan.

*Pochta mudiri.* Yo'q, yo'q, hammasini o'qing! Hammasi o'qilayotibdi-ku.

*Hamma.* Bering, Artyomiy Filippovich, bering xatni. (*Korobkinga*) O'qing.

*Artyomiy Filippovich.* Hozir (xatni berib). Marhamat qiling (*barmog'i bilan berkitib*), mana bu yeridan o'qing. (*Hamma unga yaqin keladi*.)

*Pochta mudiri.* O'qing, o'qing! Bema'ni gapni qo'ying, hammasini o'qing.

*Korobkin* (o'qiydi). «Xudoyixonalar mutasaddisi Zemlyanika kuloh kiygan cho'chqani o'zginasi».

*Artyomiy Filippovich* (zalga). Bema'ni gap! Kuloh kiygan cho'chqa emish! Cho'chqa ham kuloh kiyadimi?

*Korobkin* (davom etadi). «Maktablar nozirining vujudidan bijigan piyoz hidi keladi».

*Luka Lukich* (zalga). Azbaroyi xudo, umrimda og'zimga piyoz olgan emasman.

*Ammos Fyodorovich* (o'zicha). Xayriyat, mening to'g'rimda hech narsa demabdi.

*Korobkin* (o'qiydi). «Sudya...»

*Ammos Fyodorovich* (baland ovoz bilan). Ana xolos... Janoblat, menimcha xat juda uzun ekan. Bundan tashqari nimasini ham o'qiyimiz, betamizlikdan boshqa hech gap yo'q-ku axir!

*Luka Lukich.* Yo'q.

*Pochta mudri.* Yo'q, o'qing!

*Artyomiy Filippovich.* O'qiy bering, o'qing!

*Korobkin* (davom etadi). «Sudya Lyapkin-Tyapkin o'larday move-ton...» (To'xtab.) Fransuzcha so'z bo'lsa kerak.

*Ammos Fyodorovich.* Kim biladi deysiz, bu nima degani! Tovlamachi degani bo'lsa-ku yaxshi-ya, undan ham yomon gapdir deyman.

*Korobkin* (davom etadi). «Ammo mehmondo'st, oq ko'ngil odamlar ekan. Xayr, do'stim, Tryapichkin, men ham senga o'xshab adabiyot ishiga kirishmoqchiman. Bu xildagi tirikchilik kishini zeriktiradi, do'stim; niboyat, ruh ozig'i ham kerak. O'ylab qarasam biron mo'tabarroq ish bilan mashg'ul bo'lish zarur ekan. Menga xat yozdigan bo'lsang Saratov gubernyasi, Podkatalovka qishlog'iga deb yoz. (Xatni aylantirib adresini o'qiydi.) Hurmatli Ivan Vasilevich Tryapichkin janoblariga tegsin. Sankt-Peterburg, Pochtamt ko'chasi, hovli nomeri to'qson yetti, darvozadan kirganda o'ng qo'lda, uchinchi qavat».

*Xotinlardan biri.* Qarang-a, hech ham xayolga kelmagan ko'rgilik.

*Hokim.* So'ydi, so'ydi meni! So'yganda ham o'tmas pichoq bilan so'ydi! Hech narsani ko'rmayman. Faqat odam basharasi o'rniغا ko'zimga allaqanday cho'chqalarining tumshug'i ko'rinishayotibdi xolos. Boshqa hech narsa yo'q, hech narsa! Qaytarilsin! Yo'ldan qaytarilsin! (Qo'l siltaydi.)

*Pochta mudri.* Qaytarib bo'ladimi! Men, xuddi atayin qilganday, nazoratchiga eng yaxshi troyka berilsin debman. Ish chappasiga ketgandan keyin shundoq bo'lar ekan-da.

*Korobkinning xotini.* Juda ham xunuk ish bo'ldi-da, xijolatdan o'ladi kishi...

*Ammos Fyodorovich.* Ie, janoblar, bu yog'i qandoq bo'ldi: u mendan uch yuz so'm qarz olgan edi-ku.

*Artyomiy Filippovich.* Mendan ham uch yuz so'm olgan edi.

*Pochta mudri.* Uf! Mendan ham uch yuz so'm olgan edi.

*Babchinskiy.* Pyotr Ivanovich ikkovimizdan oltmish besh so'm olgan edi.

*Ammos Fyodorovich* (hayratda). Bu qandoq bo'ldi-a, janoblar? Biz nima bo'lib bundoq qo'lga tushdik?

*Hokim* (peshanasiga urib). Meni ayting, meni! Men ahmoqni ayting! Aqldan tariqcha qolmabdi... o'ttiz yildan beri hukumat xizmatidaman, shu vaqtgacha biron ta savdogar yo pudratchi qo'lga tushirolgan emas edi. Man-man degan tovlamachilarni tovlaganman, butun

yer yuzini o'g'irlash qo'lidan keladigan ayyor, makkorlarni ham tuzoqqa ilintirgan odam edim. Uchta gubernatorni aldag'anman... (Qo'l siltab.) Gubernator ham gap ekanmi!

*Anna Andreevna.* Mening shunga ishongim kelmayapti, Antosha, axir Maryani fotiha qilgan edi-ku.

*Hokim* (*ko'kragiga urib*). Fotiha qilgan emish! Fotiha emas, bir balo qildi. Shu mahalda fotiha deb o'tiribdi-ya! (*Achchig'i kelib*.) Mana, xaloyiq, xristianlar, hokimning rasvo bo'lganini ko'ringlar! Ahmoqni, qari ahmoqni ko'rib qo'yinglar! (*O'ziga-o'zi musht o'qtaladi*.) Hu, sho'r-tumshuq. Bir yosh bola, bir lattani muhtaram bir odam deb o'tiribsan-a! Mana endi u keta ketguncha ho-holab kulib ketadi! Bu ishlarni olamga yoyadi. Hammaga kalaka bo'lganim bir sari, bironta qalamkashning qulog'iga yetsa, bu voqealarni komediya qiladi. Mana bunisi alam qiladi! Amal, mansabni yuzxotir qilmaydi. Hamma kuladi, chapak chaladi. Nega kulasizlar? O'zlaringga o'zlarining kulasizlarmi? Sadqayi odam... (*Yer tepinib*.) Bu qalamkashlarning, la'nati liberallarning hammasini bir juvoz qilib yanchib, gumdon qilar edim! (*Yer tepinadi, musht o'qtaladi. Bir oz jumlidan so'ng*.) Hech o'zimga kelolmayman. Xudo uraman desa avval aqldan uradi degan gap — haq. Bu yel quvarning nimasi revizorga o'xshar edi? Hech o'xshaydigan yeri yo'q edi. Jimjiqcha ham o'xshaydigan yeri yo'q edi-ku! Hamma revizor, revizor deb ovoza qildi! Revizor deb avval kim aytdi o'zi? Aytinglar!

*Artyomiy Filippovich* (*qo'lini yoyib*). O'lay agar u nima bo'lib shunday bo'lganini bilmayman. Ko'zim tinib gangidim, shayton yo'il-dan urdimi deyman.

*Ammos Fyodorovich.* Kim aytar edi, bu gap mana shu azamatlar-dan chiqli-da. (*Bobchinskiy va Dobchinskylarni ko'rsatib*.)

*Bobchinskiy.* Xudo ursin. Men aytganim yo'q. Xayolimga ham kelgani yo'q...

*Dobchinskiy.* Men hech, sira ham...

*Artyomiy Filippovich.* Albatta sizda.

*Luka Lukich.* To'g'rida, mayxonadan hovliqib keldilaring, «keldi, keldi, pul ham to'lamaydi...» dedilaring. Xo'p bilgan ekansizlar-u!

*Hokim.* Albatta sizlar! La'nati fitnachilar, yolg'anchilar!

*Artyomiy Filippovich.* Ming la'nat o'sha revizoringga ham-u, gap topib kelgan odamlarga ham!

*Hokim.* Uzun kun shaharda izg'ib, hammani tumov qilib yurasizlar, la'natilar! Fitna-fasod tarqatasizlar, dumi yulingan hakkalar.

*Ammos Fyodorovich.* La'nati ifloslar!

**Luka Lukich. Qilik'i sovuqlar!**

**Artyomiy Filippovich. Pakana fitnalar.**

**Hamma ularning boshiga keladi.**

**Bobchinskiy. Xudo ursin men emas, mana bu Pyotr Ivanovich.**

**Dobchinskiy. Yo'g'-ye, Pyotr Ivanovich, axir avval siz haligiday...**

**Bobchinskiy. Hech-da, avval siz aytdingiz, siz.**

SO'NGGI KO'RINISH

## *Haligilar va jandarma.*

*Jandarma.* Peterburgdan yorlıq bilan kelgan chinovnik sizni yo'q-layotibdi, beto xtoy kelsin dedi. Musofirxonaga tushgan.

Bu gap hammaning esini chiqarib yuboradi. Xotinlar og zidan hayronlik ifoda qiluvchi xar xil tovushlar chiqadi. Hamma joy-joyida qotib qoladi.

## SO'ZSIZ KO'RINISH

Hokim o'rtada simyog'ochday kotib, ko'llarini yozgan va boshini orqaga tashlagan xolda turadi. Uning o'ng tomonida xotini bilan qizi butun vujudi bilan unga tomon intilgan; bularning ketida pochta mudiri tomoshabinlarga qarab, savol alomatiday bo'lib turadi; uning orqasida Luka Lukich garang bir holatda; uning ketida, saxnaning bir chetida uch mexmon xotin bir-biriga suyanib, hokimning oilasiga karab zaxarxanda kilib turadi. Hokimning chap tomonida, xuddi bir narsaga qulq solayotganday, boshini bir tomonga qlyshaytirib Zemlyanika turadi; uning orqasida qo'llarini kerib: «Ana xolos» demoqchi bo'lganday og'zini juftlab sud'ya turadi. Undan keyinda tomoshabinlarga ko'zini qisib, hokimga achchiq kinoya qilgan qiyofada Korobkin, uning ketida, sahnaning eng chetida Bobchinskiy bilan Dobchinskiy ikkovi ham qo'lini paxsa qilib, og'zini ochib, bir-biriga baqrayib turadi. Boshqa mehmonlar dong qotib qolgan. Bir yarim minutgacha shu ahvolda qotib qoladi.

PARDA

Nashriyot uyi «BAKTRIA PRESS»

Litsenziya Al № 203, 28.08.2011 y., Al № 229 ot 16.11.2012 y.

100000, Tashkent, Buyuk Ipak Yuli mavzesi, 15-25

**Telefon:** +998 (71) 233-23-84

Bosishga ruhsat etildi 12.11.2012 y.

Bichimi 84×108 1/32. Hajmi shartli n. t. 2,5.

Adattati 500.

PrintMedia bosmaxonasida chop etilgan  
100000, Tashkent, Uzbekiston ovozi ko'chasi, 32

ISBN 978-9943-4060-9-4